

# Journal of New Century Innovations

VOLUME

**21**  
ISSUE-4



*Journal of new  
century innovations*

## AREAS

Exact and natural sciences

Pedagogical  
sciences

Social sciences  
and humanities

Engineering and  
Medical Sciences

ISSN (p): 2181-3671  
ISSN (e): 2181-368X



Google  
Scholar



[newjournal.org](http://newjournal.org)



# **JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS**

**VOLUME - 21 | ISSUE - 4**

**JANUARY- 2023**



## СИСТЕМА УПРАВЛЕНИЯ ЭЛЕКТРОННОЙ ТОРГОВЛЕЙ ПРОДУКЦИЕЙ ПРОИЗВОДСТВЕННОГО ПРЕДПРИЯТИЯ В СЕТЕВОЙ ИНФРАСТРУКТУРЕ.

Исламов Откирбек Джурабекович,  
Андижанский машиностроительный институт,  
«Информационные технологии»  
стажер-преподаватель кафедры,  
*Информационные технологии в экономике и*  
*2 курс магистра систем*

### Аннотация

Основные элементы системы электронной коммерции целесообразно разделить, на две большие и вместе с тем достаточно самостоятельные группы. Первую группу элементов представляют все компоненты инфраструктуры системы электронной коммерции, а вторую группу — разновидности организационных форм ее реализации.

**Ключевые слова:** коммерция, электронный коммерция, электронный магазин

К основным элементам первой группы относятся те, которые составляют основу *инфраструктуры системы электронной коммерции*. Эти элементы существенно отличаются от тех, которые имеют место в традиционных магазинах. Отличие проявляется как в составе элементов, так и в их содержании.

Система электронной коммерции значительно отличается от традиционного (обычного) вида торговли, так как принципиально меняется бизнес-среда, в которой протекает эта торговля. Использование электронной коммерции обуславливает необходимость

разработки дополнительных, ранее не применяемых в традиционной среде компонентов.

Основными элементами инфраструктуры системы электронной коммерции являются:

- 1) специальное программное обеспечение;
- 2) система управления базами данных и приложениями;
- 3) телекоммуникация и связь;
- 4) система, обеспечивающая безопасность актов купли-продажи товаров и услуг;
- 5) юридическое, правовое обеспечение;
- 6) виртуальная банковская система;
- 7) специальные платежные системы;

- 8) автоматизированное складское хозяйство;
- 9) система доставки товаров и оказания услуг;
- 10) финансовые институты (брокерские и другие конторы);
- 11) система налогообложения и таможенных тарифов;
- 12) служба маркетинга, включающая в себя: баннерную рекламу, отдел продаж, отдел дизайна web-страниц, web-серверов, отдел ценообразования.

В системном и во взаимоувязанном виде эти основные элементы инфраструктуры приведены на рис. 29.

Дадим краткий комментарий к наиболее важным компонентам инфраструктуры системы электронной коммерции.

*Электронный магазин.* Посетивший электронный магазин (web-сервер) потенциальный покупатель может с помощью гипертекстовых ссылок и использования многочисленных мультимедийных возможностей получить в полном объеме интересующую его информацию относительно продукции. В случае удовлетворения товара всем требуемым потребительским свойствам, покупатель может сделать заказ. Существуют различные варианты реализации электронного магазина. В одних случаях подразумевается лишь сопровождение при помощи Интернета сделок и поставок: выбор товара, непосредственно заказ, иногда и оплата. Однако прямая поставка товара производится традиционным способом (товар — это автомобили, компьютеры, бытовая техника и т.п.). В других случаях применение Сети предусматривает возможность поставок посредством использования Интернета.

*Специальное программное обеспечение.* К нему относятся: языки программирования (Java, HTML, XML и др.); шаблоны для ввода и вывода данных; поддержка многоязычности текстов; дизайн и способы изготовления web-страниц; специальное программное обеспечение и др.

HTML (HyperText Markup Language) - стандартный набор кодов, который используется для создания web-документов; установленный на компьютере браузер пользователя при помощи HTML определяет, в каком виде выводить на экран текст, графику и прочие элементы мультимедиа.

Программный комплекс управления электронным магазином или торговой частью системы — это программное обеспечение, позволяющее разрабатывать и поддерживать торговую систему, работающую в онлайновом режиме.

Системы управления web-контентом — это программное обеспечение, позволяющее разрабатывать и поддерживать динамические информационные web-сайты.

*Система, обеспечивающая безопасность актов купли-продажи.* Обеспечение эффективного, недорогого и, самое главное, безопасного

средства проведения платежей является одним из наиболее важных условий для эффективного использования системы электронной коммерции.

*Юридическое обеспечение.* Организация электронной коммерции и торговли должна, во-первых, базироваться на использовании традиционных юридических норм и правил, а во-вторых, предусматривать разработку новых специализированных правовых институтов и процедур. Кроме того, актуальным является унификация законодательства, а также упрощение правил и процедур, применяемых в разных странах.

Исключительно важным принципом является тот, согласно которому стороны, заключившие договор (например, купли-продажи), не вправе ставить под сомнение законность и действительность последнего только на том основании, что он заключен электронным способом. Реализовать этот принцип не всегда удается. В частности, положения такого соглашения не всегда обладают юридической силой в случае судебного разбирательства. Это обусловлено тем обстоятельством, что в данном случае требуется традиционный письменный договор, который содержит все существенные условия, заключенный на бумаге и заверенный собственноручными подписями сторон.

*Специальные платежные системы.* В настоящее время для проведения платежей через Интернет могут использоваться различные карточные технологии. С этой целью плательщик указывает номер своей платежной карточки, а получатель электронного платежа выставляет на карточный счет плательщика платежное требование. Однако данная технология сравнительно легко уязвима. Дело в том, что сеть Интернет не является защищенной. Поэтому существует вероятность перехвата номера платежной карточки злоумышленником. Последний может использовать этот номер для хищения денежных средств с карточного счета. В свою очередь плательщик не в состоянии контролировать сумму, выставленную на его счет, что также не исключает возможности обмана. Поэтому карточная технология, как слабо защищенная, не может HTML (HyperText Markup Language) - стандартный набор кодов, который используется для создания web-документов; установленный на компьютере браузер пользователя при помощи HTML определяет, в каком виде выводить на экран текст, графику и прочие элементы мультимедиа.

Программный комплекс управления электронным магазином или торговой частью системы — это программное обеспечение, позволяющее разрабатывать и поддерживать торговую систему, работающую в онлайновом режиме.

Системы управления web-контентом — это программное обеспечение, позволяющее разрабатывать и поддерживать динамические информационные web-сайты.

*Система, обеспечивающая безопасность актов купли-продажи.* Обеспечение эффективного, недорогого и, самое главное, безопасного средства проведения платежей является одним из наиболее важных условий для эффективного использования системы электронной коммерции.

*Юридическое обеспечение.* Организация электронной коммерции и торговли должна, во-первых, базироваться на использовании традиционных юридических норм и правил, а во-вторых, предусматривать разработку новых специализированных правовых институтов и процедур. Кроме того, актуальным является унификация законодательства, а также упрощение правил и процедур, применяемых в разных странах. Это предполагает тесное сотрудничество бизнеса и соответствующих структур государственной власти не только в пределах одной страны, но и в мировом масштабе.

Исключительно важным принципом является тот, согласно которому стороны, заключившие договор (например, купли-продажи), не вправе ставить под сомнение законность и действительность последнего только на том основании, что он заключен электронным способом. Реализовать этот принцип не всегда удается. В частности, положения такого соглашения не всегда обладают юридической силой в случае судебного разбирательства. Это обусловлено тем обстоятельством, что в данном случае требуется традиционный письменный договор, который содержит все существенные условия, заключенный на бумаге и заверенный собственноручными подписями сторон. В результате электронная коммерция часто не в состоянии преодолеть правовые препятствия, которые возникают вследствие общеобязательных положений национального закона.

*Специальные платежные системы.* В настоящее время для проведения платежей через Интернет могут использоваться различные карточные технологии. С этой целью плательщик указывает номер своей платежной карточки, а получатель электронного платежа выставляет на карточный счет плательщика платежное требование. Однако данная технология сравнительно легко уязвима. Дело в том, что сеть Интернет не является защищенной. Поэтому существует вероятность перехвата номера платежной карточки злоумышленником. Последний может использовать этот номер для хищения денежных средств с карточного счета. В свою очередь плательщик не в состоянии контролировать сумму, выставленную на его счет, что также не исключает возможности обмана. Поэтому карточная технология, как слабо защищенная, не может удовлетворять всем необходимым требованиям. Кроме того, к карточному счету плательщика имеет доступ получатель платежа. Для устранения этих недостатков в настоящее время разрабатываются специальные электронные деньги, которые позволили бы осуществлять платежи через

Интернет анонимно. В настоящее время известно несколько десятков различных платежных систем. Все их разнообразие можно разделить на четыре основные группы:

1. Протоколы сеанса связи, обеспечивающие безопасную передачу данных.
2. Системы, основывающиеся на использовании пластиковых карт.
3. Платежные системы, ориентированные на применение смарткарт (**смарткарта** представляет собой микрокомпьютер, который может содержать процессор, память, систему ввода-вывода. Карта снабжается операционной системой и системой безопасности для защиты данных с возможностью их кодирования).
- 4 Электронные наличные.

**Литература:**

1. Калужский М.Л. Маркетинговые сети в электронной коммерции: институциональный подход / М.Л. Калужский. – М. : Directmedia, 2016. – 388 с.
2. Сергеев В.И. Управление цепями поставок: учебник для бакалавров и магистров / В.И. Сергеев. – М. : Юрайт, 2014. – 479 с.
3. Сток Дж.Р. Стратегическое управление логистикой / Дж.Р. Сток, Д.М. Ламберт. – М. : Инфра-М, 2005. – 830 с.
6. Юрсов А.В. Электронная коммерция / А.В. Юрсов. – М. : Дело, 2003. – 480 с.

**ASOSIY VOSITALAR” (BHXS 16) STANDARTNI AMALIYOTGA  
JORIY ETISH MASALALARI**

*Shomirzayev Ibrohim  
Toshkent Moliya Instituti  
Buxgalteriya hisobi 2 kurs magistranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada asosiy vositalarning hisobi va auditini o‘tkazish bilan bog‘liq muammolar o‘rganilib, ularni xalqaro standartlarga muvofiq yechish yo‘llari tadqiq etilgan. Asosiy vositalarni tan olishning mezonlari va xususiyatlari ko‘rib chiqilgan. 16-sonli "Asosiy vositalar" nomli buxgalteriya hisobining xalqaro standarti tamoyillari va talablari bayon qilingan.

**Kalit so‘zlar:** asosiy vositalar, moddiy aktivlar, hisob, audit, amortizatsiya, inventarizatsiya, xalqaro standartlar.

### **KIRISH**

Zamonaviy bozor iqtisodiyoti korxonalarini yangi uskunalar va texnologiyalarni joriy etishga undaydi hamda yangi moddiy, moliyaviy vositalar va mexanizmlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Mavzu doirasida keyingi izlanishlarni talab qiladigan muammolar qatoriga turli manbalardan olingan asosiy vositalarning boshlang‘ich qiymatini aniqlash hamda tugatish va qayta baholangan qiymatni aniqlashni kiritish mumkin.

### **ADABIYOTLAR SHARHI**

Xalqaro standartlarga muvofiq, asosiy vositalarning buxgalteriya hisobi va auditiga oid muammolarning ba’zi nazariy, tashkiliy va metodologik jihatlari xorijlik iqtisodchi olimlardan: E.A.Arens, K.Druri, V.P.Suys, A.D.Sheremet[1] hamda respublikamiz iqtisodchi olimlaridan: R.D.Dusmuratov, Sh.I.Ilhamov, I.N.Ismanov, A.A.Karimov, A.X.Pardaev, M.Q.Pardaev, M.M.Tulaxodjaeva, K.B.Urazov, I.N.Qo‘ziev[2] ilmiy tadqiqot, o‘quv-uslubiy ishlarida tadqiq etilgan. Ushbu mavzuda ko‘plab tadqiqotlar o‘tkazilishiga qaramay, respublikamiz korxonalari uchun asosiy vositalarni tan olish, hisobga olish va auditdan o‘tkazish uslublarini xalqaro standartlarga muvofiq tashkil qilish masalasi juda dolzarbdir.

### **TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL**

16-sonli "Asosiy vositalar" nomli buxgalteriya hisobining xalqaro standarti maqsadi asosiy vositalarning buxgalteriya hisobini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiq tahlil qilish, BHXSga muvofiq asosiy vositalarni hisobga olish va audit jarayonida yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

16-son BHXS[4] ga binoan, asosiy vositalar moddiy ob’ektlar hisoblanadi, agar ular quyidagi shartlarga javob bersa: a) tovarlarni ishlab chiqarish yoki yetkazib berish

yoki xizmatlar ko'rsatish, boshqalarga ijara berish yoki ma'muriy maqsadlarda foydalanish uchun mo'ljallangan; b) kutilganidek bir necha davrdan ko'proq foydalanilsa.

A.F. Myalkina va boshqa mualliflar ““Mehnat vositalari” atamasi jamiyatdagi ishlab chiqaruvchi kuchlarning progressivligini belgilaydi. “Asosiy vositalar” tushunchasi mamlakat milliy boyligining asosiyelementi, “Ishlab chiqarishning asosiy fondlari” moddiy-texnik bazani va texnologik tuzilmaning progressivligini belgilaydi. “Asosiy vositalar” atamasi buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotda asosiy vositalarni aks ettirish uchun ishlatiladi. “Asosiy kapital” atamasi investitsiyalarni hududlar, moliyalashtirish manbalari, mulkchilik shakllari, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha aniqlashda ishlatiladi. “Ishlab chiqarish apparati” ishlab chiqarish quvvatini aniqlash va ishlatilgan texnologiyalarni baholash bilan o'lchanadi. “Ishlab chiqarish potensiali” mavjud real aktivlarning korxonaning ishlashi va ishlab chiqarish faoliyatini ta'minlash qobiliyati sifatida ko'rib chiqiladi”[5] deb e'tirof etadilar.

Asosiy vositalar kichik turlar va uzoq muddatli aktivlarning tarkibiy qismi sifatida, uzoq muddatli aktivlarning barcha qonuniy belgilab qo'yilgan xususiyatlariga mos keladi, ammo ular boshqa tarkibiy qismlardan o'zining moddiy shakli, holati va ishlashga yaroqliligi va biologik o'zgarishlarning yo'qligi bilan ajralib turadi.

Ular qarz emas, boshqa korxonalarga sarmoyalar kiritilmaydi, asosiy vositalar qiymati qonun bilan tartibga solingan qiymat chegarasidan yuqori bo'lishi kerak. Ushbu masala bo'yicha ba'zi bir aniqliklarni xalqaro moliyaviy hisobot standartlarida kuzatishimiz mumkin. Bundan tashqari, masala shundaki, har qanday kompaniya buxgalteriya siyosatini mustaqil ravishda ishlab chiqishi kerak.

Shuningdek, 16-sonli "Asosiy vositalar" BHXS alohida ahamiyatsiz aktivlarni (masalan, shablonlar, asboblar va shtamplar va boshqalar) bitta asosiy vositaga birlashtirish imkoniyatini nazarda tutadi va aktivning eskirishi ushbu aktivdan maqsadga muvofiq foydalanimishi mumkin bo'lgan paytdan boshlanadi.

O'zbekistonning aksariyat korxonalarida asosiy vositalarni hisobga olishning asosiy muammozi aktivlarni tan olish va tasniflash, ularning balans qiymatini aniqlash, shuningdek tan olinishi kerak bo'lgan eskirish va tushirish zararlaridir.

16-son BXHSga binoan «Asosiy vositalar» quyidagicha tasniflanadi: yer; binolar; mashina va uskunalar; avtomobillar; kemalar; samolyotlar; mebel va jihozlar.

Agar mavjud ob'ektlardan foya olish kutilmasa, bunday aktivlarning balans qiymati taqsimlanmagan foya hisobidan chiqarilishi kerak.

Asosiy vositalarning eskirganligini to'g'ri aniqlash, asosiy vositalarning eskirishini tekshirish bo'yicha muammoli muomalalar paydo bo'lishining oldini olish uchun bizning nuqtai nazarimizga ko'ra to'rt bosqichda o'tkazish tavsiya etiladi:

- 1) asosiy vositalarning mavjudligini haqiqiy tekshirish;
- 2) amaldagi asosiy vositalarning amortizatsiya to'g'risidagi qonun hujjalariiga

rioya etilishini nazorat qilish;

3) asosiy vositalarning eskirishi audit;

4) asosiy vositalarning eskirishi buxgalteriya registrlari va hisobotlarida to‘g`ri aks ettirilganligini tekshirish.

16-sonli "Asosiy vositalar" BHXSning 41-bandiga muvofiq amortizatsiya usulini tanlashning mezoni asosiy vositalardan foydalanishdan iqtisodiy foyda olish shakliga maksimal muvofiqlikdir[4].

### **XULOSA VA MUNOZARA**

16-sonli "Asosiy vositalar" BHXSda ko‘rsatilgan standartlar asosiy vositalarning tannarxi bo‘yicha to‘liq va aniq tavsifini o‘z ichiga oladi, ularning eskirishi, yo‘q qilinishi, tugatilishi, qayta baholanishi, ta’mirlanishi va ulardan foydalanish samaradorligi, bu esa buxgalteriya hisobi va audit sohasidagi muammoli masalalarni hal qilishga ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi.

Xalqaro standartlarga muvofiq buxgalteriya hisobi korxonalar xorijiy sheriklar bilan ish olib boradigan buxgalterlarning ishini osonlashtiradi. Asosiy vositalar auditi murakkab jarayon ekanligi va asosiy vositalar to‘g‘risidagi normativ hujjatlarning o‘zgarishi - ularning eskirishi, tasnifini hisobga olgan holda, asosiy vositalar hisobini xalqaro standartga muvofiq ravishda olib borish maqsadga muvofiq bo‘ladi, chunki asosiy vositalar auditi korxonaning umumiyligi auditining muhim qismidir.

### **ADABIYOTLAR RO`YXATI**

1. Dusmuratov R.D. Audit asoslari. Darslik. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2013. – 612 b.;
2. Ilxamov Sh.I. Amaliy audit. Darslik. T.: Iqtisodiyot, 2018y.; Ismanov I.N. Uzoq muddatli aktivlar buxgalteriya hisobining metodologik asoslari. – T.: Fan, 2016. – 172 b.
3. Pardaev M.Q., Isroilov B.I. Iqtisodiy tahlil. O‘quv qo‘llanma. – T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 2021. – 176 b.;
4. Urazov K.B. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida buxgalteriya hisobining konseptual masalalari. – Toshkent: Fan, 2019. – 236 b.;
5. Qo‘ziev I.N. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida auditorlik hisobotini tuzish va umumlashtirish metodologiyasini takomillashtirish. i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dis. avtoref. – T.: 2017. – 70 b.

## MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA EKOLOGIK TARBIYANING AHAMIYATI

*Daminova Rayxona G'ulomiddinovna  
Navoiy shahar 24 – sonli “Qaldirg’och”  
Davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisi*

**Annotatsiya:** ushbu maqolada ekologiya fani mazmun – mohiyati, ekologika ta’limning maqsadi vazifalari, tizim, metodologik xususiyatlari va maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ekologik ta’limning mazmuni xususidagi fikrlar keltirilgan.

**Kalit so’zlar:** metodologiya, tizim, tabiatshunoslik, ekologiya, ekologik ta’lim – tarbiya, maktabgacha ta’lim, maktabgacha ta’limda ekologik ta’lim, ekologik ong, tabiatni saqlash, yashab turgan joy.

**Abstract:** this article presents the content and essence of ecological science, the goals and tasks of ecological education, the system, methodological features, and the content of ecological education in preschool educational organizations.

**Key words:** methodology, system, natural science, ecology, ecological education - upbringing, preschool education, ecological education in preschool education, ecological consciousness, nature conservation, living place.

Ekologiya fani ekologik ta’lim va tarbiyaning fundamental ilmiy-nazariy asosi bo’lib xizmat qiladi. U fan sifatida organizmlarning yashash muhiti haqidagi qonun va qonuniyatlarini tadqiq qilsa, undan olingan ilmni kadrlar tayyorlash tizimiga aynan ekologik ta’lim va tarbiyani joriy qiladi. Tegishli ta’lim va tarbiya orqali tayyorlangan kadrlar esa amaliyotda jamiyat bilan tabiat munosabatlarini optimallashtirish yo’lidagi chora - tadbirlarni kundalik hayotimizga tatbiq etadi. Barcha fan va o’quv kurslariga qo’yiladigan asosiy talablardan biri qanday tadqiqot metodologiyasiga ega ekanligi. Zero ta’lim nazariyasining bosh masalasi uning metodologiyasidadir. Shuning uchun bo’lsa kerak faylasuf va pedagoglarning munozara markazida aynan mazkur masala ko’ndalang bo’lib turadi. Afsuski, hamma fanlarda bu haqda yagona bir fikr mavjud emas. Metodologiya yunoncha «metodos» – «bilish» yoki «tadqiq qilish» «logos» – «ta’limot» degan so’zlar yig’indisidan olingan. Umumlashgan tarzda fanda metodologiyani – ilmiy bilish metodlariga oid ta’limotlar yig’indisi, to’g’rirog’i bu yerda ham tizimi, deyish mumkin. Chunki, metodologiyaning quyida sanab o’tiladigan qismlari, ya’ni tadqiqot metodlari aynan muayyan bir ketma-ketlikda va ierarxiyada tizimlashtiriladi. Tizim – muayyan bir maqsadda narsa, holat, jarayon, hodisalarini qismlarga ajratish va ularni ierarxik pog’onaga, ya’ni qat’iy vertikal ketma-ketlikda joylashtirish. Metodologiya metod emas va undan farqli ravishda real sharoit va zamonga qarab, yo evolyutsion yoinki noevolyutsion tarzda o’zgarishi mumkin. Metod esa o’zgarmaydi, yangilari yaratiladi va ular eskilarining o’rniga ilmiy bilishda

qo'llaniladi xolos. Metodlarni tizimlash esa muayyan ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ekologik, ma'naviy-ma'rifiy real sharoitdan kelib chiqqan tarzda amalga oshiriladi. Masalan, sobiq Ittifoq davrida deyarli barcha fanlar, jumladan ekologik fanlar ta'lim metodologiyasi marksizmleninizmning utopik kommunizm qurish g'oyasiga asoslangan siyosiy tizimga moslashtirilgan edi.<sup>1</sup> Yuqoridagilardan ma'lum bo'ldiki, ekologik munosabatlar aynan tabiat va jamiyat munosabatlariga qaratilgandir. Mazkur munosabatlar real sharoitdan kelib chiqqan tarzda turli shakllarda namoyon bo'lar ekan. Shuning uchun ham ekologik fanlar metodologiyasi «tabiat» tushunchasiga alohida to'xtalib o'tishimizga to'g'ri keladi. Falsafada tabiat deb obektiv borliqni, ya'ni bizning ongimizga, xatti-harakatimizga bog'liq bo'limgan moddiy dunyoning xilma xil shakllari va turlariga aytildi. Doimo ham inson ongi va tafakkuri unga ilmiy bilish ob'ekti sifatida qaray olmaydi. Lekin, odamlar o'zlarining kundalik hayotiy faoliyatlarida tabiatdan bevosita yoki bilvosita tarzda foydalanadilar. Foydalanish ortgan sari yangi-yangi fan va ulardan kelib chiqadigan o'quv kurs qirralari yuzaga kelaveradi.

Adabiyotlarda tabiatshunoslik – tabiatni ilmiy bilishga qaratilgan fanlar tizimi<sup>2</sup>, deb yuritilgan. Ammo u fanlar tizimi emas, chunki tabiatshunoslikka oid tizimlashgan fanlar ajratilmaydi. Shuning uchun ham «Tabiatshunoslik» mustaqil fan tariqasida emas, balki o'quv kursi sifatida ta'lim jarayonida ishtirok etadi. Tabiatni ilmiy bilishga taalluqli fanlar esa tabiiy yoki tabiiyot fanlar guruhiга ajratiladi.<sup>3</sup>

Ekologiya esa mustaqil fanlar tizimiga kiradi. Shuning uchun ham «Tabiat bilan tanishtirish» hamda «Ekologik ta'lim va tarbiya» mazmunan va mohiyatan bir-biridan farq qiladi. Tabiatshunoslik – tabiatda uchraydigan, sodir bo'lgan, kechayotgan va kechishi mumkin bo'lgan narsa, holat, jarayon va hodisalarini mustaqil hamda ularni kishilar hayoti bilan bog'liq qonun va qonuniyatlarini ilmiy bilishga qaratilgan o'quv kursi yoki moduli. Fanlarni o'quv mashg'ulotlari nuqtai nazardan guruhlashdirishda «Ekologiya» tabiiy fanlar qatoriga kiritiladi. Savol tug'iladi «Ijtimoiy ekologiya», «Ekologiya huquqi», «Inson ekologiyasi» kabi fanlarchi? Ular ham tabiiy fanlar tizimida turadi-mi? Ijtimoiygumanitar fanlardan farqli, ijtimoiy-gumanitar ekologik fanlar («Shahar ekologiyasi», «Amaliy ekologiya», «Inson ekologiyasi», «Demoekologiya», «Agroekologiya», «Sotsguruuhlar ekologiyasi» kabilar) – tabiat va kishilik jamiyati o'rtasidagi munosabatlarni ijtimoiy hodisa va jarayonlar orqali (prizmasida) talqin qiladi. Agarda ijtimoiy va gumanitar ekologik fan atrof tabiiy

---

<sup>1</sup> Человек, общество и окружающая среда // Географические аспекты использования

естественных ресурсов и сохранения окружающей среды.- М.: «Мысль», 1973.- С.10-11

<sup>2</sup> Нигматов А. Экология нима? –Т.: «ТДЮИ нашриёти», 2002. 4-6.

<sup>3</sup> Фанлар.О.Файзуллаев.Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 9-ж. 182-6

muhitdagi holat, jarayon va hodisalarini «asosiy mezon» tariqasida inobatga olmas ekan, ularning tadqiqotlari «sof ijtimoiy fanlar» guruhiga qo'shilib ketadi, ya'ni ekologik fanlar tizimini tark etadi. Ushbu masalani nazariy jihatdan chuqur tahlil qilish «Ekoliya nazariyasi» fanining zamonaviy dolzarb muammolaridan biridir.

Ekologiyaning nazariy asoslari uning rivojlanish va shakllanish tarixi bilan bevosita bog'liqdir. Hozirgi kunda yana bir bora «Ekoliya nazariyasi va tarixi» o'quv kursi yoki modulini ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish kasbiy yo'nalishdagi barcha ta'lim va tarbiyaga mustaqil predmet sifatida o'quv jarayoniga tatbiq etish zarurligini isbot qilinmoqda. Nima bo'lganda ham, ekologik fanlarning tadqiqot predmetida – ekotizimlar doirasida kechgan, kechayotgan va kechishi mumkin bo'lgan tabiiy, ijtimoiy, ijtimoiy-tabiiy va tabiiy-ijtimoiy hodisa, jarayon va holatlarning turli jihatlarini (tabiiy, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, huquqiy, ma'naviy-ma'rifiy...) aks etmog'i lozim. Ana shundagina tadqiqotlar ekologik xarakterga ega bo'ladi. Falsafiy ta'limot nuqtai nazaridan olganda ekologik ta'lim metodologiyasi – real ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviyma'rifiy, huquqiy, ekologik vaziyatda ekotizimlarda kechayotgan tabiiy, ijtimoiy-tabiiy va tabiiy-ijtimoiy holat, jarayon va hodisalar haqida bilim, ko'nikma va malaka berishga qaratilgan metodlarni tanlash va tizimlashtirish. Metodologiyaning kengroq falsafiy ma'nosiga ko'proq yondoshish orqali O'zbekistonda mакtabgacha ekologik ta'lim metodologiyasida quyidagi talablarni bajarish lozim:

- ekologik ta'limga oid tatqiqotlarni muayyan ekotizimlar (bolajonlarning yashash makoni) doirasida olib borish;
- metodlarni tanlash va ularni tizimlashtirishda amaldagi huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ekologik, ma'naviyma'rifiy va texnologik sharoitlardan kelib chiqish;
- respublikaning tabiiy va ma'muriy hududiy farqlanish xususiyatlarini inobatga olish;
- tabiiy, ijtimoiy-tabiiy va tabiiy-ijtimoiy holat, voqeа, jarayon va hodisalarini tadqiq qilish;
- ekologik ta'lim va tarbiyaning o'ziga xos tadqiqot metodlarini ishlab chiqish;
- ilmiy bilish metodlarini real sharoitdan kelib chiqqan holda tizimlashtirish.

Ekologik ta'lim metodologiyasida ijtimoiy sharoitni inobatga olishda tadqiqotlarni ijtimoiylashuviga, ya'ni inson tomonidan jamiyatda yashash imkonini beruvchi bilimlar, normalar va qadriyatlar tizimining o'zlashtirilishini inobatga olish kerak.<sup>4</sup>

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, ekoliya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasining MTTda ekologik ta'lim va tarbiyani rivojlantirish chora - tadbirlari bo'yicha qo'shma qarori qabul qilindi. Mazkur vazifalarning mazmuni va

---

<sup>4</sup> Методология. Фалсафа. Қомусий луғат. –Т.: «Шарқ», 2004. 147-6.

mohiyati MTTda ekologik ta’limni zamon talablari darajasiga olib chiqish, jumladan ekologik ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni yo’lga qo’yishga qaratilgan.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida pedagog va bolajonlar uchun tavsiya etiladigan eklogik ilm bolajonlar uchun quyidagilarni tashkil etadi:

Ekologiya – o’zingiz yashab turgan joy tabiatidan oqilona foydalanish, uni saqlash va buzilganlarini qayta tiklashga qaratilgan harakat.

Yashab turgan joy – biz yashayotgan xona, uy, ko’cha, bog’cha, mahalla, qishloq, shahar.

Tabiatdan oqilona foydalanish – aql bilan tabiatdan foydalanishga qaratilgan harakat.

Tabiatni saqlash – “Ona tabiat”ni asrashga qaratilgan harakat.

Tabiatni qayta tiklash – buzilgan tabiatni yaxshilashga qaratilgan harakat.

Ekologik ong – “Ona tabiat” bizning hayotimizda naqadar kerakligini anglash.

Ekologik madaniyat – ekologik ongni amalda qo’llay olish jarayoni.

Cho’l zonasida joylashgan bog‘chalarda: Quyosh, iqlim, biologik xilma - xillik, cho’llanish va qurg‘oqchilikka qarshi kurash kunlarini taqvim va tadbirlar rejasiga kiritish zarur. Tog‘li hudulardagi bog‘chalarda: Yer planetasining ozon qatlamini muhofaza qilish, qo‘riqxonalar kuni, hayvonlarni muhofaza qilish, tabiiy ofatlardan himoyalanish kabi kunlarni taqvim rejasiga kiritish maqsadga muvofiq. Zero bolajonlarning kundalik faoliyatlarida yoki ko‘z oldilarida mazkur atrof tabiiy muhit holati, jarayon yoki voqealar sodir bo‘lmoqda.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг Олий Мажлисга мурожаатномаси. (<http://uga.uz> / эълон қилинганлиги 25.01.2020).
2. Человек, общество и окружающая среда // Географические аспекты использования естественных ресурсов и сохранения окружающей среды.- М.: «Мысль», 1973.- С.10-11
3. Нигматов А. Экология нима? –Т.: «ТДЮИ нашриёти», 2002. 4-б.

## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING USULLARI

*Baxronova Xurshida*

*Navoiy shahar 24 – sonli “Qaldirg’och”  
Davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisi*

**Annotatsiya:** ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar kompetentligining mazmuni hamda uni rivojlantirishning usullari va yo’llari xususidagi fikrlar keltirilgan.

**Kalit so’zlar:** kompetensiya, rivojlanish, kichik soha, o’yin, bilish, muloqot, ijodiy rivojlanish, kompetentlik.

**Annotation:** this article provides insights into the content of preschool children’s competencies and ways and means to develop them.

**Key words:** competence, development, small field, play, cognition, communication, creative development, competence.

### KIRISH

«Bola dunyoga kelganidan boshlab, unda aynan maktabgacha bo‘lgan yoshda aqliy faollik oshadi, axloqiy-estetik va jismoniy xislatlar shakllanadi. Shu bois ham kelgusi yillarda maktabgacha ta’lim sohasini rivojlantirish borasidagi strategik maqsadimiz – ijtimoiy ahvoldidan qat’i nazar, bog‘cha yoshidagi har bir bolani ushbu ta’lim yo‘nalishi bilan to‘liq qamrab olish uchun sharoitlarni yaratishdan iborat...». Ushbu maqsadlarni ro‘yobga chiqarish maqsadida 2017 yilda O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi tashkil etildi.

Xorijiy olimlar tomonidan inson kapitaliga qilingan investisiyalarning kelajakda eng ko‘p naf keltiradigani shaxs shakllanishining dastlabki, ya’ni maktabgacha ta’lim bosqichida qilingan investisiyalar ekanı isbotlagan. Qayd etish joizki, ijtimoiy-iqtisodiy holati pastroq bo‘lgan oila farzandlariga maktabgacha ta’lim yoshida qilingan investisiyalar, o‘ziga to‘q oila farzandlariga qilingan investisiyalarga nisbatan ko‘proq foyda keltiradi. Sababi maktabgacha ta’lim bolaning nafaqat ijtimoiylashishiga ko‘maklashadi, balki shaxsning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishga asos yaratadi va maktabga tayyorlaydi.

### ASOSIY QISM

Kompetensiya va kompetentlik tushunchalari deganda asosan zamonaviy fanda xodimlarni boshqarish nazariyasi va amaliyotini tahlil qilishda kompetensiya tushunchasiga muhim ahamiyat berilmoqda.

“Kompetentlik” – tushunchasi dastlab ta’lim sohasiga psixologik, pedagogik izlanishlar natijasida kirib kelgan tushuncha bo‘lib, zamonaviy atama sifatida qo‘llanilib kelinmoqda.

«Competentia» lotincha so'zdan olingan bo'lib, o'zbek tilidagi tarjima qilinganda unung lug'aviy ma'nosi «yaxshi biladigan inson», «tajribaga ega bo'lgan kishi» kabi ma'nolarni bildiradi. Shu sababli kompetentlik ta'lim jarayonida sodir bo'ladigan turli xil vaziyatlar, kutilmagan holatlar rahbarning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishuvchanligi, qo'l ostidagilarni ruhiy holatlarini tushuna olish qobiliyatiga ega bo'lishi, raqobaddosh tomonlar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarda mavjud muammolar ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda rahbar tomonidan o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarni aniq maqsadlar asosida qo'llay olish, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik"ni anglatadi. Bu nazariy jihatdan kompetenetlik tushunchasining umumiylarini ochib beradi. Shuning uchun biz maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar kompetensiyalari qanday mazmun kasb etishi bilan tanishib o'tamiz.

Maktabgacha yoshdagi bolalar ta'limida kompetentlilik yondashuvi bolaning o'suvchi shaxsini hayotga, shu jumladan, maktabda o'qishga tayyorlashni, unda ma'naviy qadriyatlar va me'yorlarni o'zlashtirish, boshqa kishilar bilan muloqot qilish, o'z menini shakllantirish bilan bog'liq bo'lган hayotiy muhim masalalarni hal qilish uchun zarur bo'ladigan faoliyat usullarini ko'zda tutadi.

Boshlang'ich asosiy kompetensiyalar faoliyat va xulq-atvor sub'ekti sifatida bolaning yaxlit rivojlanishini talab qiladi.

6-7 yoshdagi maktabgacha bo'lgan bolaning umumiylarini kompetensiyalariga quyidagilar kiradi:

- Kommunikativ kompetensiya–muloqot vositalaridan turli vaziyatlarda foydalana bilish kompetensiyasi.
- O'yin kompetensiyasi – bolaning o'yin jarayoni va uni tashkil qilishda tajriba, bilim va ko'nikmalardan ijodiy foydalanishi. O'quv-tarbiyaviy jarayon uchun asos hisoblanadi.
- Ijtimoiy kompetensiya – hayotiy vaziyatlarda kattalar va tengdoshlar bilan muloqotda axloq qoidalari va me'yorlariga rioya qilgan holda o'zini tuta olish mahorati.
- Bilish kompetensiyasi – atrofdagi olamni ongli ravishda idrok qilish va olingan bilim, ko'nikma, malaka va qadriyatlardan o'quv va amaliy vazifalarni hal qilish uchun foydalanish.

Maktabgacha ta'limning Davlat ta'lim standarti tarkibiy qismi hisoblangan Maktabgacha ta'lim tashkilotining davlat o'quv dasturida bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalari bola rivojining quyidagi sohalarida belgilanadi:

- jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllanishi;
- ijtimoiy-hissiy rivojlanish;
- nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari;

-bilish jarayonining rivojlanishi;  
-ijodiy rivojlanish.

“Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining shakllanishi” sohasidagi o‘quv-tarbiyaviy faoliyat yakunlanganidan so‘ng 6-7 yoshli bola: o‘z imkoniyatlari va yoshi bilan bog‘liq jismoniy rivojlanish me’yorlariga mos ravishda jismoniy faollik ko‘rsatadi; turli harakatchanlik faolligini uyg‘un ravishda va maqsadli bajarishni biladi; turli hayotiy va o‘quv vaziyatlarida mayda motorika ko‘nikmalaridan foydalanadi; o‘z harakatlarini hissiyot va sezgi organlari yordamida boshqaradi; shaxsiy gigiyena malakalarini qo‘llaydi; sog‘lom turmush tarzi va ovqatlanish asoslarini biladi; xavfsiz hayotiy faoliyat asoslari qoidalariga rioya qiladi.

“Ijtimoiy-hissiy rivojlanish” sohasidagi o‘quv-tarbiyaviy faoliyat yakuniga yetganidan so‘ng 6-7 yoshli bola: o‘z “Men”i va boshqa insonlarning hayotiy faoliyat muhitidagi roli to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘ladi; o‘z hissiyotlarini boshqaradi va ularni vaziyatga mos ravishda ifodalaydi; o‘zgalarning hissiyotlarini farqlaydi va ularga mos ravishda javob beradi; kattalar va tengdoshlar bilan vaziyatga mos ravishda muloqot qiladi; murakkab vaziyatlardan konstruktiv chiqish yo‘llarini topadi.

“Nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari” sohasi kompetensiyalari yakuniga yetganidan so‘ng 6-7 yoshli bola: nutqni eshitadi va tushunadi; o‘z nutqida to‘g‘ri talaffuz, qulay grammatik shakllar va xilma-xil gap konstruksiyalaridan foydalanadi; ikkinchi tilni o‘rganishga qiziqish namoyon qiladi; ikkinchi tilni egallah bo‘yicha dastlabki bilimlarini ko‘rsatadi; badiiy adabiyot asarlariga qiziqish namoyon qiladi; so‘zning lug‘aviy, bo‘g‘inli va fonetik tuzilishi to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘ladi; turli ma’no shakllarini mustaqil ravishda tuzish va so‘zlab berishni biladi; yozishning dastlabki malakalari va vositalaridan foydalanishni biladi

“Bilish jarayonining rivojlanishi” sohasi kompetensiyalari yakuniga yetganidan so‘ng 6-7 yoshli bola: bilim olishga faol qiziqishni namoyon etadi; o‘quv va hayotiy faoliyat uchun axborotni mustaqil ravishda topadi va undan foydalanadi; predmetlar, voqealar va ko‘rinishlar o‘rtasidagi oddiy aloqalarni tushunadi va ularni yaxlit bir butunlik sifatida idrok qiladi; raqamlar, hisob-kitobni biladi va ularni hayotda qo‘llaydi; makon, shakl va vaqtga mos ravishda ish tutadi; elementar matematik hisoblashlarni amalga oshiradi; atrof muhitdagi voqealari-hodisalar va ko‘rinishlarni kuzatadi hamda tadqiq qiladi; atrof muhitga nisbatan ehtiyyotkorona va g‘amxo‘r munosabatni namoyon etadi.

“Ijodkorlik” sohasidagi o‘quv-tarbiyaviy faoliyat yakuniga yetganidan so‘ng 6-7 yoshli bola: san’at va madaniyatga qiziqish namoyon qiladi; milliy an’analarni qadrlaydi va ularni kundalik hayotning bir qismi sifatida idrok etadi; san’atning muayyan turini afzal ko‘rishini mustaqil ravishda ifodalaydi; olingan bilim va ko‘nikmalardan turli hayotiy vaziyatlarda o‘z ijodiy rejalarini tuzish va tatbiq qilish

uchun foydalanadi; insonning dunyoni o‘zgartirishdagi yaratuvchanlik rolini tushunadi.

### **XULOSA**

Xulosa o’rnida shuni ta’kidlash lozimki, bugungi kunda ta’lim muassasalari oldiga qo’yiladigan maqsadlardan biri ijtimoiy kompetentlikning yuqori darajasini shakllantirish uchun kerakli sharoitlarni yaratish, ijtimoiy psixologiya, pedagogika metod va usullarini tanlash hisoblanadi. Bunday shartsharoitlarni ta’lim muassasasi tarbiya sohasi imkoniyatlaridan foydalanib yaratish mumkin, tarbiya kuchni bolalarga emas, balki ularni o’rab turgan sharoiti, yashab turgan atrof-muhitiga qaratish kerak. Ta’limning asosiy vazifasi ham madaniyat, ijtimoiy normalar va qadriyatlarni o’zlashtirish asosida jamiyatga tez kirishib keta oladigan shaxsni tarbiyalashdir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 22.12.2020 yildagi 802-son Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to’g’risida.
2. НамДУ илмий ахборотномаси - Научный вестник НамГУ 2019 йил 9-сон 258 ижтимоий компетентликни касб танлашга таъсири Ориббоева Диляфруз Дадамирзаевна НамДУ Педагогика ва психология кафедраси ўқитувчиси
3. <https://fayllar.org/boshqaruv-kompetensiyalari-reja-kompetensiya-va-kompetentlik-t.html>

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA SAHNALASHTIRISH  
FAOLIYATINING ASOSIY  
MAQSADI**

*Rahmonqulova Gulhayo To'raqul Qizi  
Navoiy shahar 24 – sonli "Qaldirg'och"  
Davlat maktabgacha ta'lism tashkiloti tarbiyachisi*

**Annotatsiya:** ushbu maqolada maktabgacha ta'lism tashkilotlarida sahnalashtirish faoliyatining maqsad, vazifalari, teeatr faoliyati orqali bolalar ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish vazifalari xususidagi fikrlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** maktabgacha davr, maktabgacha ta'lism – tarbiya. sahnalashtirish faoliyati, ijodiy qobiliyat, faollik, erkinlik, psixologik komfort.

**Abstract:** in this article, the goals and tasks of staging activities in pre-school educational organizations, the tasks of developing children's creative abilities through theater activities are given.

**Key words:** preschool period, preschool education - upbringing. staging activity, creative ability, activity, freedom, psychological comfort.

### **KIRISH**

Maktabgacha davr – bu bolaning o'sish, rivojlanish, o'zini namoyon etishga intilish, o'rganishga, bilishga ishtiyoqi kuchli bo'lgan davrdir. Aynan shu davrda bolaning insoniy sifatlari va aqliy salohiyati rivojlanishi uchun poydevor yaratiladi. Maktabgacha yoshdagi bola bilan ta'lism-tarbiya qanchalik erta boshlansa, samarasi shunchalik erta namoyon bo'ladi va bolaning butun hayotiga ijobiy ta'sir etadi.

Maktabgacha ta'lism-tarbiya – har bir bolaga individual yondashish, uni shaxs sifatida hurmat qilish, ma'naviy-axloqiy tomondan tarbiyalash, bolaning qiziqish va ehtiyojiga mos tarzda ta'lism berishni nazarda tutadi. Maktabgacha ta'lism mazmuni va metodlari bola shaxsining shakllanishi, uning mustaqil shaxs sifatida tan olinishi jarayonlari kechadigan muhitda tashkil etilishi katta ahamiyatga ega. Zero, shaxs sifatida shakllangan, kamol topgan bola o'zini, o'zligini taniydi va kelajakda millatning, yurtning faxriga aylanadi. Maktabgacha ta'lism tashkilotida bolaning kelajak hayotida muvaffaqiyatga erishishiga yordam beruvchi jismoniy, aqliy va ma'naviy qobiliyati bilish jarayonida, bizni o'rab turgan atrof-muhitni o'rganish, nutq o'stirish, badiiy asarlar tinglash, rasm chizish, qurish-yasash, jismoniy mashqlar bajarish va boshqa faoliyat turlarida rivojlanadi. Bu faoliyatlarda yo'nalishlar bir-biri bilan uyg'unlashtirilib – integrallashgan rejalashtirish asosida tashkil etiladi hamda o'yin

shaklida qiziqarli tarzda olib boriladi. O‘yin kichkintoyning tabiiy ehtiyojlari va istaklariga mos kelganligi sababli, o‘yin jarayonida o‘rganayotgan mavzuni quvnoqlik bilan takrorlaydi, yengillik bilan o‘zlashtiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori asosida Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim-tarbiya ishlarini olib borish vazifasi yuklatilgan. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev – “Maktabgacha yoshdagi bolaga singdirilgan bilim va qadriyatlar, uning kelgusidagi butun hayotini belgilab berishi sababli maktabgacha ta’lim uyg‘un rivojlangan shaxsni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.”- degan fikrlari ham pegagoglarga katta vazifa yuklaydi.

Ijodiy qobiliyat insonni hayvondan farqlab turadigan bir xususiyatdir. Bu qobiliyat insonga nafaqat hayoti davomida qo‘l kelishi va undan foydalanishi mumkin, balki uning ko‘rinishini o‘zgartirishi ham mumkin. Bolalar ijodiyoti va uning o‘ziga xos tomonlarini tushunish pedagoglardan ko‘pgina bilimlarga ega bo‘lishni talab etadi. Pedagog san’atda bu faoliyat qanday xarakterga ega, rassom badiiy obrazni yaratishi uchun qanday vositalardan foydalanayapti, uning ijodiy faoliyatining bosqichlari qanday degan savollarga javob bera olishi kerak.

### ASOSIY QISM

Teatr bola ta’lim-tarbiysi uchun katta ahamiyatga ega, bolalar u bilan uchrashuvni sabrsizlik bilan kutadi. Teatr hamma (yoki deyarli hamma) narsaga qodir. U mo‘jiza yaratadi: quvontiradi, o‘rgatadi, maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi, ularning xulqini korreksiyalaydi, emotsiyon namoyon bo‘lishiga ko‘maklashadi, bolalarning nutqi, notiqlik qibiliyatlarini rivojlantiradi, o‘ziga ishonchini oshiradi, omma oldida chiqish ko‘nikmalarini egallashida yordam beradi.

Teatr san’ati bola shaxsining har tomonlama rivojlanishiga ko‘maklashadi. Teatr san’ati bilan kun sayin muloqot qilib borar ekan, bolalar bir-biriga nisbatan toqatli, kelishuvchan, og‘ir-bosiq bo‘lib, o‘zini tartibga solib oladi. Teatr maktabgacha yoshdagi bolalarning his-tuyg‘ulari va kayfiyati (ruhiyati)ga kuchli emotsiyon ta’sir o‘tkazadi, ularning fikrlash doirasini kengaytirib, nutqini boyitadi, axloqiy-ma’naviy tasavvurini shakllantiradi, aqliy tasavvurlarini rivojlantiradi, intellektual qobiliyatlarini oshiradi. Teatr bolani ma’naviy tarbiyalaydi. Teatr – sehrli olam, unda bola o‘ynab, quvonadi, o‘ynab atrof olamni o‘rganadi, ya’ni uning emotsiyon olamini boshqarishni o‘rganadi. Bolada ijodga e’tibor, qiziqish, intilishning namoyon bo‘lishi uning taassurotlarini yangilaydigan emotsiyon undovlarni talab qiladi. Bu borada teatrlashtirish faoliyatining juda katta ijobiy ahamiyatini alohida ta’kidlash mumkin. Pedagogik jihatdan to‘g‘ri tashkil qilingan bu kabi faoliyat bola hayotiga yangi qimmatli mazmun olib kiradi,

quvonch hissini uyg‘otadi, barcha kuch va qobiliyatlari, jumladan nutqiy rivojlanish qobiliyatlarini faoliyatga safarbar qilishga undaydi. Hamma bolalar spektakllarni yaxshi ko‘radi.

- ✓ Maktabgacha ta’lim tashkilotida teatrlashtirilgan faoliyatning o‘ziga xosliklari: teatrlashtirilgan faoliyatda bolalarning ijodiy faolligi uchun sharoit yaratiladi;
- ✓ bolalarni teatr madaniyatiga oshno qiladi;
- ✓ pedagogik jarayonda teatrlashtirilgan va boshqa faoliyat turlari o‘zaro aloqadorligi uchun sharoit yaratadi;
- ✓ Bolalar va kattalarning hamkorlikdagi teatrlashtirilgan faoliyati (bolalar, ota-onalar, pedagog-xodimlar ishtirokida birgalikda spektakllar qo‘yish; katta guruh bolalarining kichik tarbiyalanuvchilar oldida chiqishlarini tashkil qilish).

Teatrlashtirilgan o‘yinlar bolalarni hamma vaqt o‘ziga jalb qiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar o‘yinga jon-u dili bilan kirishadi: qo‘g‘irchoqlarning savollariga javob beradi, ularning iltimoslarini bajaradi, maslahatlar beradi, u yoki bu obrazga “kiradi”. Kichkintoylar personajlar bilan birga kuladi, ular bilan birga qayg‘uradi, ularni xavf-xatardan ogoh qilishga intiladi, sevgan qahramonining muvaffaqiyatsizligidan birga ko‘z yoshi to‘kadi, hamma vaqt unga yordamga tayyor turadi. Teatrlashtirilgan o‘yinlarda qatnashib bolalar atrof olam: obrazlar, ranglar(bo‘yoqlar), tovushlar bilan tanishadi. Teatrlashtirilgan o‘yinlarning bola shaxsiga katta va har tomonlama ta’siri undan kuchli pedagogik vosita sifatida, ortiqcha majburlashsiz, foydalanish imkonini beradi, chunki kichkintoy o‘yin vaqtida o‘zini erkin his qiladi.

Teatrlashtirish bo‘yicha faoliyatda rivojlantiruvchi predmet-makon muhitini tashkil qilish va bezashda quyidagi printsiplarga tayaniladi:

- **komplekslash va egiluvchan zonalashtirish** printsipi, bolaga qiziqtirgan faoliyat bilan bir-biriga xalaqit bermagan holda shug‘ullanish imkonini beradi;
- **faollik** printsipi, bolaning bilish faoliyatini, faolligini rag‘batlaydi;
- erkinlik va mustaqillik printsipi, bolaga muhitga o‘z munosabatini mustaqil belgilash: idrok qilish, taqlid qilish, yaratish; o‘zi istaganini mustaqil tanlash imkonini beradi;
- hayotiy haqiqat illyuziyasi printsipi, bolalarni yaratilgan aldovga berilish va haqiqiy predmetlar bilan ishlayotganiga ishonch hosil qilish uchun ruhiy va faktik imkoniyat yaratadigan sharoitga qo‘yishdan iborat. Sanab o‘tilgan printsiplar bilan bir qatorda quyidagi didaktik printsiplar ham realizatsiyalanadi;
- psixologik komfort (qulaylik) printsipi bolalar o‘zini xuddi uyidagidek his qiladigan sharoit yaratish. Stress hosil qiluvchi omillarni bartaraf qilish, bolalarni

muvaffaqiyatga yo‘naltirish, asosiysi, quvonchni his qilish, faoliyatning o’zidan zavq olishiga yo’llash;

- ijodkorlik (kreativlik) – bolalarni maksimal darajada ijodiy ibtidoga, o‘z ijodiy faoliyat tajribasini egallahsga yo‘naltirish;

### **XULOSA**

Xulosa o’rnida shuni ta’kidlash lozimki, teatr faoliyati bolalar ijodiyotining eng keng tarqalgan turidir. Maktabgacha yoshdagি bolalar uchun har bir adabiy asar yoki ertak har doim axloqiy yo‘nalishga ega (do‘stlik, mehr-oqibat, halollik, jasorat va boshqalar), ular tufayli ijtimoiy xatti-harakatlar ko‘nikmalarini shakllantirish tajribasini shakllantiradi. Ertaklar tufayli bola dunyoni nafaqat aqli bilan, balki qalb bilan ham o‘rganadi. Va nafaqat biladi, balki yaxshilikka ham, yomonga ham o‘z munosabatini bildiradi. Sevimli qahramonlar ideallariga aylanishadi. Aynan bolaning qahramonlarga taqlid qilish qobiliyati tarbiyachi-pedagoglarga teatr faoliyati orqali bolalarga ijobiy ta’sir ko‘rsatishga imkon beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Sotimboy Tursunboyev Teatr tarixi o‘quv qo‘llanma, “Bilim”, –T.: 2005,
2. Namangan davlat universiteti Ijtimoiy-madaniy faoliyat yo‘nalishi talabalari uchun “Teatr tarixi” fanidan ma’ruzalar matni Namangan. 2014-yil, 21-bet.
3. B.S.Abdullayeva, Sh.M.O‘tamurodova bolalarni sahnalaشتirish va ijodiy faoliyatga o‘rgatish. O‘quv qo‘llanma. Navoiy - 2022
4. <http://anysite.ru/>
5. [uz.wikipedia.org](http://uz.wikipedia.org)
6. [www.bharatiya.ru](http://www.bharatiya.ru)
7. <https://uz.wikipedia.org/wiki/>

**UMUMTA'LIM MAK TABI ONA TILI DARSLARIDA DARS O'TISHNING  
YANGICHA USLUBLARI VA DARS MASHG'ULOTLARINI TASHKIL  
ETISHDA TA'LIM TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISHNING  
DOLZARBLIGI**

*Boboyorova Nilufar Batirovna  
Toshkent shahar Bektemir tumani 347-umumta'lismaktab*

**Annotatsiya:** Bugungi kunda mamlakatimizda davlat tiliga, ya'ni o'zbek tiliga e'tibor kundan kunga ortib bormoqda. Shu bois, umumta'lismaktablarida dars beruvchi ona tili o'qituvchilaridan ona tili fanini o'qitishda yangicha usullar, ilg'or pedagogik hamda innovatsion texnologiyalardan foydalanish kerakligi zamon talabiga aylanmoqda. Aynan shu maqsadni nazarda tutgan holda ushbu maqolani umumta'lismaktabi ona tili darslarida dars o'tishning yangicha talqinlariga bag'ishladik. Shuningdek, ona tilidagi fe'l so'z turkumiga doir mavzularni o'qitishda ilg'or ta'lismetodlaridan foydalanishning samarali yo'llari ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** ta'lismetodologiyaları, pedagogik maqsadlar taksonomiyasi, kognitiv(bilishga oid) soha, Benjamin Blum taksonomiyasi, faol o'qitish metodlari, zamonaviy ta'lismetodlari, bilish, tushunish, qo'llash, analiz, sintez, baholash, talaffuz, nutqiy ko'nikma, zamonaviy texnik vositalar, tekshirish metodlari, til ma'nolari.

Jamiyat rivoji fan va texnika, ta'lismetodologiyalarini bilan uzviy bog'liq. Insoniyat sivilizatsiyasining quyi bosqichlarida shaxsni tarbiyalash, unga ta'lismetodlari berishga yo'naltirilgan faoliyat sodda, juda oddiy talablar asosida tashkil etilgan bo'lsa, bugungi kunga kelib ta'lismetodologiyalarini o'ta qat'iy hamda murakkab talablar asosida yo'lga qo'yish zarurati kun tartibiga qo'yilmoqda. Zero, bugungi kunda zamonaviy sharoitda muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatish uchun har bir yosh bir necha tilni yaxshi o'zlashtirgan bo'lishi, o'zbek (davlat) tilidan tashqari kamida ikki emas, to'rtta jahon tillarini yaxshi bilishi talab etilmoqda. Bunga erishish uchun ta'lismetodologiyalarini yangilash, amaldagi dastur va darsliklarni takomillashtirish va eng muhimi - barcha tarkibiy qismlari mohiyat va metodologik jihatdan mushtarak bo'lgan yangi o'quv majmualari yaratishga yo'naltirilgan tadbirlar dasturi ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi darkor. So'nggi yillarda jahon ta'lismetodologiyalarini tizimida tilni zamon talablari asosida mustaqil o'zlashtirish usullarini tatbiq etishga katta e'tibor berilmoqda. Jumladan bizning respublikamizda ham har bir til va adabiyot fanini o'qituvchi mutaxassis ustoz o'z darslarini yangi pedagogic texnologiyalar asosida o'qitishga qaratmoqda.

Maktablarda ona tili darslarini samarali tashkil etish uchun o'qituvchilar quyidagi jihatlarga e'tiborli bo'lishlari darkor:

1. Darsni 8-12, 15-20 kishidan iborat guruhlarda tashkil etish.

2. O'qitishda zamonaviy texnik vositalar (video-magnitofon, kompyuter va boshqa audiovizual jihozlar) dan foydalanish.
3. Til o'rgatishda, shuningdek, fan bo'yicha darslik, o'quv qo'llanma, uslubiy qo'llanma, mavzular bo'yicha uslubiy ko'rsatma va ishlanmalardan mustaqil ravishda foydalanish.
4. O'quv mashg'ulotlarini tashkil etishda tilni nazariy jihatdan o'rganishga, yangi nutqiy ko'nikmalar hosil qilishga e'tibor qaratish.

Bundan tashqari, ona tilini o'rgatishda to'g'ri talaffuz qilish ko'nikmasini shakllantirish va so'z boyligini muntazam ravishda oshirib borish muhim ahamiyatga ega. Bunda texnik vositalar - video va audiomagnitafonlardan foydalanish yaxshi samara beradi.

***Ta'lif jarayonida faol o'qitish metodlarini tanlash.***

Ta'lif texnologiyaelementlarini tanlash va amalga oshirishda ta'lif oluvchilarning o'quv bilish faoliyatlarini e'tiborga olish lozim. Amaliyotdagi oddiy qoida shu haqida guvohlik beradiki, nazariy darsning dastlabki 20 daqiqasida ta'lif oluvchilarga yangi bilimlarni berish amalga oshiriladi, keyin esa bahs-munozara, kichik guruhlarda ishlash va boshqa shu kabi noan'anaviy metodlarni amalga oshirish orqali berilgan bilim mustahkamlanishi lozim.

Agar bilimlarni idrok qilishda bir necha sensorik kanallar birgalikda ishga solingan bo'lsa, ma'lumotlarning qisqa xotiradan uzoq xotiraga o'tish jarayoni tezlashadi, bu esa bilishning asosi bo'lib hisoblanadi.

Yo'naltiruvchi matn, muammoli vaziyat, boshqalarni o'qitish kabi usullarmustaqlil o'rganilgan, tahlil va muhokama qilingan ma'lumotlarning 90 foizini xotirada saqlanashi uchun imkon beradi.

Yuqoridagi ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, dars jarayonida an'anaviy metodlar qo'llanilganda, ta'lif oluvchilarning axborotni eslab qolish ko'rsatkichining eng yuqori darajasi 30 foizni tashkil etar ekan. Noan'anaviy metodlar qo'llanilganda esa, ularning axborotlarni o'zlashtirish darajasi yanada ortib boradi.

Har qanday ta'lifning maqsadi - bilimni hamda uni amalda qo'llay bilish ko'nikmalari va malakalarini shakllantirish, shunga zarur shaxs sifatlari va ko'rsatmalarni ishlab chiqishdir. Ekspertlarning ta'kidlashlaricha, o'qituvchilar o'rtasida o'tkazilgan so'rov natijasida adabiyotlar tahlili, dasturlar, darsliklar, dars berish amaliyotidagi o'quv maqsadlarining aksariyati kognitiv (bilishga oid) sohaga tegishli bo'lishi aniqlangan. Xuddi shu maqsadda jahon pedagogikasida fundamental izlanishlar natijasida o'quv maqsadlari taksonomiyasi vujudga kelgan. U o'quv maqsadlarini belgilashning eng ilg'or usuli bo'lib e'tirof etilgan. Ona tili darslarida o'quv jarayonini pedagogik maqsadalar taksonomiyasidan foydalanib tashkil etishda quyidagi tavsiyalarga asoslanish maqsadga muvofiqdir:

O‘quv maqsadlarining asosiy toifalari	O‘quv maqsadlari turlaridan namunalar.
<p>1. Bilish</p> <p>Bu toifa o‘tilgan materialni eslab qolish va takroran so‘zlab (ko‘rsatib) berishni anglatadi.</p> <p>Mazmun turlicha aniq dalillardan boshlab, to yaxlit nazariyalargacha bo‘lishi mumkin. Bu tofaning umumiy belgisi tegishli ma’lumotlarni eslab qolishdir.</p>	<p>Ta’lim oluvchi</p> <p>Qo‘llaniladigan iboralarni biladi, aniq dalillarni biladi, ish-harakat tartibi uslublarini biladi, asosiy tushunchalarni biladi, qoida va tamoyillarni biladi.</p>
<p>2. Tushunish</p> <p>Quyidagilar o‘tilgan material ahamiyatini tushunish qobiliyatining ko‘rsatkichlari bo‘lish mumkin: materialni bir shakldan ikkinchi shaklga o‘zgartirish, bir «til» dan ikkinchi «til»ga aylantirish (masalan og‘zaki shakldan yozma shaklga). Shuningdek, o‘quvchi tomonidan materialni tushuntirib berilishi va qisqacha bayon qilinishi (interpretatsiya) yoki hodisa va voqealarning bundan keyingi borishini tasavur etishi (oqibati va natijasini oldindan aytib berishi) ham tushunish ko‘rsatkichlari bo‘ladi.</p>	<p>Ta’lim oluvchi</p> <p>Dalillar, qoida va tamoyillarni tushunadi, og‘zaki materialni talqin qila oladi, sxema, diagramma, grafiklarni talqin qila oladi, og‘zaki materialni yozma shaklda ifodalay oladi, mavjud ma’lumotlar asosida kutilayotgan oqibat-natijani taxminan tasavvur eta oladi.</p>
<p>3. Qo‘llash</p> <p>Bu toifa o‘qitilgan materialdan aniq sharoitlarda va yangi vaziyatlarda foydalana bilishni anglatadi. Bunga qoidalar, uslublar, tushunchalar, qonunlar, tamoyillar va</p>	<p>Ta’lim oluvchi</p> <p>Tushuncha va tamoyillarni yangi vaziyatlarda qo‘llaydi, qonun, o‘rganilgan ma’dumot, nazariyalarni aniq amaliy vaziyatlarda qo‘llaydi,</p>

<p>nazariyalarni amalda qo'llay olish kiradi.</p> <p>O'qitishning bunday natijasi materialni tushunishga nisbatan ancha yuqori darajada egallashni talab qiladi.</p>	<p>uslub yoki ish-harakat tartibini qo'llay olishini namoyish qiladi.</p>
<p><b>4. Tahlil</b></p> <p>Bu toifa materialni alohida qismlarga ajratishni bilishni anglatadi. Bunda uning tarkibiy tuzilishi aniq ko'rinish turishi kerak. Bunga yaxlitlikni qismlarga ajratish, ular o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni aniqlash, yaxlitlikning tashkil etilish tamoyillarini anglash kiradi. Bu toifa o'quv natijalarini tushunish va qo'llashga nisbatan anchagina yuqori darajada ekanligi bilan xarakterlanadi.</p>	<p>Ta'lism oluvchi Yashirin (noaniq) taxminlarni ifodalaydi, fikrlash mantig'idagi xato va kamchiliklarni ko'ra oladi, dalillar va sabablar o'rtasidagi tafovutlarni aniqlaydi, bog'lanishlarni tahlil qila oladi.</p>
<p><b>5. Sintez</b></p> <p>Bu toifa o'zida yangilikni aks ettirgan yaxlitlikni vujudga keltirish uchun alohida qismlar kombinatsiyasini tuzishni anglatadi.</p> <p>Bunday yangi mahsulot - leksiya, nutq faoliyat rejasi yoki umumlashtirilgan aloqalar majmui (mavjud ma'lumotlarni tartibga tushirish sxemasi) bo'lishi mumkin. Unga mos o'quv natijalari yangi sxema va tarkibiy tuzilishlar yaratishni o'z ichiga olgan hamda ijodiy xarakterga ega bo'lgan faoliyatni nazarda tutadi.</p>	<p>Ta'lism oluvchi Materialning mantiqiy tuzilishini yozma matn shaklida baholaydi, xulosalarni berilgan shakllarga mosligini baholaydi, ichki mezonlardan kelib chiqqan holda, insho yozadi, tajriba o'tkazish rejasini tuzadi, u yoki bu muammoni hal etish rejasini tuzishda boshqa (fan)larga oid bilimlardan foydalanadi.</p>

<p><b>6. Baholash</b>          Bu toifa u yoki bu material (qonun, badiiy asar,o‘rganilgan ma’lumot, izlanish natijalari)ning ahamiyatiga aniq maqsad nuqtai nazaridan baho berishni anglatadi. O‘quvchi mulohazalari mezoni ichki (tarkibiy, mantiqiy) yoki tashqi (belgilangan maqsadga muvofiq) bo‘lishi mumkin. Bu mezonlar o‘quvchi yoki o‘qituvchi tomonidan belgilanishi mumkin. Bu toifa oldingi (5ta) o‘quv maqsadlarining barchasini egallanishini va ularga qo‘srimcha ravishda aniq belgilangan mezonlarga asoslanib baho bera olishni ham bilishni nazarda tutadi</p>	<p>Ta’lim oluvchi Materialning mantiqiy tuzilishini yozma matn shaklida baholaydi, xulosalarni berilgan shakllarga mosligini baholaydi, ichki mezonlardan kelib chiqqan holda u yoki bu faoliyat ahamiyatiga baho beradi, tashqi mezonlardan kelib chiqqan holda u yoki bu faoliyat ahamiyatiga baho beradi (munosabatini bildiradi).</p>
--	---

Endi esa ona tili darslarida fe’l so‘z turkumiga oid mavzularni o‘qitishda o‘quv maqsadlarini B.Brum takonomiyasidan foydalanib aniqlash yuzasidan namuna berib o‘tamiz. Buning uchun ko‘p javobli va nostandard testlardan foydalanish yaxshi samara beradi.

1. “Bilish” ga oid o‘quv maqsadiga erishilganlik darajasini nazorat qilish va baholashda foydalaniladigan nostandard test topshirig‘i:

*Berilgan gaplardagi o‘tgan zamon fe’llarining ma’no turlarini aniqlang va jadvalga joylashtiring.*

- 1) *Abdukarim aka bilan birgalikda to‘yxonadan kelmoqda edik.*
- 2) *Kelini Mehriniso Toshkentlik, o‘g‘li ikkisi o‘qish davrida topishgan (O.Yo.)*
- 3) *Kecha oqshom oydinda gulzor tomon borar eding.*
- 4) *Bu qissani men yozib edim.*
- 5) *Endi men o‘zimning qilmishimdan pushaymon bo‘ldim.(A.Q.)*

<i>Aniq o‘tgan zamon fe’li</i>	<i>Uzoq o‘tgan zamon fe’li</i>	<i>O‘tgan zamon hikoya fe’li</i>	<i>O‘tgan zamon davom fe’li</i>	<i>O‘tgan zamon maqsad fe’li</i>

O‘quvchi berilgan ushbu nostandard test topshirig‘i bilan ishslash jarayonida mavzu yuzasidan dalillar va atamalarni, dalillarni tanlash usulini, turkumlashni, umumiyl tushuncha va nazariyalarni bilishi namoyon bo‘ladi. Tahlil” ga oid o‘quv maqsadiga erishilganlik darajasini nazorat qilish vabaholashda foydalaniladigan nostandard test topshirig‘i:

*Quyida berilagan fikrlarning qaysilari to‘g‘ri?*

- A. Hozirgi kelasi zamon fe’li nutq so‘zlanib turgan paytda boshlanib, undan keyin davom etadigan harakatni bildiradi. Bu fe’l shakli fe’l negiziga -y (-a) qo‘srimchasini qo‘sish va tuslash orqali hosil bo‘ladi.
- B. Ish-harakatning nutq so‘zlanib turgan paytga bo‘lgan munosabatlarini ifodalaydigan kategoriylar fe’l nisbatlari deyiladi.
- C. Aniq kelasi zamon fe’li kelasi zamonda aniq bajariladigan ish-harakatni bildirib, unda istak ma’nosi ifodalanadi. Bu fe’l shaklida harakat nutq jarayonidan keyin bajarilishi aniq sezilib turadi. Aniq kelasi zamon fe’li fe’l negiziga -ajak (- yajak), -gay qo‘srimchasini qo‘sish va tuslash bilan hosil bo‘ladi.
- D. Kelasi zamon gumon fe’li harakatning bajarilishi haqidagi mo‘ljalni, taxminni gumon tarzida ifodalaydi. Bu shakl fe’l negiziga -r(-ar) qo‘srimchasini qo‘sib, tuslash orqali hosil bo‘ladi.
- E. Kelasi zamon maqsad fe’li bajarilishi maqsad qilib qo‘yilgan ish harakatni ifodalaydi. Bu fe’l shakli fe’l negizlariga -moqchi, -digan qo‘srimchasini qo‘sish va tuslash bilan hosil bo‘ladi.
- F. Hozirgi zamon davom fe’li nutq so‘zlanib turgan paytda bajarilishda davom etib turgan ish-harakatni bildiradi. Bu shakl fe’l negiziga -yap,-moqda qo‘srimchasini qo‘sish va tuslash bilan hosil bo‘ladi.
- G. Harakatining boshqa bir harakatning belgisi ekanligini anglatib, gapda ergash gapning kesimi yoki hol vazifasida keladigan fe’l shakli sifatdosh deyiladi.

Javob: \_\_\_\_\_

To‘g‘ri javov: A, C, D, E, F

Yuqoridagi topshiriqni bajarish natijasida o‘quvchi mavzuni qismlarga ajratish, bu qismlarning yoyilmasi va ular o‘rtasidagi bog‘lanishlarni tuzish, qismlarni tahlil qilish, yaxlitlikni tashkil qilish tamoyillari bilan tanishadi. Xulosa shuki, ta’lim-tarbiya jarayonida Blum taksonomiyasiga binoan o‘quv maqsadlarining aniqlanishi, o‘quvchilarning o‘quv maqsadlariga erishish darajasini nazorat qilish va baholashda nostandard test topshiriqlaridan foydalanish, nazoratning haqqoniyligi, keng qamrovlilagini ta’minlaydi

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. K.Usmonova. Adabiy ta’limda ilg‘or pedagogik texnologiyalar. Toshkent,2005 y.
2. N.Sattarova. Ona tili va adabiyot faniga ixtisoslashgan maktablarda o‘quvchilarni tahlil qilishga o‘rgatish usullari. Buxoro. 2006 y.

3. Bloom B.S. Handbook on Formative and Summative Evaluation of Student Learning. N - Y., McGraw-Hill, 1971. – s-232.
4. Ismoilova I. Pedagogikadan amaliy mashg‘ulotlar. O‘quv qo‘llanma. - Toshkent: 2002.
5. Usmonboeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. –Toshkent: “Fan”, 2005.
6. Mengliev B. Ona tili ta’limi: Davr talabi va ijtimoiy zarurat. “Ma’rifat” gazetasi, 2017 yil, 22-fevral soni, 8-9-b. 7. Sayfullaeva R., Mengliev B., Boqieva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o‘zbek tili. – Toshkent: 2007.
8. Mengliev B. O‘zbek tilidan universal qo‘llanma. –Toshkent: 2010.

## MAKTABGACHA TA'LIMDA METODIKA FANLARINI O'QITISH JARAYONI YAXLIT TIZIMI HAQIDA

*Xayriyeva Madina Furqat qizi  
Kattaqo 'rg'on shahar 19 - M.T.T. tarbiyachisi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqola,maktabgacha ta'linda metodika fanlarini o'qitish jarayoni yaxlit tizimi va uning mohiyati turlari,tarbiya berish jarayonini nazariyasi haqida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Maktabgacha pedagogika,tarbiya samaradorligi,ilmiy malumotlar, kategoriylar.

**Kirish:** Maktabgacha ta'linda metodika fanlari-maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni tarbiyalash, ulami intellektual, ma'naviy-axloqiy va jismoniy jihatdan kamolotga yetkazish masalalarini o'rganadi.Shuningdek maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berish va ularda ahloqiy fazilatlarni shakllantirish va ulami maktab ta'limiga tayyorlash muammolarini o'rganadi.

**Asosiy qism:** Maktabgacha ta'linda metodika fanlari bola shaxsini rivojlantirishning ikki muhim jihatni unga ta'lim berish va uni tarbiyalashga asosiy e'tibori qaratadi.Maktabgacha ta'linda metodika fanlari-ta'lim jarayoni mazmuni, shakl, metod, vosita va usullari, uni tashkil etish muammolarini o'rganadi.Maktabgacha ta'linda metodika fanlarini o'qitish texnologiyasi fanining vazifalari. Maktabgacha ta'linda metodika fanlarini o'qitish texnologiyasi fani shaxsni shakllantirishdek ijtimoiy buyurtmani bajarish asosida jamiyat taraqqiyotini ta'minlashga alohida hissa qo'shamdi. Maktabgacha pedagogika fanlarini o'qitish metodikasi fanini maqsadi va vazifalarining belgilanishida ijtimoiy munosabatlar mazmuni, davlat va jamiyat qurilishi, uning hayotida yetakchi o'rinn tutuvchi g'oyalar mohiyati muhim ahamiyatga ega.



O‘zbekiston Respublikasida demokratik, insonparvar hamda huquqiy jamiyatni barpo etish sharoitida mazkur fan yuksak ma’naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlarni tarbiyalash tizimini ishlab chiqish, ta’lim va tarbiya berish jarayonini nazariyasini ijodiy rivojlantirish vazifasini hal etadi. Mazkur jarayonda quyidagi vazifalami bajarishga e’tibor qaratiladi:

1.Ma’naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi shaxsnii tarbiyalashga yo‘naltirilgan pedagogik jarayonning mohiyatini o‘rganish.

2.Shaxsnii har tomonlama kamol toptirish qonuniyatlarini aniqlash.

3.Ijtimoiy taraqqiyot darajasidan kelib chiqqan holda, rivojlangan xorijiy mamlakatlar maktabgacha ta’lim tizimi tajribasini o‘rganish asosida maktabgacha ta’lim tizimini takomillashtirish.

4.Maktabgacha ta’lim muassasalari hamda, ularda faoliyat olib borayotgan pedagoglar faoliyati mazmunini assoslash.

5.Maktabgacha ta’limdagi ilg‘or pedagogik tajribalami umumlashtirish va amaliyotga joriy etish.

6.Bo‘lg‘usi tarbiyachlarni maktabgacha ta’limda metodika fanlarini o‘qitish texnologiyasi oid bilimlar hamda ta’lim-tarbiya berish usullari bilan qurollantirish.Maktabgacha ta’limda metodika fanlarini o‘qitish texnologiyasi fanining asosiy kategoriyalari. Bizga yaxshi ma’lumki, har bir fan o‘zining tayanch tushunchalari, qonuniyatlar, tamoyillari, qoidalari tizimiga ega. Aynan mana shu holat uning fan sifatida e’tirof etilishini kafolatlaydi. Fanning mohiyatini ochib beruvchi eng muhim, asosiy tushuncha kategoriya deb ataladi. Maktabgacha metodika fanlarini o‘qitish texnologiyasi fanining asosiy kategoriyalari shaxs kamolotini ta’minalash, ta’lim va tarbiya samaradorligiga erishishga qaratilgan jarayonlaming umumiy mohiyatini yoritadi. Eng muhim kategoriylar sirasiga quyidagilar kiradi: shaxs, tarbiya, taiim (o‘qitish, o‘qish), bilim, ko’nikma, malaka, malumot, rivojlanish.



**Xulosa:** Shaxs - psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo'lgan jamiyat a'zosi.Tarbiya-muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni.

Ta'lim-o'quvchilaming nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish, ulaming bilish qobiliyatlarini o'stirish va dunyoqarashlarini shakllantirishga yo'naltirilgan jarayon. Bilim-shaxsning ongida tushunchalar, sxemalar, ma'lum obrazlar ko'rinishida aks etuvchi borliq haqidagi tizimlashtirilgan ilmiy malumotlar majmui.Ko'nikma-shaxsning muayyan faoliyatni tashkil eta olish qobiliyati.Malaka-muayyan harakat yoki faoliyatni bajarishning avtomatlashtirilgan shakli.Ma'lumot ta'lim-tarbiya natijasida o'zlashtirilgan va tizimlashtirilgan bilim, hosil qilingan ko'nikma va malakalar hamda tarkib topgan dunyoqarash majmui.Rivojlanish-shaxsning fiziologik va intellektual o'sishida namoyon boiadigan miqdor va sifat o'zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayon.

### Foydanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Pedagogika. M.Toxtaxodjayevaning umumiylar tahriri ostida. - T.: O'zbekiston Faylasuflari Milliy jamiyati, 2010.
2. Жукова Е.Д. Технология организаций и реализации самостоятельной работы студентов : рабочая тетр. - Уфа: Изд-во БГПУ, 2004.
3. Зуфаров Ш. Педагогик инноватика. - Т.: "Фан ва технологиялар" нашриёти, 2012.
4. Сластенин В. А. Исаев И Ф., Шиянов Е.Н. Общая педагогика. В 2-х ч.- М.: ВЛАДОС, 2003.4.1
5. ОЛИЙ ТАЪЛИМ. Меъёрий-хукукий ва услубий хужжатлар туплами. -Т.: "Истшугол" нашриёти бош таҳририяти. 2004. -512 б.
6. Muslimov N.A., Qo'ysinov O.A. Kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashda mustaqil taiimni tashkil etish. - T.: Nizomiy nomidagi TDPU. Metodik qoilanma. 2006.

**JANUBIY KEMACHIDAGI QAZILMALARNI SUV MIQDORINI  
ANIQLASH UCHUN RATSIONAL O'RGANISH ISHLARINI  
AMALGA OSHIRISH**

*Sultonov Asqarbek Davronbek o'g'li*

*Toshkent davlat texnika universiteti*

*2- kurs magistratura talabasi*

Neft va gaz insoniyatga juda qadimdan ma'lum bo'lib, ulardan olinadigan mahsulotlarning xalq xo'jaligidagi iste'mol qilish o'rni hamda ularga bo'lgan ehtiyoj yil sayin ortib borgan. O'zbekistonda qadim zamonlardayoq neftdan foydalanib kelingan. Neftning o'ziga xos o'tkir hidi tufayli qishloq xo'jaligi zararkunandalariga qarshi kurashda undan foydalanilgan. Neftdan dori-darmon tayyorlash maqsadida Abu Ali ibn Sino neftni haydashga oid tajribalar o'tkazgan. Xorazm geografigi Bakrom (XIII asrda) Bakudagi neftni haydash texnologiyasi haqida birinchi bo'lib eslatib o'tagan. Shuning uchun ham neft va uni qayta ishslash O'zbekistonda eng qadimiy tarmoqlardan biridir. O'zbekistonda neft qazib chiqarish 1876 yildan boshlangan. Farg'onaning Qamishboshi qishlog'ida rus tadbirdikori D.P. Petrov tomonidan XIX asrning 80-yillari boshida 25 metrgacha burg'ilangan 2 ta quduqning har biridan kuniga 10 pud (160 kg) gacha neft qazib olgan. 1880-1883 yillar davrida bu quduqlar soni 4 taga yetgan. Quduqlar zarbali usul bilan qazilgan. Ularning devorlari taxta bilan qoplangan va neft maxsus uzun chelaklar (qovg'alar) yordamida tortib olingan. Ba'zi ma'lumotlarga muvofiq bunday quduqlardan kuniga 5-10 tonnagacha neft olingan.

O'zbekiston territoriyasida izlov – qidiruv ishlarining natijasida hozirga vaqtida 200 tadan ko'p neft va gaz konlari ochilgan hamda ishlatalishda 100 tadan ko'p konlar bo'lib, shundan 60 tadan ko'pi neft va neftgaz konlaridir.

Janubiy kemachi neftgaz-kondensat koni - Buxoro viloyatidagi kon. Qorovulbozor temir yo'l stansiyasidan 35 km shimoli-sharqda. 1979-yilda ochilgan, 1993-yilda foydalanishga topshirilgan. Kon relyefi tekislikdan iborat bo'lib, shimoli-sharqdan janubi-g'arb tomonga qiyalangan, yer yuzasi eol qumlari bilan qoplangan. 236–274 m balandlikda joylashgan.

Kon maydoni Chorjo'y tektonik pog'onasidagi Ispanlichadir ko'tarilmasining sharqiy qismidir. Strukturasi Kemachi-Zekri braxiantiklina-liningjan. qismida mujassamlashgan, 1970-yil seysmik razvedka ishlari natijasida aniklangan. O'lchami 25x 15 km. Keyinchalik qazilgan parametrik quduq ham sanoat miqyosida neft va gaz borligini tasdiqladi. Kondan qazib olingan tabiiy boyliklar tarkibida qanchadir miqdorda suv bo'ladi. Bu tarkibdagi suvlarni ba'zan tabiiy oqava suvlari ham deb atashadi. Tarkibdagi bu suyuqlikni miqdorini aniqlash uchun ratsional amaliyotlarni amalga oshirish lozim. Neft gaz sanoatlarida burg'ulash jarayonida doimiy suvgaga duch

kelinadi, va suv ham qazilma bilan doimiy aloqada bo'lganligi uchun ham qazilma miqdorida qanchadir miqdorda suv aniqlanadi. Suvni aniqlash davrida undagi minerallar muhim ahamiyat kasb etadi. Minerallar esa suv miqdoridagi asosiy omillardir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. В.И.Мурин, Н.Н.Кисленко, Ю.В.Сурков. Переработка природного газа и конденсата. 2002 год ст.514
2. W.Strauss Industrial gas cleaning. 1981 year page 309
3. Ю.А.Чумаков Газодинамический расчет центробежных компрессоров транспортных, газотурбинных и комбинированных двигателей. Москва 2009 год ст.76
4. О.Н.Емин, В.Н.Карасев, Ю.А.Ржавин Выбор параметров и газодинамический расчет компрессоров. 2003 год ст.146
5. А.Г.Аншиц, Е.Н.Воскресенская Окислительная конденсация метана – новый процесс переработки природного газа. 1999 год ст.146
6. Технологический регламент

**JANUBIY KEMACHIDAGI QAZILMALARNI SUV MIQDORINI  
ANIQLASH UCHUN RATSIONAL O'RGANISH ISHLARINI  
AMALGA OSHIRISH**

*Sultonov Asqarbek Davronbek o'g'li  
Toshkent davlat texnika universiteti  
2- kurs magistratura talabasi*

**Annotatsiya:** Buxoroda joylashgan Janubiy kemachi neft-gaz sanoati, ushbu manzilda qazib olinayotgan tabiiy boyliklarni qayta ishlash va ularda uchrovchi suv miqdorini aniqlash ishlari haqida so'z yurutilgan.

**Kalit so'zlar:** Janubiy Kemachi, qazilma, ratsional amaliyotlar, suv miqdori, burg'ulash, neft, gaz, minerallar.

**Аннотация:** Рассуждается о расположеннном в Бухаре нефтегазовом промысле Южный Кемачи, переработке добываемых в этом месте природных ресурсов и определении количества находящейся в них воды.

**Ключевые слова:** Южный Кемачи, ископаемое, рациональные приемы, количество воды, бурение, нефть, газ, полезные ископаемые.

**Annotation:** It is discussed about the Southern Kemachi oil and gas industry located in Bukhara, the processing of natural resources mined at this location and the determination of the amount of water found in them.

**Keywords:** Southern Kemachi, fossil, rational practices, water quantity, drilling, oil, gas, minerals.

O'zbekiston territoriyasida izlov – qidiruv ishlarining natijasida hozirga vaqtda 200 tadan ko'p neft va gaz konlari ochilgan hamda ishlatishda 100 tadan ko'p konlar bo'lib, shundan 60 tadan ko'pi neft va neftgaz konlaridir.

Janubiy kemachi neftgaz-kondensat koni - Buxoro viloyatidagi kon. Qorovulbozor temir yo'1 stansiyasidan 35 km shimoli-sharqda. 1979-yilda ochilgan, 1993-yilda foydalanishga topshirilgan. Kon relyefi tekislikdan iborat bo'lib, shimoli-sharqdan janubi-g'arb tomonga qiyalangan, yer yuzasi eol qumlari bilan qoplangan. 236–274 m balandlikda joylashgan.

Kon maydoni Chorjo'y tektonik pog'onasidagi Ispanlichandir ko'tarilmasining sharqi qismidir. Strukturasi Kemachi-Zekri braxiantiklina-liningjan. qismida mujassamlashgan, 1970-yil seysmik razvedka ishlari natijasida aniklangan. O'lchami 25x 15 km. Keyinchalik qazilgan parametrik quduq ham sanoat miqyosida neft va gaz borligini tasdiqladi. Kondan qazib olingan tabiiy boyliklar tarkibida qanchadir miqdorda suv bo'ladi. Bu tarkibdagi suvlarni ba'zan tabiiy oqava suvlari ham deb

atashadi. Tarkibdagi bu suyuqlikni miqdorini aniqlash uchun ratsional amaliyotlarni amalga oshirish lozim. Neft gaz sanoatlarida burg'ulash jarayonida doimiy suvga duch kelinadi, va suv ham qazilma bilan doimiy aloqada bo'lganligi uchun ham qazilma miqdorida qanchadir miqdorda suv aniqlanadi. Suvni aniqlash davrida undagi minerallar muhim ahamiyat kasb etadi. Minerallar esa suv miqdoridagi asosiy omillardir. Neft va gaz insoniyatga juda qadimdan ma'lum bo'lib, ulardan olinadigan mahsulotlarning xalq xo'jaligidagi iste'mol qilish o'rni hamda ularga bo'lgan ehtiyoj yil sayin ortib borgan. O'zbekistonda qadim zamonlardayoq neftdan foydalanib kelingan. Neftning o'ziga xos o'tkir hidi tufayli qishloq xo'jaligi zararkunandalariga qarshi kurashda undan foydalanilgan. Neftdan dori-darmon tayyorlash maqsadida Abu Ali ibn Sino neftni haydashga oid tajribalar o'tkazgan. Xorazm geografigi Bakrom (XIII asrda) Bakudagi neftni haydash texnologiyasi haqida birinchi bo'lib eslatib o'tagan. Shuning uchun ham neft va uni qayta ishslash O'zbekistonda eng qadimiy tarmoqlardan biridir.

Biz bilgan, neft-gaz qazib chiqaruvchi konlarning biri Janubiy Kemachi koni hisoblanadi. Janubiy kemachi neftgaz-kondensat koni - Buxoro viloyatidagi kon. Qorovulbozor temir yo'l stansiyasidan 35 km shimoli-sharqda. 1979-yilda ochilgan, 1993-yilda foydalanishga topshirilgan. Kon relyefi tekislikdan iborat bo'lib, shimoli-sharqdan janubi-g'arb tomonga qiyalangan, yer yuzasi eol qumlari bilan qoplangan. 236–274 m balandlikda joylashgan.

Kon maydoni Chorjo'y tektonik pog'onasidagi Ispanlichandir ko'tarilmasining sharqiy qismidir. Strukturasi Kemachi-Zekri braxiantiklina-liningjan. qismida mujassamlashgan, 1970-yil seysmik razvedka ishlari natijasida aniklangan. O'lchami 25x 15 km. Keyinchalik qazilgan parametrik quduq ham sanoat miqyosida neft va gaz borligini tasdiqladi. 1979—1983-yillarda qaeilgan jami 22 quduq yura, bo'r, paleogen va to'rtlamchi davr jinslarini ochgan. Karbonat jinsli kollektorqatlamning umumiy qalinligi 336–407 m bo'lib, u gorizontlarga ajratilgan.

Neft-gaz sanoatlarida burg'ulash jarayonida doimiy suvga duch kelinadi, va suv ham qazilma bilan doimiy aloqada bo'lganligi uchun ham qazilma miqdorida qanchadir miqdorda suv aniqlanadi. Suvni aniqlash davrida undagi minerallar muhim ahamiyat kasb etadi. Minerallar esa suv miqdoridagi asosiy omillardir. Quyida keltirib o'tiladigan matnlarda, Janubiy Kemachi konlarida qazilma amaliyotlari, uning tarixi, kelajagi, ularda uchrovchi suv miqdorlari va shunga o'xshash savollarga javob berib o'tilgan.

Bu tarkibdagi suvlarni ba'zan tabiiy oqava suvlari ham deb atashadi. Tarkibdagi bu suyuqlikni miqdorini aniqlash uchun ratsional amaliyotlarni amalga oshirish lozim.

Neft konlaridagi suvlar — neftli gori-zontlardagi yer osti suvlar; neft va unda erigan gaz bilan bevosita aloqada bo'ladi. Neft qatlamlarida va neft uyumlariga nisbatan joylashishiga qarab quyidagi Neft suvlari farq qilinadi: chekka (konturli)

suvlar — neft uyumidan quyida joylashgan; ostki (to'shak) suvlar — qalqib turgan neft uyumining tagida joylashgan; ustki suvlar — neftli katlaming ustida joylashgan; bog'langan suvlar — g'ovaklar yuzasini o'rash oluvchi neft qatlamida mayda kapillyar naychalarni to'ldiruvchi suv; sun'iy kiritilgan suv — neft uyunlarini chiqarib olishda bosimni zarus darajada saqlab turish uchun kiritiladi. Neft suvlarning geokimyoviy tarkibi mahsuldor gorizont va uyum tarkibining litologik xususiyatlari bilan bog'liq. Neft uyunlarining chekka Neft suvlarda organik kislotalar, benzol, fenol, og'ir karbonsuvlarning konsentratsiyasi yuqori bo'ladi. Gaz uyunlaridagi suvlarda, odatda, organik qo'shimchalar kam. Ko'pincha neft suvlarning tarkibi katta maydonlarda deyarli o'zgarmaydi. Neft uyunlari bilan bevosita tutashgan suvlar (chekka va ostki)ning minerallashuvi (200 g/l gacha va undan ziyod), gazga to'yinganligi, metan va benzol, ammoniyning miqdori o'ziga xos xususiyatlarga ega. Gidrokarbonatnatriyli Neft suvlari esa kam (10 g/l gacha) minerallashgan. Neft suvlarini o'rganish neftni qidirish, razvedka qilish va kondan chikarib olishda ahamiyati katta.

Ko'pincha Neft suvlari shifobaxsh mineral suv sifatida yoki undan yod, brom, bor, radiy, bariy, stronsiy va boshqa olishda foydalaniladi. Neft bilan birga chiqqa-digan Neft suvlari qattiq noorganik tuzlar hosil kilishi sababli neft qazib olishni murakkablashtiradi. Buning oldini olish uchun Neft suvlari tuzsizlantiriladi yoki neft suvsizlantiriladi.

### **Xulosa**

Qadimdan insoniyat hayotida eng katta o'zgarishlar keltirib chiqargan omil neft ekanligi bizlarga ayon bo'ldi. Neft va gazni tog'ri yo'naltirish amaliyotlari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bizning davlatda har qanday tabiiy boyliklarga muhim va jiddiy e'tibor qaratiladi. Yuqorida ta'kidlanganidek suvning miqdorini aniqlash undagi mineral moddalarga ham bog'liq. Suvning kondagi, burg'ulashdagi xolatlarini o'rganish orqali to'g'ri ratsional xulosaga kelish mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. В.И.Мурин, Н.Н.Кисленко, Ю.В.Сурков. Переработка природного газа и конденсата. 2002 год ст.514
2. W.Strauss Industrial gas cleaning. 1981 year page 309
3. Ю.А.Чумаков Газодинамический расчет центробежных компрессоров транспортных, газотурбинных и комбинированных двигателей. Москва 2009 год ст.76
4. О.Н.Емин, В.Н.Карасев, Ю.А.Ржавин Выбор параметров и газодинамический расчет компрессоров. 2003 год ст.146
5. А.Г.Аншиц, Е.Н.Воскресенская Окислительная конденсация метана – новый процесс переработки природного газа. 1999 год ст.146

**DIDAKTIK TARQATMA MATERIALLARNING GEOGRAFIYA  
TA'LIMIDA TUTGAN O'RNI YUZASIDAN  
METODIK TAVSIYALAR**

*Zokirjonova Maftunaxon Baxtiyorjon qizi  
Qashqadaryo viloyati Muborak tumanidagi  
20-maktabning ikkinchi toifali geografiya o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada didaktik tarqatma materiallarning geografiya ta'limida tutgan o'rni va axamiyati haqida ma'lumot beriladi.

**Kalit so'zlar:** Noan`anaviy, motivatsiya, test texnologiyasi, Pedagogik testlar

*Eng katta boylik-bu aql-zakovat va ilm,  
Eng katta meros-bu yaxshi tarbiya,  
Eng katta qashoqlik-bu bilimsizlikdir.  
Shavkat Mirziyoev*

Geografiya - bu Yerning inson sayyorasi sifatida yaxlit ko'rinishini ta'minlaydigan yagona o'quv fani deb hisoblash mumkin. U shuningdek umumiy madaniyatni, shu jumladan ekologik madaniyatni shakllantiradi; barcha darajalarda boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun zaruriy majmuadir. Fanning yana bir muhim jihatni bir nechta manbalardan olingan ma'lumotlarni qanday qilib birlashtirishga, ma'lum bir xalqaro aloqa tili - geografik xaritadan foydalanishga o'rgatadi. Geografik ta'lif insoniyat uchun umumiyligi uy sifatida o'z mamlakati va sayyoramizni o'rganish uchun ishonchli asosdir. Aynan shu ta'lif zamонавиy dunyo va insoniyatning xilmayxilligi va birligi bilan birligini ongli ravishda tushunishni ta'minlaydi. O'quvchilar o'zlarini o'rab turgan moddiy, ma'naviy va madaniy qadriyatlarni va insonning kosmosda mavjud bo'lishining ma'nosini to'g'ri tushunishlari uchun juda katta geografik bilimlarni to'plashi zarur.

Mamlakatimiz o'z mustaqilligiga erishgach respublika xo'jaligining barcha sohalarida bo'lganidek ta'linda ham tub islohatlar davri boshlandi.

Bu davr esa o'qituvchilarga ham ko'plab ma'suliyatni yukladi. Chunki mustaqillikkacha ta'lif tizimida asosan bir xillik hukmon ediladi. Yangi pedagogik texnologiya esa har bir darsning bir-biridan qiziqarli o'tish imkoniyatini beradi. Har bir darsning mazmun mohiyatidan kelib chiqib, darsda turli didaktik tarqatma materiallardan foydalanish mumkin. Bunday dars o'tish jarayonida o'qituvchi o'z ustida muntazam ishlashi talab etiladi. Bu talab esa darsning samaradorligini, uning sifatli bo'lishini, o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini, birinchi galda maktab o'quv mashg'ulotlarini mustahkam egallab olishlarining manbaidir.

Har bir pedagogning ishga ijodiy yondashishini rivojlantirish juda muhimdir. Chunki dars jarayoni har yili bir xil ko'rinish, bir xil andoza, bir xil tipda emas, balki har yili har- xil usul va uslublardan qo'llagan holda tashkil etilishi lozim.

Masalan: Noan`anaviy (ta`lim jarayoni markazida o'quvchi bo'lgan) o'qitish metodlarining

Afzalliklari:

- O'qitish mazmunini yaxshi o'zlashtirishga olib kelishi.
- O'z vaqtida aloqalarning ta'minlanishi.
- Tushunchalarni amaliyotda qo'llash uchun sharoitlar yaratilishi.
- O'qitish usullarining turli xil ko'rinishlari taklif etilishi.
- Motivatsiyaning yuqori darajada bo'lishi.
- O'tilgan materialning yaxshi eslab qolishi.
- Muloqotga kirishish ko'nikmasining takomillashishi.
- O'z-o'zini baholashning o'sishi.
- O'quvchilarining predmetning mazmuniga, o'qitish jarayoniga bo'lган ijobiy munosabati.
- Mustaqil fikrlay oldaigan o'quvchiningshakllanishiga yordam berish.
- Nafaqat mazmunini o'zlashtirishga yordam bermay, balki tanqidiy va mantiqiy fikralashni ham rivojlantirish.
- Muammolar echish ko'nikmalarning shakllanishi.

### test texnologiyasi

Pedagogik testlar AQSH, Niderlandiya, Angliya, Turkiya, Janubiy Koreya, Yaponiya va boshqa ko'pgina mamlakatlarda keng rivoj topdi. Shuning uchun bu mamlakatlarda bilim samaradorligi yuqor. Har pedagogik dars davomida testlarni qo'llash ta`lim sifatiga ijobiy ta`sir ko'rsatadi; ta`lim sifati esa boshqaruv sifati bilan bog'liq; oqilona boshqaruv esa o'quvchilarni bilim darajasini oshiradi.

Yangi darsning mazmuni, egallagan qamrovi, unda ko'rgazmali qo'llanmalar va vositalarning ishlatalishiga qarab o'qituvchi turli didaktik tarqatma materiallarni qo'llashi mumkin. Bu esa o'qituvchining izlanuvchanligini, o'z ustida ishlashini, ijodkorligini, darsni yanada keng qamrovli va qiziqarli qilib o'tishda tajribasini oshiradi.

Ijodiy ishlaydigan o'qituvchining darslari xilma-xil bo'ladi. Bunda tasviriy vositalar va ko'rgazmali qo'llanmalarining ahamiyati katta. Masalan, o'qituvchibir darsda yangi mavzuni tushuntirishdan avval 5-6 minut tezkor savollar orqali o'quvchilar bilimini, o'tgan mavzu va yangi mavzu yuzasidan so'rab chiqadi, o'zi fikrlarni to'ldiradi, o'quvchilarning diqqatini kartaga jalb etadi, doskaga chizmalar chizadi va hokazo.

Boshqa darsda o'qituvchi diafilmlar ko'rsatishi, har bir kadrga berilganiga nisbatan kengroq va to'liqroq izoh beradi, darslikda berilmagan yangi ma'lumotlarni aytib o'tadi, so'ngra darsni mustahkamlash uchun o'quvchilarni baxs munozaraga chorlaydi, ularning mustaqil fikrlarini tinglab, o'zi to'ldirib boradi.

Masalan, maktabni ancha ilgari bitirib ketgan kishilardan, maktab geografiyasi kursida nimalar esingizda qolgan deb so'rasak, ular sayyoohlар haqidagi, tabiat sirlarini qanday ochilgan ekanligi haqidagi hikoyalarini, darsda ko'p kartochkalarga javob bergenligini, turli xil krasvordlar echishgani, tabiatga bo'lgan ekskursiyalari haqida qiziqib aytib berishadi. Suhbat oxirida esa «Geografiya qiziqarli fan» degan gapni eshitamiz. Shunday ekan fanimizning yanada qiziqarli, samarador va albatta o'quvchilar yodida saqlanib qolishi uchun harakat qilishimiz lozim. Dars jarayonini yanada ko'proq ko'rgazmali qurollar, xar-xil ko'rinishdagi kartochkalar, diagrammalar, testlar, krasvordlar, tezkor savollar, yozuvsiz xaritalar va hokazolar) tarqatma materiallar bilan boyitib borishimiz kerak. Geografiya o'qitishda ko'rgazmalilik, ommaboplilik va qiziqarli bayon etish muhim rol o'yndaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Kortel.I.N. "Tabiiy geografiyadan didaktik materiallar"" O'qituvchi-2002
2. " Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya" Toshkent-2003 y.
3. Nuriddinov Sh. Valixonov M.Abdunazarov Q. "Tabiiy ilmiy va aniq fanlarni o'qitishda elektron didaktik materiallardan foydalanish" metodik qo'llanma. Toshkent-2000- yil

## FORMATION OF MENTAL POTENTIAL PROCESSES OF CHILDREN IN PRESCHOOL AGE

*Kattakorgon city 19 - M.T.T.  
Nurullayeva Nodira Nomonjonovna*

**Annotation:** This article describes about the formation of mental potential processes of children at the age of preschool education, games for the growth of memory, various activities, problems of inclusive education in preschool education and measures taken by the state to eliminate them.

**Key words:** intellectual potential, preschool education, inclusive education, scientific-pedagogical term.

### **Introduction:**

The national educational system of the preschool education system of independent Uzbekistan is based on the unique national cultural character of the Uzbek people, the rules of ethics and the educational requirements of strengthening national independence, and is closely related to all aspects of the people's life. is a pedagogical process of forming a new generation, no less perfect than anyone else.

Preschool education is the initial link of the continuous education system, and its task is to ensure the formation of a healthy, developed personality of the child, to awaken the desire for education, to prepare children for school. Great attention is paid to the issues of inclusive education, which reflects the seriousness and interest of the state in solving the problem of disabled children, their early adaptation, and social support for this category of children.

### **Literature analysis and methodology:**

National education as a scientific-pedagogical term is being used again in Uzbekistan due to the opportunity given by national independence, but it has been in the life of our people since time immemorial, sometimes openly, sometimes secretly. Because the history of the Uzbek people is also the history of national education based on Uzbekistan.

The Uzbek people, considered one of the oldest peoples in the world, have contributed to the civilization of the earth. This issue is expressed in the content of its unique and appropriate national education. However, the Uzbek people, who were condemned to a period of almost 150 years of autocracy, realized their long-held dreams after independence. However, restoring the true spirituality of an independent nation that was not formed during the authoritarian regime and establishing it based on the requirements of the times requires great strength and intelligence.

In the years of independence, the national education and upbringing system in the republic rose to the level of the main priority of state policy. The field of pre-school

education is the first link of this system and plays an important role in achieving the main goal of the entire education system, the education of a well-rounded generation. In order to fully implement these tasks, it is necessary to establish national education, which is considered the value of the Uzbek people, enriched with the spirit of the times.

**Results:**

Kindergarten-age children perceive different things based on their obvious signs, but they cannot analyze them deeply. With the help of adults, children of kindergarten age have the ability to perceive pictures analytically. When children perceive pictures, adults should teach them to analyze them with various questions.

In children of kindergarten age, the development of sense, perception, attention, memory, imagination, thinking, speech, imagination, emotion and will is accelerated. Kindergarten children's attention is mostly involuntary. The game is very important for the development of voluntary attention. During the game, children focus on one place and advance certain goals with their own initiative. Remembering is also developing rapidly. A three-year-old child is able to remember his impressions for several months.



**Discussion:**

Games, various activities, memorizing poems, telling fairy tales and stories, and observing during a walk help to increase memory. Children of this age easily remember new words, even words in foreign languages. Kindergarten children's thinking and their development have their own characteristics. At this young age, the emergence of questions about every field indicates that their thinking is active. If the child cannot find an answer to his question or adults do not pay attention to his question, his curiosity begins to fade.

Inclusive education is the ability of kindergartens and schools to provide education to all children. It is based on the understanding of education as a basic human right. For children to be successfully integrated into the educational process of the kindergarten and its community, they need the necessary support. For this, it is necessary to see and understand what children can do, not what they can do.



### Conclusion:

In conclusion, it should be mentioned that at this age, the role of parents in the development of children's cognitive processes is insignificant, as long as they clearly answer each of the child's questions, satisfy their needs, spend more time with them, and often take them for walks. the child's cognitive processes develop well. Otherwise, the formation of the child may lag behind.

### References:

1. State curriculum of "Ilk Kadam" preschool educational institution. Tashkent - 2018.
2. "On the approval of the state requirements for the development of children of primary and preschool age of the Republic of Uzbekistan". Order of the Minister of Preschool Education of the Republic of Uzbekistan. Tashkent - 2018
3. Vahidov M.V. Psychology of preschool education. T., Teacher, 2000.
4. Sherbakov A.I. Practicum of youth psychology and pedagogical psychology. T., 2003.

**ВОЯГА ЕТМАГАНЛАР ЎРТАСИДА НАЗОРАТСИЗЛИК ВА  
ХУҚУҚБУЗАРЛИКЛАР ПРОФИЛАКТИКАСИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ВА  
АМАЛГА ОШИРИШНИНГ МУАММОЛАРИ**

*Ўроқов Жасур Рустамалиевич  
Ўзбекистон Республикаси Ички  
ишилар вазирлиги Академияси  
Хуқуқбузарликлар профилактикаси  
ва криминология кафедраси  
ўқитувчиси, капитан.*

**Аннотация.** Ушбу мақолада вояга етмаганлар ўртасида назоратсизлик ва хуқуқбузарликлар профилактикасини ташкил этиш ва амалга оширишда мавжуд муаммолар, вояга етмаганлар хуқуқбузарликларининг сабаб ва шартшароитлари, вояга етмаганларнинг ўзига хос хусусиятлари, уларга салбий таъсир этувчи омиллар ҳамда уларни бартараф этиш борасидаги тавсиялар ёритиб берилган.

**Таянч тушунчалар:** вояга етмаган, ёшлар, қонун, назоратсизлик, жамият, оила, шахс, педагог, умумий профилактика, якка профилактика профилактика иши, хуқуқбузарликлар профилактикаси.

Маълумки, мамлакатимизда вояга етмаганлар хуқуқ ва эркинликларини таъминлаш, уларни қонуний манфаатларини муҳофаза этиш, давлат сиёсати даражасига кўтарилигдан бўлиб, хуқуқий демократик давлат тараққиётининг ривожи ўсиб келаётган авлоднинг таълим ва тарбия даржасига боғлиқдир. Бунга эришиш учун эса аввало жамият аъзоларининг, шу жумладан вояга етмаган ва ёшларнинг сиёсий, ижтимоий, маънавий ва хуқуқий савияси юқори даражада бўлиши талаб этилади.

Шу боисдан, вояга етмаганлар хуқуқбузарлигининг олдини олишни кучайтиришга қаратилган аниқ чора-тадбирлар ишлаб чиқиш ва амалга ошириш мухим аҳамият касб этади.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев: «Биз ўз олдимизга мамлакатимизда Учинчи Ренессанс пойдеворини барпо этишдек улуғ мақсадни қўйган эканмиз, бунинг учун янги Хоразмийлар, Берунийлар, Ибн Синолар, Улубеклар, Навоий ва Бобурларни тарбиялаб берадиган мухит ва шароитларни яратишимиш керак. Бунда, аввало, таълим ва тарбияни ривожлантириш, соғлом турмуш тарзини қарор топтириш, илм-фан ва инновацияларни тараққий эттириш миллий ғоямизнинг асосий устунлари бўлиб хизмат қилиши лозим. Ушбу мақсад йўлида ёшларимиз ўз олдига катта

марраларни қўйиб, уларга эришишлари учун кенг имкониятлар яратиш ва ҳар томонлама кўмак бериш – барчамиз учун энг устувор вазифа бўлиши зарур. Шундагина фарзандларимиз халқимизнинг асрий орзу-умидларини рўёбга чиқарадиган буюк ва қудратли кучга айланади»[1], - деб такидлаб, вояга етмаганларни тарбиялаш ва уларни Ватан равнақи йўлида хизмат қилувчи шахс сифатида етиштириш муҳим вазифалардан эканлигини кўрсатиб берди.

Дарҳақиқат мамлакатнинг келажагини белгиловчи ёшлар ва вояга етмаганларнинг комил инсон қилиб тарбиялашда адолат ва қонун устуворлигини таъминлаш, уларга сифатли билим бериш ва уларни илм-маърифатли инсон бўлиб шаклланишларига, энг аввало, Конституцияни яхши билиши, ундаги нормаларни ўрганиши, ўзининг ҳуқуқи, бурчи ва мажбуриятларини тўла англаши ва уларни ҳаётда қўллай олишига, ёшларнинг ҳуқуқий онг ва ҳуқуқий маданиятини юксалтиришига алоҳида эътибор қаратиш, уларнинг келажакка ишончини янада мустахкамлаш давлат ривожида муҳим аҳамият касб этади.

Ҳозирги вақтда вояга етмаганлар ва ёшлар ҳуқуқбузарлиги ҳақида салмоқли статистик материал тўпланган, уни таҳлил қилиш методикаси асосан ишлаб чиқилган ва булар уларнинг жиноятчилиги ва ҳуқуқбузарликларининг ҳолатини, унинг микдор ва сифат (таркибий ва бошқа) ўзгаришларини анча аниқ баҳолаш имконини беради[2].

Вояга етмаганлар ва ёшлар томонидан аксарият ҳолларда қасдан одам ўлдириш, ўғирлик, талончилик, қасдан баданга оғир шикаст етказиш, номусга тегиши, босқинчилик, безорилик каби жиноят ва ҳуқуқбузарликлар содир этилиши криминолог олимлар томонидан ўрганилган.

Вояга етмаганлар ва ёшлар ҳуқуқбузарлиги катталар ҳуқуқбузарлиги билан бир хил сабабларга эга, бироқ уларнинг таъсир кўрсатиши механизми анча фарқ қиласди. Бу сабаблар шахснинг шаклланишига сезиларли даражада таъсир кўрсатади.

Ҳар бир вояга етмаган тарбияси оғир шахснинг хулқ-автори ўзига хосдир, у ўсмир шахси шаклланишининг объектив ва субъектив омиллари билан белгиланади. Бу тарбия ва профилактика ишларида индивидуал ёндашув етакчилик қилиши лозимлигини англатади.

**Якка тартибдаги профилактика иши** — ижтимоий жиҳатдан хавфли ахволда бўлган вояга етмаганлар ва оилаларни ўз вақтида аниқлаш, шунингдек уларни ижтимоий-педагогик реабилитация қилиш ҳамда вояга етмаганларнинг ҳуқуқбузарликлар ёки бошқа ғайриижтимоий хатти-ҳаракатлар содир этишининг олдини олишга доир фаолиятдир.

Бизга маълумки, Ўзбекистон Республикасининг «Ички ишлар органлари тўғрисида», «Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тўғрисида» ҳамда «Вояга етмаганлар ўртасида назоратсизлик ва ҳуқуқбузарликларнинг профилактикаси

тўғрисида»ги қонунлари билан давлатимиз ваколатли идоралари томонидан Ички ишлар органларига вояга етмаганлар ўртасида ҳукуқбузарликлар профилактикасини амалга ошириш вазифаси юклатилган.

Вояга етмаганлар ўртасида назоратсизлик ва ҳукуқбузарликлар профилактикаси бу ижтимоий фаолият бўлиб, жамият ривожланиши ва бошқа ижтимоий ҳолатлар билан ўзаро алоқадорликда бўлиб, ўз ўрнига эга. Худди шу маънода, бу жараёнда якка тартибдаги (индивидуал) профилактикани ижтимоийлашуви жараёнининг бир қисм сифатида қараш керак.

Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 3 августдаги «Вояга етмаганларга ижтимоий-ҳукукий ёрдам кўрсатишни янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги қарори асосида ҳукуқбузарликлар профилактикаси бўлинмалари вояга етмаганлар ва ёшлар ўртасида ҳукуқбузарликлар профилактикасини ташкил этиш гурухлари ҳамда вояга етмаганлар масалалари бўйича инспектор психологлар тамонидан вояга етмаганлар ўртасида ҳукуқбузарлик ва жиноятларнинг олдини олишга қаратилган фаолиятни кучайтириш мақсадида ички ишлар органларининг вояга етмаганларга ижтимоий-ҳукукий ёрдам кўрсатиш марказлари фаолиятини ташкил этиш, назоратсиз ва қаровсиз қолган вояга етмаганларни аниқлаш, уларни вояга етмаганларга ижтимоий ҳукукий ёрдам кўрсатиш марказларига қабул қилиш, саклаш ва вояга етмаганлар билан якка тартибда профилактик ишлар олиб бориш тартиби белгиланди. Шунингдек, вояга етмаганларнинг назоратсизлиги, қаровсизлигига, улар томонидан ҳукуқбузарликлар ёки бошқа ғайриижтимоий хатти-харакатлар содир этилишига имкон берадиган сабаблар ва шарт-шароитларни аниқлаш ҳамда бартараф этишга қаратилган, якка тартибдаги профилактика иши билан биргаликда амалга ошириладиган ижтимоий, ҳукукий, тиббий ва бошқа чора-тадбирлар тизимининг асосий вазифалари белгилаб берилди.

Хусусан, И.Исмаилов «вояга етмаганлар ўртасида назоратсизлик ва ҳукуқбузарликлар профилактикаси – давлат ҳокимияти органлари, ҳукуқбузарликлар профилактикасини бевосита амалга оширувчи, унда иштирок этувчи давлат органлари ва муассасалари ҳамда фуқаролик жамияти институтларининг ижтимоий жиҳатдан хавфли аҳволда бўлган вояга етмаганлар ва оиласлар, уларнинг жиноий фаолиятга жалб этувчи шахсларни аниқлаш, улар содир этаётган жиноятларнинг сабаб ва шароитларини бартараф этиш, шунингдек улар яшаётган ва таълим олаётган жойларда ижтимоий-руҳий мухитни соғломлаштириш мақсадида амалга оширилаётган тарбия, ижтимоий-ҳукукий ёрдам кўрсатиш, ижтимоий-ҳукукий назорат воситалари орқали профилактик таъсир чораларини қўллашдан иборат давлат сиёсати даражасида амалга ошириладиган алоҳида фаолият», шунингдек «вояга етмаганлар ўртасида

назоратсизлик ва хуқуқбузарликлар профилактикаси – вояга етмаганлар томонидан қонун билан тақиқланган ижтимоий хавфли құлмишлар содир этилишини тақозо этувчи сабаб ва шароитларни келтириб чиқарувчи, озиқлантирувчи, жамиятда ижтимоий ҳодиса сифатида унинг бўлишини тақозо этувчи ҳодиса, воқеа, жараёнларни камайтириш, заарасизлантириш, чеклаш ва бартараф этиш бўйича давлат сиёсатини белгилаш ва уни амалга ошириш ҳамда такомиллаштиришга қаратилган комплекс ижтимоий-хуқуқий жараён»[3] деб ҳисоблади.

Давлатчилик вужудга келган даврлардан бошлаб ҳукмрон доиралар фуқароларни турли йўллар билан тарбиялаш, уларнинг ўзлари ишлаб чиқсан қонун ва қоидаларга амал қилишларига мажбур этиб келганлар ва ўз навбатидаadolatsiz бўлсада ўша замоннинг ўзига хос бўлган хуқуқий хулқни шаклланишида рол ўйнаган. Шунинг учун шахснинг ижтимоийлашуви унда ахлоқий сифатлар ва хуқуқий онгни шакллантиришни келтириб чиқаради. Бу жараёнлар шахсни жамиятда ўрнатилган қоидалар ва тартибларга риоя қилиши ва мослашашини таъминлайди.

Аммо, ҳар қандай даврда ҳам вояга етмаганларнинг даврга ёки қоидаларга мослашиши жараёни уларга қандай таъсирни кўпроқ кўллаш билан боғлиқдир. Масалан, уларни қандай тарбиялаш ҳамда қандай руҳда ўстиришга боғлиқ. Шуни алоҳида таъкидлаб ўтиш жоизки, ҳар қандай шахсни ўзи униб ўсган мамлакати, миллатининг урф-одатлари асосида тарбиялаш, шу билан бирга ўзга миллатларнинг одатларини ҳурмат қилиш руҳида тарбиялаш уларни комил инсон этиб тарбиялашда муҳим аҳамият касб этади, ваҳоланки, ўз ҳалқини севувчи ва ўзга миллатларни ҳурмат қилувчи шахсгина хуқуқбузарлик содир этмайди, атроф муҳитга доимо ҳурматда бўлади.

Шу ўринда, Туркистон маърифатпарвари, мутафаккир, педагог ва ахлоқшунос Абдулла Авлоний: “ўгай тарбиядан” кўра миллий тарбиямиз усусларини янгилашни афзал билади ва ва ўз даврини “Тарбиянинг замони – тарбиянинг айни вақти” деб атайди. Унинг бу борадаги қарашлари ҳануз ўз кучини йўқотганмаганлигини, тарбия – ҳозир ҳам жамият учун долзарб муаммо эканлигини кўриш мумкин. Ўз навбатида Абдулла Авлоний: “Тарбия бизлар учун ё ҳаёт – ё мамот, ё нажот – ё ҳалокат, ё саодат, ё фалокат масаласидир” [4], деб таъкидлаб ўтиб, оила ва ундаги тарбия ҳар бир ёш учун муҳим аҳамиятга эга бўлган муҳим тамойиллардан бири эканлигини, тарбиянинг вояга етмаганларнинг хуқуқ ва ахлоқ нормаларига риоя қилишини таъминлашда, шунингдек, улар томонидан содир этиладиган хуқуқбузарликлар содир этилишини олдини олишда муҳим аҳамият касб этишини кўрсатиб ўтган.

Демак, вояга етмаган шахсларда ғайриижтимоий ҳулқ-атвор шаклланишида уни ўраб турган ташқи ва ички муҳитдаги салбий таъсирлар рол

ўйнайди ва айнан шу салбий таъсирлар вояга етмаганлар томонидан хуқуқбузарликлар содир этилишига олиб келади.

Вояга етмаганлар томонидан хуқуқбузарликлар содир этилиши шарт-шароитларидан келиб чиқиб уларни қуйидаги иккита турға ажратиш мүмкін:

1. Ташқи шарт-шароит, жамиятдаги салбий ижтимоий иллатларнинг мавжудлиги, хусусан, гиёхвандлик ва сурункали ичқиликбозлик, “оммавий маданият”, экстремизм ва терроризм;
2. Ички шарт-шароит, хусусан, оиласдаги салбий муҳит, оила аъзоларидаги ёмон ҳулкнинг салбий таъсири ва бошқалар.

Вояга етмаганлар томонидан содир этилган хуқуқбузарликларнинг турларига қараб уларнинг қандай муҳитда ўсганлигини аниқлаш мүмкин, шу боисдан вояга етмаганлар ўртасида назоратсизлик ва хуқуқбузарликлар профилактикасини ташкил этишда ва бу жараёндани мавжуд муаммоларни аниқлаш ҳамда уларни баратараф этишда аввало хуқуқбузарликларни ўрганиш мақсадга мувофиқ.

Вояга етмаганлар томонидан содир этиладиган хуқуқбузарликлар таҳлил этилганда уларнинг қуйидаги алоҳида кўринишларига эътибор бериш лозим:

1. Жамоат тартиби ва аҳлоқий талабларни бузиш (ноаҳлоқий ҳулқ-атвор).
2. Турли ҳилдаги майда қонунбузарликлар (қонунга хилоф хатти-харакат).
3. Қонуний талабларни бузиш, жиноят содир этиш (жиноий хатти-харакат) кабилар.

Шу туфайли жамиятга зид ҳулқ-атворни барча турларини бир бири билан узвий боғлиқ ва қоидага биноан бир бирига сабабчиидир. Шунинг учун хуқуқбузарликларнинг ва хуқуқбузарликларнинг олдини олиш самарадорлигини оширишда, унга шароит яратаетган, жамиятга зиён етказаётган сабаблар билан курашни кучайтириш зарур.

Вояга етмаганларнинг ўзига хос хусусиятлардан энг муҳими шундаки, оиласда ва мактаб жамоасида ўз ўрнини топа олиши ниҳоятда мураккабдир, шу боис ҳам улар томонидан содир этиладиган хуқуқбузарликлар қуйидаги омилларни бир - бирига таъсири натижасида вужудга келади:

1. Ташқи муҳитнинг вояга етмаган ўсмирларга бўлган таъсири;
2. Вояга етмаган ўсмирнинг шахси;
3. Вояга етмаган ўсмирларнинг жамоада тутган ўрни.

Вояга етмаганлар ўртасидаги хуқуқбузарликларга мойилларининг ижтимоий эҳтиёжлар, қизиқишлиар, моддий йўналишилар бир-бирига ўхшаш бўлади, уларни қонунга зид ишлар қилиш билан тўлдирмоқчи бўладилар.

Юқоридаги омилларни ҳисобга олган ҳолда вояга етмаганлар ўртасида назоратсизлик ва хуқуқбузарликлар профилактикасини ташкил этиш ва амалга оширишда ички ишлар органлари, болалар масалалари бўйича миллий

комиссиялар, мутахассислар, таълим муассасалари ўзаро ҳамкорликда зарурий чора-тадбирларни амалга оширишлари мақсадга мувофиқ.

Оила муҳити ва ташқи муҳит вояга етмаганларнинг шахсига ниҳоят даражада тез таъсир қиласи, бундай таъсир қилиш натижасида вояга етмаганларда жамиятга зид бўлган қуидаги салбий ҳислатлар шаклланиб боришида катта ўринни эгаллади.

Вояга етмаган ҳуқуқбузарлар оилалари тузилмасида ижобий оилалар катта ўрин тутади. Улардан тахминан 60 фоизидан кам илғанадиган болалар тарбияси хатолари кўринади: 34,5 фоиз оилаларда болани доимо асоссиз эркалашади, 26,2 фоиз оилада эса болани мустақиллигидан ва оила муаммоларидан ажратилган. Ўрганилган оилалар моддий ахвол яхши. Фақат, 12-13 фоиз оилаларда моддий камчиликлар бор. Қолган оилаларда ҳамма нарса етарли, уларнинг кўпчилигига моддий эҳтиёжлар маънавийларидан устун қўйилиб, шу орқали болаларнинг қиммат нарсаларга бўлган эҳтиёжи қондирилади.

Оила томонидан назоратсиз қолиш, ўқув тарбия жамоасини таъсиридан тушиб қолиш ёшларда жавобгарсизлик ва бебошлиқ ҳиссини мустахкамлайди. Вояга етмаганлар ҳуқуқбузарликларини олдини олишнинг замонавий шароитида асосий диққат эътибор, вояга етмаганлар томонидан содир этиладиган ҳуқуқбузарликларнинг олдини олувчи дастлабки профилактика масалалариға қаратилган бўлиши керак.

Маълумки болалар нафақат дарс жараёнида, балки дарсдан ташқари вақтларда ҳам таълим-тарбия таъсири остида бўлишлари керак. Шу сабабли таълим муассасалари турар жойларда педагогик марказларга айланниб, болалар қандай яшаётганликлари ва улар бўш вақтларини қандай ўтказаётганликлари борасида жавобгарликни ўз зиммаларига олишлари зарур. Таҳлил этилган ижобий натижалар шундан далолат беряптики, қаерда педагогик жамоалар тамонидан бундай жавобгарликни ўз зиммларига олиб ўқувчилани бўш вақтларини тўғри ташкил этган бўлсалар, ўша ерда қонунбузарликлар жуда кам содир этилади.

Вояга етмаганларнинг шахсини шакллантиришда ва ҳуқуқбузарликнинг олди олишда педагогик усулларни ўзгаришларга мослаб бориш ва педагогик саводсиз оилалар билан алоқа қилиш, уларни масъулиятини ошириш муҳимдир. Бунда кўпгина мутахассислар, жумладан социологлар, педагог ва юристларнинг фаоллиги талаб қилинади[5].

Шу боисдан, вояга етмаганлар ўртасида назоратсизлик ва ҳуқуқбузарликлар профилактикасини ташкил этишда аввало вояга етмаганларга салбий таъсир қўрсатувчи сабаблар ва шарт-шароитларни аниқлаш ҳамда бартараф этишга қаратиш, бу борадаги самарали усулларни ишлаб чиқиш ва амалиётга жорий этиш мақсадга мувофиқдир.

Шу билан бирга, вояга етмаган тўлиқ ижтимоий шахс эмаслиги, унинг ривожланиш босқичида эканлигини инобатга олиб, улар ўртасида назоратсизлик ва хуқуқбузарликлар профилактикасини ташкил этишда ижобий хулқ-авторни шакллантириш, салбий таъсирни камайтиришга қаратилган тадбирларни амалга ошириш муҳим аҳамият касб этади.

Хулоса қилиб шуни айтишимиз керакки, ҳозирги пайтда вояга етмаганлар томонидан содир этиладиган хуқуқбузарликлар ва хуқуқбузарликларнинг олдини олиш долзарб муаммолардан биридир. Чунки келгуси ишларнинг давомчилари айнан ўсиб келаётган ёш авлоддир, улар давлатнинг келажагини белгилайди. Вояга етмаганлар томонидан содир этиладиган хуқуқбузарликларнинг олдини олиш учун, аввало уларнинг келиб чиқиш сабабларини аниқлашимиз ва бартараф этишимиз мақсадга мувофиқдир. Шунингдек, жойларда умумий профилактикандан унумли фойдаланиш ва буларни юритишида ёшлар тарбиясига бевосита маъсул шахслар ва ташкилотлар билан ўзаро ҳамкорликни яхши йўлга қўйилиши ижобий натижаларни беради. Бундан ташқари хуқуқбузарлик ёки жиноят содир этган вояга етмаганлар билан якка профилактик тарбиявий ишларни юритишида уларнинг ёш ва психологик хусусиятларини инобатга олиб ташкиллаштирилиши ҳам мақсадга мувофиқдир.

**Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 20 декабрдаги Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига мурожаатномаси.
2. Абдурасурова Қ.Р. Криминология / Дарслик. –Т., 2008. –Б. 154.
3. Исмаилов И. Вояга етмаганлар жиноятчилигининг криминологик тавсифи ва профилактикаси // Криминология. Махсус қисм: Дарслик / Муаллифлар жамоаси. — Т., 2015. — Б. 15.
4. Авлоний, Абдулла. Танланган асарлар: 2 жилдлик, 2-нашри, 2-жилд. Пандлар, ибратлар, ҳикоялар, набийлар ҳаёти, драмалар, мақолалар, саёҳат хотиралари // Таҳрир ҳайъати: Н.Каримов ва бошқ.; Тўпловчи: Б.Қосимов; Изоҳлар ва лугатни О.Тўлабоев тузган /Т.: «Маънавият», 2006. – Б-37.
5. Липатов А.Е. Уголовно-правовая и криминологическая характеристика краж, совершаемых несовершеннолетними. Автореф. На соискание канд.юрид.наук.М., 24-б.

## THE ROLE OF CULTURE ON THE TRANSLATION OF METAPHOR

**Makhmudova Gulbahor Bakhrom kizi**  
2<sup>nd</sup> course master student, SamSIFL  
[gulbahor.agzamova@bk.ru](mailto:gulbahor.agzamova@bk.ru)

**Abstract:** This article investigates the notion of “culture”, the correlations between culture and metaphor. Moreover, the influence of culture in metaphor translation process and how this impact can create the barriers in translation science. The purpose of this paper is to demonstrate an analytical view into the ability of translating of metaphoric expressions and how it is considered to be vitally important in the process of meaning-making.

**Key words:** *culture, metaphor translation, an image-based metaphor, 'informative text', 'expressive text', 'lexicalized metaphor', 'creative metaphor', lexicalization, contextualization, translatability.*

Metaphorical statements frequently include culturally-specific notions, expressing connections with a certain community. Having switched across distinct ethnic contexts, along with theoretical as well as linguistic viewpoints, is an issue in metaphor interpretation. Relating to metaphors in translation involves obviously more than only establishing lingual correlations between languages of consideration, and yet also establishing connections among their conceptual systems matching to their different cultural paradigms. *Culture* has been characterized in a variety of ways, including:

1. "Culture is all the information and values that a community shares."
2. "Culture is the integrated pattern of human knowledge, beliefs, and behavior that depends upon the ability for learning and imparting information to subsequent generations."
3. "Anthropologists most usually use the term 'culture' to refer to the universal human capacity to classify, codify and convey their experiences symbolically."
4. "In its broad ethnographic definition, *culture* or civilization is that complex system which comprises knowledge, belief, art, morals, law, tradition, and any other capacities and habits acquired by man as a member of society."

*Culture*, according to UNESCO, "should be understood as the collection of distinguishing spiritual, material, intellectual, and emotional qualities of community or a social group, and that it includes, in addition to art and literature, lifestyle, ways of existing together, value systems, traditions, and beliefs. One may see that the common denominator (knowledge or experience within the social environment) is an actual fact in practically all of the descriptions of cultures stated before. Going through a given

experience would undoubtedly indicate the presence of mental faculties - the process of thinking that would be capable of conceptualizing reality via the use of specific concepts (something conceived in the mind) mirrored by certain visuals.

*Metaphors*, in generally, are the manner we think about and convey everything which are strongly ingrained in our culture. Because metaphors arise in their individual communities, only a small number of them are likely to be shared between languages. As a result, most metaphors are classified as culturally distinctive components. The differences are more noticeable when the two languages are from distinct cultures, such as English and Chinese. Because metaphors give us unique ideas and expand our awareness of underlying values concealed in a culture, their translation might inspire outsiders to get immersed in the culture of the original language.

Early linguists such as Catford (1,p.54) observed that when there is a strong cultural load in a cultural transfer process, it is significantly harder to convey the original cultural material while translating metaphors. *Metaphor translation* is heavily influenced by cultural differences. At the same time, cultural characteristics differ from one language to the other. As a result, relatively similar metaphoric picture may not have the same meaning in another language. Because translating metaphors involves cultural and creative shifts between languages, translators must be aware of acceptable ways for conveying the desired meaning [4,p.15]. As previously said, it is the social reality and cultural framework that shape our beliefs and concepts.

Mary Snell-Hornby underlines the role of metaphor as a cultural phenomena in an article titled "The Unfamiliar Image: Metaphor as a Problem in Translation" [2,p.23] that has been disregarded by linguistically-oriented translation studies. On the one hand, metaphor is a generic cognitive and language phenomena, on the other hand, its associative potential is fully culturally contingent, which poses translator issues. The topic of metaphor translation should not be treated prescriptively, in the form of abstract principles; rather, it should be approached in the context of specific texts. Two dichotomies are keys in this context: 'informative' vs. 'expressive text', and 'lexicalized' vs. 'creative metaphor'. Snell-Hornby questions Newmark's [3,p.295-326] lexicalization scale of 'cliché', 'stock', and 'recent' because, first, the position of a metaphor on that scale shifts with cultural growth, and second, the reader's comprehension of a metaphor is dependent on her/his knowledge and experience. Argument of Snell-Hornby is that metaphor's associative potential is wholly culturally dependent is overblown, because some metaphors (for example, core metaphors like "*affection is warmth*") are more or less universal and not culturally reliant. Because no one text is wholly informational or expressive, the divide between *informative and expressive texts* is equally flawed. Some portions of a text can be instructive, while others can be *expressive*, and the criteria for distinguishing between the two are unclear. Thus, in the process of translating metaphoric notions from one language to

another would certainly appear intercultural communication issues. The translator, on his or her part, must get acquainted with the social realities of the language into which he or she is translating. This is to check whether he can translate the original image as near to the goal image as feasible. *An image-based metaphor*, one may argue, may be appropriately translated only after being contextualized since "*contextualization*" is one of the most crucial if not the most important component in verbal generation of meaning".

All things considered, the translatability of metaphoric expressions is one of the most intriguing issues in translation. In addition, it may be stated that one fundamental step in deciphering the meaning of a mental image in the source language so that it can be translated into the target language is to have an understanding of its cultural context. This is to demonstrate how people see them as a result of engaging with their surroundings.

### **Reference**

1. Catford John, A Linguistic Theory of Translation, Oxford University Press, Oxford. 1965
2. Mary Snell-Hornby, The Unfamiliar Image: Metaphor as a Problem in Translation. 1988
3. Newmark "The Translation of Metaphor." In The Ubiquity of Metaphor, W. Paprotté and R. Dirven (eds.), Amsterdam/Philadelphia: John Benjamins 1985, P. 295-326
4. Par Minou Jalali, Frequent translation strategies used by Iranian translators in subtitles to translate metaphors, November 2015, p.15
5. <http://www.hyperdictionary.com>.
6. <https://www.merriam-webster.com>.
7. <https://www.newworldencyclopedia.org/entry/Culture>.
8. [https://branchcollective.org/?ps\\_articles=peter-logan-on-culture-edward-b-tylors-primitive-culture-1871](https://branchcollective.org/?ps_articles=peter-logan-on-culture-edward-b-tylors-primitive-culture-1871).
9. <https://policytoolbox.iiep.unesco.org/glossary/cultures/>.

## CLASSIFICATIONS OF BORROWINGS IN ENGLISH LANGUAGE

*Nabiyeva Gulhayo Shuhratjon qizi*

*Student of Master Degree in SamSIFL*

**Abstract:** The development of human society is the development of all its constituent cultures, and, accordingly, of all languages. Cultures undergo a certain historical development both independently of other cultures and (to a very large extent) in interaction with them. The presented work is devoted to the topic "Classification of borrowings in the English language". The problem of this study has relevance in the modern world. This is evidenced by the frequent raising, and later the study of the issues of language borrowings, which extend their influence to the most diverse spheres of activity, both of certain generations and the development of nations as a whole. No language is "pure"—any language has admixture-borrowings. English is no exception. It coexists with words from Latin, French, Italian, Spanish, Chinese, and many other languages. And, therefore, the study of the above problem has been and will be relevant, due to the close connection of language borrowings with the general history of the past and the prospects for the development of languages in the future.

**Key words:** concept of borrowings, French, Latin, Scandinavian, Germanic, West Germanic, Indo-European borrowings.

Borrowing is a process, as a result of which a certain foreign language element appears and is fixed in the language; also such a foreign language element itself. This is an integral part of the functioning and historical change of the language, one of the main sources of replenishment of the vocabulary; it is also a full-fledged element of the language, which is part of its lexical wealth, serving as a source of new roots, word-building elements and precise terms. Borrowing in languages is one of the most important factors in their development. The process of borrowing lies at the very basis of language activity. Sound and formal uniformity within the same language is a consequence of borrowing by some individuals from others; in the same way, elements of the lexicon of one language are borrowed by another language through the interaction of their speakers.

The share of borrowed elements in languages is large, although it is not possible to accurately calculate their number, both due to the constant increase in the number of foreign elements penetrating the language, and due to the assimilation process, which makes it difficult to establish the origin of the word.

In each language, the following layers can be distinguished: words inherent in all languages of the same family; words common to a group, subgroup of related languages; native words of a particular language; borrowed words. In English, it looks like this:

- Indo-European words (common to many languages): *mother, brother, daughter, wolf, meat, hear, hundred, be, stand* ;
- Germanic words: *bear, finger, say, see, white, winter* ;
- West German words: *age, ask, give, love, south*;
- actually English (Anglo-Saxon words): *lady, lord, boy, girl* ;
- from related languages: *knight, low, flat, fellow, sale* (from Old Norse), *rummer, napper, fitter* (from Dutch);
- from another language system: *Soviet, sputnik, steppe, taiga* (from Russian), *judo, samurai, sumo* (from Japanese), *xylophone, epoch, echo* (from Greek).

It is impossible to imagine a language that would not contain foreign borrowings. So, in English there are many words that came from *Ancient Rome, Greece, Italy, Spain, Germany and Russia*. Many of them assimilated and acquired a completely British look. Others, despite their outward resemblance, sound according to English pronunciation norms, like, say, the German words *kindergarten, schnapps, zeppelin* or the Russian words *tundra, steppe*. Most of these borrowings were assimilated, lost their "national" appearance and are perceived by the British as native. This also applies to phonetic design, and stress, and spelling. Borrowings in different languages affect vocabulary enrichment in different ways. In some languages, they did not have such an impact that could significantly affect the vocabulary of the language. In other languages, borrowing in different historical epochs had such a significant impact on the vocabulary of the language that even function words, such as pronouns, prepositions, borrowed from other languages, replaced the original function words.

Borrowed from approximately 50 languages of the world, lexical units make up almost 70% of the vocabulary of the English language and include layers of vocabulary borrowed in various historical eras and under the influence of various historical, geographical, social, economic, cultural, etc. - conditions for the development and existence of the English language. Being the result of a long historical interaction of languages, borrowing as a process and borrowing as a result of this process are of considerable interest for the history of the language, within which they receive detailed coverage of the causes and source languages of borrowings, ways, forms and types of borrowings, as well as those transformations which the borrowed word undergoes in the language that borrowed it. First of all, it must be remembered that the source of borrowing is the language from which the word is taken into the English vocabulary. However, the origin of the word may be different. So, for example, the source of the borrowing of the word *paper* is *French*.

In the 17th century the bulk of *French borrowings* are commercial and industrial terms: capital, commerce, insurance, bank, machine, investment, etc. In the 18th century the political terms of the French Revolution are added to them: *aristocrat,*

*democracy, despot, section, etc.* Later, the flow of borrowings from French gradually dries up; the English language already includes single words of various thematic groups :*garage, chauffeur, development, fiancee, etc.* [36, p. 16-17].

*Latin borrowings* of the Middle English and Early New English periods are mainly words of scientific use and abstract nouns :*formula, fraction, magnanimity, fatal, jovial, beneficial, vernacular.* We find a large number of examples of this, in particular, in medical terminology in medical terminology (oculist, osteotomy, etc.) [29, p. 32-33] since the process of their penetration into the English language is often artificial.

*Scandinavian borrowings* also largely determined the mixed nature of the English vocabulary. This was largely facilitated by the direct coexistence of the British with the Danes on the territory of England during the period of Danish rule (X-XI centuries). Borrowed mainly nouns, verbs and adjectives. Their division into thematic groups is difficult due to the very large variety; the semantics of most words is of a general nature: *husband, fellow, drag, bag, snare, leg, calf, skin, skirt; cast, take, guess; ill, wrong, low and many other words.*

In the process of writing this thesis, we carefully analyzed the borrowed vocabulary from the point of view of its concept and scope of functioning. We also considered various classifications of borrowed vocabulary proposed by experts at various stages of linguistic studies. A significant place in our work is the consideration of the sources of borrowings in the English language from a chronological point of view.

### **LIST OF USED LITERATURE**

1. Akulenko V.V. Issues of internationalization of the vocabulary of the language. - H.: Kharkov University Publishing House, 1972. - 216 p.
2. Aristova V.M. English-Russian language contacts. - L: Publishing House of Leningrad State University, 1978. - 151 p.
3. Arnold, I.V. Lexicology of Modern English / I.V. Arnold. - M.: AspectPress, 2001. - 536 p.
4. Atrashevskaya, O.T. Lexical fields with semantically correlative native and borrowed units / O.T. Atrashevskaya // Communication Theory. Language meanings: Sat. scientific articles/ MSLU
5. Barkhudarov L.S. "Language and Translation", Publishing House "International Relations", M.1975
6. Makovsky M. M., On the problem of the so-called "international" vocabulary, "Issues of Linguistics", 1960,
7. No. 1. Vinogradov V.S. "Introduction to the Theory of Translation", M.2001 Vinokurova,

8. V.N. Patterns of development of the semantic structure of lexical borrowings in modern English / V.N. Vinokurova// Topical issues of linguistics and intensification of teaching foreign languages: Sat. scientific Art./ Ed. A.V. Danilovich, M.I. Kuskov.
9. Volodarskaya E.F. Borrowings as a reflection of Russian-English contacts // Problems of linguistics. 2002. No. 4. pp. 102-104.
10. Garbovsky, N.K. Translation theory / N.K. Garbovsky. - M.: Moscow University Publishing House, 2004. - 54

**KASB-HUNAR NOMLARINING JAMIYAT HAYOTIDA TUTGAN O'RNI  
INGLIZ XALQI MISOLIDA**

*Kulmuhamedova Lobar*

*Samarqand davlat chet tillar instituti 2-kurs magistir talabasi*

*Erdanova Zebo Abulkasimovna*

*Ilmiy maslahatchi*

**Annotation:** This article is about the role of professional names in the life of English people, and the reader will have a vivid impression of the culture of the English nation and get a lot of knowledge about the country under study.

**Key words:** English professional names, Medieval ages, surname, last name, first name

O'zbek tilida bo'lgani singari ingliz tilida ham kasb-hunar nomlarining ham tarixiy rivojlanishi, etimologik kelib chiqishi, eskirishi yoki aksincha, yangilanishi, so'z o'zlashtirilish natijasida boyishini kuzatish mumkin.

O'rta asrlar yevropa tarixidagi muhim davr bo'lib, aynan shu davrda Yevropada feodalizm kuchayib,yangi qirollik va imperiyalar vujudga kelishi bilan mustahkamlanib bordi. Bu kata o'zgarishlar davri edi, chunki eski turmush tarzi yangilari bilan almashтирildi. O'rta asrlardagi oddiy *ishlarga temirchilar* (*Blacksmiths*), *zirhchilar* (*armorers*), *tegirmonchilar* (*millers*), *ustalar* (*carpenter*), *qo'shiqchi* (*minstrel*), *duradgorlar* (*weaver*), *vinochilik* (*winemaker*), *dehqon* (*farmer*), *qo'riqchi* (*watchman*), *etikdo'z* (*shoemaker*) va *tom yopuvchilar* (*roofer*) kiradi.

**Miller-Tegirmonchi**

Bu kasb egalari O'rta asrning eng muhim savdogarlaridan biri edi. Tegirmonchi o'z shahar yoki qishlog'ida yashovchi odamlar va oilalar uchun oziq -ovqat qilish uchun unni maydalaydi. U unda hech qanday bo'lak yo'qligiga ishinch hosil qiladi, bu esa mijozlar har safar non sotib olganlarida yacshi mahsulot sotib olganlariga amin bo'lishlari mumkin edi.

**Blacksmith-temirchi**

Temirchi nafaqat taqa,qozon, mix kabi temir buyumlar yasaydi, balki daraxtlarni ham taxta qilib kesadi, U shaharning usta va muhandisi edi.

**Stone masson-** Tosh ustasi.

O'rta asrlarda shaharda qal'alar,cherkovlar va ko'priklar qurish uchun tosh ustalar mas'ul edi. Bundan tashqari ular o'sha davrda soborlarda ham ishlaganlar.Toshkorlar binolarni qurish uchun tosh bloklardan foydalanganlar.

**Armorier-Qurolchi**

O'rta asrlarda askarlar qurol aslaha yasashgan.Dastlabki davrlarda ular zirhlarni ham ta'mirlab, jihozlashdi.

## Minstrel-Qo'shiqchi

O'rta asrlarda lirik yoki qahramonona she'rni musiqiy ashula qilib ijro etgan yoki o'qigan o'rta asrlardagi qo'shiqchi yoki musiqachi. U ko'ngilochar tomoshalar yusushtirgan.Dastlab uning juggler (jonglyor), acrobat (acrobat) va masqaraboz kabi kasblar birlashmasini shunday atalgan. Ularni ko'pincha zodagonlar ziyofatlarda mehmon qilish uchun chaqirishgan. Bizda televizor yoki internet bo'lishidan oldin-o'yinchilar buyuk jangler yoki afsonaviy sarguzashtlar haqida hikoya qilishardi. Minstrellar o'z ertaklarini yaratgan bo'lalar ham, ko'pincha boshqalarning asarlarini yodlab, bezab namoyish qilishardi. Ularning mashhurligining pasayishi 15- asr oxirida boshlandi. Bugungi kunda ularning ko'cha musiqachilari timsolida uchratish mumkin.

*Minstrel* atamasi eski fransuz tilida *menestrel* (*shuningdek, menesterel,menestral*) yoki italiancha *ministrello* so'zidan olingan.

Normandlar istilosidan avval Anglo-Saksonlar davrida professional shoir *scop* (ya'ni shakillantiruvchi, yaratuvchi) nomi bilan mashhur bo'lgan va u o'z she'rlarini yozgan va ularni arfa jo'rligida kuylagan.

13-arsning oxiriga kelib minstrel atamasi foydalanila boshlangan. Bir qator bosqinlar va urushlardan keyin kompozitorlarning ikki toifasi rivojlandi. Chaucer va Jon Gower kabi shoirlar birinchi toifaga mansubdir. Minstrellar esa ziyofat va bayramlarda arfa, skripka cva shu kabi musiqa asboblarini chalishgan. Bundan tashqari ular siyosiy tashviqot bilan shug'ullanishlari bilan mashhur edilar. Ular ko'pincha fikrni chalg'itishga qaratilgan yangiliklarni va tenglikni targ'ib qilishgan.

Izlanishlarimiz davomida kasb-hunar nomlarining ingliz xalqining ijtimoiy hayotida ko'rsatgan ta'sirini ham guvohi bo'lishimiz mumkin. Ko'pgina jurnal, gazeta , kinofilm va adabiyotlarda inglizcha familyalarning ma'nosi bir kasb-hunar nomini bildirishi diqqatingizni tortadi: *John Blacksmith, Peter Parker,Mary Webster* va shu kabi.

Kasbiy nomlar odamlarning ish yoki jamiyatdagi mavqeyiga qarab aniqlanadi. Bir odamni "Tomas Carpenter" deb atash, u tirikchilik uchun yog'och bilan ishlaganini. Knight ismli kishi esa qilich ko'targanini ko'rsatadi. Boshqa kasb nomlari *Archer, Butcher, Carter, Clark, Cooper, Cook, Dyer, Farmer, Fisher, Fuller, Gardener, Glover, Head, Hunt or Hunter, Judge, Mason, Page, Parker, Potter, Sawyer, Slater, Smith, Taylor, Thatcher, Turner, Weaver* va yana ko'plab ismlar mavjud.

Angilyada familyalar "surname" yoki "last name" deyiladi. Buning asosiy sababi avval sizga berilgan ism ya'ni "first name" undan keyin esa sizning qaysi oiladan ekanligingizni bildiruvchi nom qo'llaniladi. Familyadan foydalanish 1066- yilda Norman istilosidan keyin qo'llanilgan. Mamlakat aholisining ko'payishi bilan odamlarni bir –biridan farqlash zarurati tug'ildi. Va shu sababli ismlarga shaxsning ta'riflari kiritila boshladi, masalan, *Thomas son of Loan- Loanning o'g'I Tomas,Peter*

*the Baker, Richard the Whitehead* va hokazo. Bu tavsiflar o'sib bugun biz tan oladigan familyalarni shakllantirdi.

Quyida o'tgan asrlarda kasb nomi sifatida qo'llanilgan ammo hozirda familya sifatida bizga ma'lum bo'lgan kasb-hunar nomlarini ba'zilarini keltirib o'tamiz:

**Chapman**- bu ism hozirda AQSHdagi eng mashhur ismlar ro'yxatidagi 218-o'rinni egallagan va bu kabi familyasi bor kishilarning shajarasida savdogar bo'lgan ajdodi mavjud. Bu so'z qadimgi inglizcha *ceapman* so'zidan olingan bo'lib, "bozorchi, sotuvchi, savdogar" degan ma'noni anglatadi. 1600-yilga kelib, chapman atamasi, xususan, sayohatchi sotuvchi" ni bildirgan. Aslida, "*chap*" so'zi uning qisqartmasidir.

**Cuper**- O'rta asrlarda ajdodlari bochka, baraban kabi yog'ochdan buyum yasash bilan shug'ullangan kishilar bo'lgan va bu familya o'sha davrdan avlodlarga meros bo'lgan. U Amerikalik familyalar bo'yicha 64- o'rinni egallaydi va u telefon kitobchasida 11 milliondan ziyod yozuvga ega.

**Marshall**- Bu nom otlar bilan ishlaydigan kishilar uchun xos bo'lib, uning asl kelib chiqishi nemis tiliga borib taqaladi: "mare- horse" va "skalkoz-servant". Bu nom AQSH da 125- o'rinda bo'lib, telefon kitobchasida 8 milliondan ortiq yozuvlarga ega.

**Fuller**- Bu kasb bugungi kunga kelib mavjudligini yo'qotgan bo'lishiga qaramasdan, u kishilar familyasi sifatida bizga ma'lum. Bu kasb egalari qadimda junni tozalovchi va qalinlashtiruvchi kishilarni bildiradi va bu ish uchun suv tegirmonidan foydalanishgan. Ammo hozirda bu ishni mashinalar bajaradi. Fuller nomi 2000-yilgi ro'yxatga olishda Amerika familyalari orasida 256- o'rinda turadi va Tucker va Walker familyalari bilan chambarchas bog'liq.

**Porter** -Agarda bu familya bugungi kunda ixtiro qilinganda bu nom bilan atalgan kishilarning ismi *Sam Bouncer* bo'lardi, chunki bu ism fransuzcha "portier" yoki "doorkeeper" so'zidan kelib chiqqan. Bu haqdagi eng dastlabki rekord 1086-yilda Winchester qasrida olingan. Hozirda AQSHda 156 000dan ortiq *Porter* familyasi bor.

**Ritter**- nemis familyasi ingliz xalqining Rider va Ryder familyalariga yaqin bo'lib, tom ma'noda otliq ritsarni anglatishi mumkin. Normandlar 1066-yilda Angilyani zabit etgandan so'ng, bu nom shunchaki xabarchi ma'nosida ishlatilgan. Ritter 2000- yilgi aholini ro'yxatga olishda 970- o'rinda 1000 ta eng yaxshi familya ro'yxatiga zo'rg'a kirdi.

**Wright**- nomi esa eski ingliz tilidan "wryht" ya'ni "yog'och ishchisi" so'zidan kelib chiqqan bo'lib , keyinchalik bu so'z hamma ishchilar uchun bir xil ishlatiladigan bo'ldi. Bu familya 94-o'rinda turadi.

**Fletcher**- nomi inglizcha-fransuzcha "fleche" so'zidan olingan bo'lib, "o'q yasaydigan usta" ma'nosini bildiradi. Biz bu familyani mashhur "One Flew Over the Cuckoo's Nest" (1975) filmida rol o'ynagan aktirsa Oskar mukofoti sovrindori Luiza Fletcher misolida ham ko'rishimiz mumkin.

**Chamberlain-** bu nom zodagonlar uxlayotgan xonani qo'riqlovchi xizmatkorni bildiradi.

*Whilst Quentin was engaged in these sage reflections, a sort of attendant or chamberlain of the inn informed him that a cavalier desired to speak with him below.*

---

Walter Scott, Quentin Durwadr, 1823

Tarixdagi mashhur Chamberlainlar orasida buyuk Britaniya Bosh vaziri Neville (1937-1940 –yillarda xizmat qilgan) va basketbol yulduzi Wilt bor.

**Sexton-** cherkov yoki qabriston qo'riqchisi. Sextonning vazifalari an'anaviy ravishda qo'ng'iroqni chalish yoki dafn qilish uchun qabr qazishni o'z ichiga oladi.

Bu so'z O'rta ingliz va ingliz-fransuz tilidan o'rta asr lotin *sacristanus* tilidan kelib chiqqan. Sexton ismli eng mashhur shaxs amerikalik shoir Anne Sexton (1928-1974).

Boshlanishida familyalar o'zgaruvchan bo'lib, bu ularni kasbini o'zgarishi bilan bog'liq bo'lган. Masalan: *John Blacksmith*. O'zining savdosi rivojlangani sari John Farrierga o'zgaradi. Ya'ni Temirchi Jon Mo'yna savdosi bilan shug'llanuvchi Jonga aylanadi. Tabiiyki, bu o'zgarish o'sha davr uchun anchayin qulay va ommabop bo'lган. 1538-yilda cherkov registirlarining joriy etilishi irsiy familyalar g'oyasini shakllantirishga yordam berdi. Biroq mamlakatning ba'zi joylarida suvga cho'mish paytida bir familya bilan kirgan, boshqa ism bilan turmush qurgan va keyin uchinchi familya ostida dafn etilgan odamni topish odatiy hol edi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Hanson, Marilee. "Medieval Jobs List" January 27.2022
2. <http://youngsearchersjournal.org>
3. <http://www.academia.edu>

**BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QITISHNING ZAMONAVIY AXBOROT  
TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH AFZALLIKLARI**

*Qoraqalpog`iston Respublikasi Amudaryo tumani  
3-maktab boshlang`ich sinf o'qituvchisi  
Kaypova Gulzar Allambergenovna*

**Annotasiya:** Ushbu maqolada umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinf darslarida zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish afzalliklari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Boshlang'ich ta'lif, axborot texnologiyalari, kompyuter, dars.

**EFFICIENCY OF USING MODERN INFORMATION TECHNOLOGIES IN  
PRIMARY EDUCATION**

**Abstract:** This article discusses the benefits of using modern information technology in elementary school.

**Keywords:** Elementary education, information technology, computer, lesson.

Ta'lif o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorlikdagi faoliyati bo'lib, shu jarayonda shaxsning taraqqiyoti, uning ma'lumoti va tarbiyasi ham amalga oshadi. Darslarda o'qituvchi o'z bilimi, ko'nikma va malakalarini mashg'ulotlar vositasida o'quvchilarga yetkazadi, o'quvchilar esa uni o'zlashtirib borishi natijasida undan foydalanish qobiliyatiga ega bo'ladi. O'rghanish jarayonida o'quvchilar o'zlashtirishning turli ko'rinishlaridan foydalanishadi, ya'nii o'zlashtirilayotgan ma'lumotlarni qabul qilish, qayta ishslash hamda amaliyatga tatbiq etishda o'ziga xos tafovutlarga tayanadi. Ta'lif jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarlarning dars paytidagi hamkorligi, o'quvchilarning mustaqil ishlashi, sinfdan tashqari ishlar shaklida ta'lif va tarbiya masalalari hal etiladi.

Ta'limning maqsadi jamiyat ehtiyojiga mos ravishda shakllanadi. Shunday ekan, ta'lif-tarbiya maqsadi mos va mutanosib bo'lishi kerak. Ilmiy adabiyotlarda ta'lifning maqsadi imkoniyatlaridan to'g'ri, aniq, o'rini foydalanish ko'nikma va malakalarini hosil qilish, mantiqiy-ijodiy tafakkurni rivojlantirish, kommunikativ savodxonlikni oshirish, milliy g'oyani singdirish, sharqona tarbiyani shakllantirish, shaxsni ma'naviy boyitishdan iboratligi ta'kidlangan. Ta'limiy maqsad asosida o'quvchilarda mustaqil fikrlash, og'zaki va yozma savodxonlikni oshirish, mantiqiy tafakkurni rivojlantirish orqali ularning muloqot madaniyati takomillashtiriladi. Tarbiyaviy maqsad asosida esa ma'naviy, g'oyaviy, nafosat tarbiyasi beriladi. Til o'rghanish jarayonida xalqning madaniy-axloqiy qadriyatlariga yaqinlashtirish imkonи paydo bo'ladi. Xalq ta'lifi vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, bugungi kunda respublikamizda boshlang'ich sinf

o‘quvchilari soni jami 2129389 nafarni tashkil etadi. Ularga 111866 nafar pedagog saboq berib kelmoqda. Xozirgi kunda davlatimiz tomonidan o‘qituvchilarning darslarga ijodiy yondashishini ta’minlash, ular faoliyatiga ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy qilish hamda o‘quvchilarning dastlabki bilim egallah poydevori mustahkam bo‘lishi, barcha fanlarni o‘zlashtirishga qiziqishini oshirish maqsadida zarur chora-tadbirlar ishlab chiqilib, hayotga tatbiq etib kelmoqda. Hozirgi davr o‘qituvchi va o‘quvchi oldiga katta talablar qo‘ymoqda, bu talablarning eng asosiysi - darsning samaradorligi, uning sifatliligi, o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalariga, maktablardagi turli xil o‘quv mashg‘ulotlari, ularni tashkil qilinishi va u orqali o‘quvchilarni turli bilim va ko‘nikmalarni egallab olishidir. Bugungi kunda ta’lim jarayonini to‘g‘ri va samarali tashkil qilishda innovatsion texnologiyalar, texnik vositalarning, jumladan, zamonaviy kompyuterlarning o‘rni beqiyosdir. Dars mavzusiga oid multimedya, animatsiya, grafika, diafilm va videofilmlardan foydalanish dars jarayonini yana-da qiziqarli bo‘lishiga ko‘mak beradi, buning uchun esa o‘qituvchi o‘z ustida ishlashi va har bir darsga «men bugungi dars jarayoniga qanday yangilik bilan kirib, darsni qiziqarli tashkil qila olaman» deya o‘ziga savol berishi ya’ni, an’anaviy ta’limdan qochib, noan’anaviy ta’lim berishga intilishi lozim. Ma’lumki, ta’lim bu o‘qituvchi va o‘quvchilarning hamkorligidagi faoliyat turi bo‘lib, dars orqali o‘qituvchi o‘z bilimi, ko‘nikma va malakalarini mashg‘ulotlar vositasida o‘quvchilarga yetkazadi, o‘quvchilar esa uni o‘zlashtirib olishi natijasida undan foydalanish kompetensiyalariga ega bo‘ladi. Yangi bilimlarni o‘rganish jarayonida esa o‘quvchilar o‘zlashtirishning turli ko‘rinishlaridan foydalanishlari tabiiy hol masalan, ma’lumotlarni qabul qilish, ularni qayta ishslash hamda amaliyotga tatbiq etish kabi jarayonlarda amalga oshadi. Hozirgi kunda umumta’lim maktablarida zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini takomillashtirish, ta’lim jarayonida zamonaviy texnologiyalar imkoniyatlaridan to‘laqonli foydalanish eng muhim ko‘rsatkichlaridan biri ekanligi yetuk pedagog olimlar tomonidan e’tirof etilganligi xech kimga sir emas. Jumladan, U.Sh.Begimkulov ta’lim jarayonida hozirgi zamon talablariga javob bera oladigan kompyuter axborot muhitini yaratish hamda ta’lim jarayonida multimedia, o‘qitishda immitatsiya, zarur axborotlarni kompyuter texnikasi yordamida kiritish, tizimlashtirish, saqlash va foydalanish uchun tavsiya qilinadigan ma’lumotlar bazasini yaratishni taklif etadi. Mamlakatimizdagi deyarli barcha umumta’lim maktablari zamonaviy kompyuter va telekommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlangan. Bu esa, o‘z navbatida, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarning o‘z mehnat faoliyatlariga yangicha yondashuvlarini talab etadi. Boshlang‘ich sinf darslari o‘quv jarayoniga yangi texnologiyalarni joriy etilishi, o‘qituvchini texnik vositalar tomonidan siqib chiqishiga emas, balki yangicha yondashuv orqali uning vazifasi va rolini o‘zgartirib, o‘qituvchilik faoliyatini yana-da serqirra, ijodiy va kreativ yondashuvga asoslangan

kasbga aylantiradi. Zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida dars jarayonini tashkil etishda o‘qituvchi dastlab: - darsning maqsadi; - maqsadga erishish yo‘llari; - o‘quv materiallarini taqdim etish usullari; - o‘qitish metodlari; - o‘quv topshiriqlarining turlari; - muhokamalar uchun savollar; - munozara va bahslarni tashkil etish yo‘llari; - o‘zaro aloqa usullari va kommunikatsiya singari omillarni aniqlab olishi lozim bo‘ladi. Ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilarni aqlan va ruhan yetuk insonlar qilib tarbiyalashda, milliy urf-odatlarimiz, qadriyatlarimiz mohiyati bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishda ularda buyuk ajdodlarimizning boy ma’naviy me’roslarini o‘rganishda kompyuter va axborot texnologiyalaridan foydalanish muxim rol o‘ynaydi. Kompyuter va axborot texnologiyalari vositalari orqali pedagog xodimlar hamda o‘quvchilar juda ko‘p miqdorda ma’lumotlarni olish, izlash qayta ishslash va o‘zlashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Albatta, ta’lim muassasalarida yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish. O‘quv mashg‘ulotlarini yangi interfaol usullar, zamonaviy vositalar ya’ni axborot texnologiyalari vositalaridan foydalangan holda o‘tkazish, jumladan, dars mashg‘ulotlarida multimediani qo‘llash, internet tarmog‘idan foydalanish shubhasiz o‘z samarasini beradi. O‘qituvchi zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan foydalanish orqali quyidagi bir qancha vazifalarni amalga oshirishi mumkin: - boshlang‘ich sinflarda multimedia texnologiyalarini qo‘llash orqali o‘quvchilarda fanga qiziqishi rivojlanadi; - ta’limning bunday usuli o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini faollashtiradi va o‘quv materialini o‘zlashtirilishining samaradorligi yana-da oshadi; - namoyish qilinishi qiyin yoki murakkab bo‘lgan jarayonlarni modellashtirish va ko‘rish imkoniyatini beradi; - o‘quv materiallarini o‘zlashtirilishi faqat darajasiga ko‘ra emas, balki o‘quvchilar erishgan mantiq va qabul qilishlarining darajasiga ko‘ra ham samarali hisoblanadi; - o‘quvchilarga mustaqil izlanish yo‘li bilan materiallarni izlash, topish hamda muammoli masalalarga javob topish orqali ma’lum tadqiqot ishlarini bajarish uchun imkoniyat yaratiladi; - o‘quvchilarning yangi mavzuni o‘zlashtirishi, misollar yechishi, insho, bayon yozish ishlarida, o‘quv materiallari bilan mustaqil tanishish, tanlash va axborot hamda ma’lumotlarni tahlil etish kabi masalalarni tez bajarish uchun sharoit yaratiladi. Hozirgi kunda ta’lim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayonida qo‘llashga bo‘lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday bo‘lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an’anaviy ta’limda o‘quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o‘rgatilgan bo‘lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o‘zlari qidirib topish, mustaqil o‘rganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqarishga o‘rgatadi. O‘qituvchi bu jarayonda shaxs rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo‘naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Boshlang‘ich ta’limga zamonaviy axborotlar texnologiyalarini tatbiq etish o‘quv mashg‘ulotlarining

samaradorligini oshiribgina qolmay, ilm-fan yutuqlarini amaliyotda qo'llash orqali mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, har tomonlama barkamol yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir o'qituvchi ijodkor bo'lishi kerak, u har bir o'quv soatiga puxta tayyorlanib yangilik bilan kirishi kerak, chunki har darsda takrorlanadigan bir xillik o'quvchini darsga va fanga qiziqishini susaytiradi, natijada dars samaradorligining pasayishiga olib keladi. Axborot texnologiyalarining o'qituvchi va o'quvchi uchun ahamiyatli jihatlari quyidagilar: ✓ o'quvchining diqqatini jamlash; ✓ ma'lumot to'g'risidagi tasavvurni kengaytirish; ✓ izlanuvchanlik, ijodkorlik va mustaqil faoliyatga kirishish; ✓ o'z-o'zini baholash. O'qituvchi faoliyatida axborot texnologiyalardan foydalangan holdagi darslarning o'rni quyidagilarda aks etadi: ✓ vaqtini to'g'ri taqsimlash; ✓ o'quv materiali mazmun-mohiyatining yorqin va ishonarli bo'lishini ta'minlash; ✓ berilayotgan axborot ko'lmini oshirish; ✓ o'quv topshirig'ining turlarini kengaytirish; ✓ sog'lom raqobat, ijodiy muhitni yuzaga keltirish; ✓ kasbiy malakani muntazam oshirib borish. Kompyuter dasturi orqali oddiy didaktik materiallar tayyorlashda va ularni kompyuter sinflarida o'tiladigan darslarda o'quvchilarga mustaqil ishlash uchun taqdim etish mumkin. Bunday didaktik material izohli matn sifatida, rasmlar bilan bezalgan holda, nazorat savollari bilan o'quvchilarga beriladi va o'quvchilar tomonidan bajarilishi nazorat qilinadi. O'qituvchi faoliyatida eng muhim jihatlardan biri bu o'quvchilarning bilimini baholab borishdir. Barcha umumta'lim fanlarining turli bo'limlariga oid nazorat testlarini kompyuter yordamida tuzish mumkin. Bugungi kunda O'zbekistonda ham ta'lim jarayonida didaktik vosita sifatida foydalilanadigan dasturlarning maxsus bozori shakllanmoqda. Hozirda umumta'lim darslarida foydalanishi mumkin bo'lgan internetga joylashtirilgan ko'plab dasturlar mavjud. Bular sirasiga birinchi navbatda elektron darsliklarni kiritish mumkin. Kompyuter texnologiyalari turli xil interaktiv xarakterdagi topshiriqlardan foydalanish imkoniyatini beradi. Masalan, o'quvchilar voqealarni xronologik ketmasetlikda joylashtirish, fanga oid atamalar va tushunchalarni to'g'ri izohlash yoki o'ng va chap qatordagi atamalar va ularning ma'nosini mos ravishda strelka bilan ko'rsatish yoki berilayotgan mavzudagi tayanch so'zlarni to'ldirish, test topshiriqlarini bajarish, krosvordlarni yechish kabi topshiriqlarni qanday bajarganliklarini katta ekranda multimedia yordamida tushirilgan javoblar bilan taqqoslab, bilib borishlari mumkin bo'ladi. O'qituvchi dars jarayonida kompyuter yordamida mavjud materiallarni turli xil shaklda: slaydlar, video va audio parchalar diagrammalar, jadvallar, musiqiy ko'rinishlarda taqdim etiladi. Kompyuter yordamida dars jarayonini tashkil etilishi o'quvchilar tasavvuri va xotirasiga kuchli ta'sir qilib, eslab qolish jarayonini osonlashtiradi, darsni qiziqarli jarayonga aylantirib, o'quvchilarni u yoki bu tarixiy davrga olib kirish va voqealar ichida go'yoki ishtirok etish imkonini beradi. Bugungi kun ta'limi o'qituvchidan ilg'or pedagogik va yangi

6. Abdurazkova S.Kh. Kompleksnaya resursosberegayushchaya ekologicheski chistaya tekhnologiya pererabotki topinambura s utilizatsiyey otkhodov i zelennoy massy [Integrated resource-saving environmentally friendly processing technology of Jerusalem artichoke with waste management and green mass]. *Kimyo va kimyo texnologiyasi*, 2011, no. 3, pp. 49-54.
7. Ibramdzhi Zh., Flaumenbaum B. L., Kvasenkov O. I. *Sposob proizvodstva fruktoznogo siropa iz topinambura*. [The method of production of fructose syrup from Jerusalem artichoke]. Patent RF, no. 2493261, 2013.
8. Ogneva A. N. *Razrabotka tekhnologiy fruktovo-ovoshchnykh produktov bifodogennymi svoystvami. Diss. dok. tekh. nauk* [Development of technologies of fruit and vegetable products with bi-pathogenic properties. Dr. tech. sci. diss.]. Krasnodar, 2015. 159 p.
9. Gamayurova V.S., Rzhechiskaya L.E. Pishchevaya khimiya. *Laboratornyy praktikum*. [Food chemistry. Laboratory workshop]. St. Petersburg, GIORD, 2006, 137 p.

## ДИСКУРСИВ МУЛОҚОТ ЖАРАЁНИДА ПРАГМАТИК МАЗМУН

Абдурашидов Давронбек Олимжон ўғли  
АДУ Лингвистика йўналиши  
2-босқич магистранти

**Аннотация:** Мақолада прагмалингвистикага оид баъзи маълумотлар, аниқроқ айтганда, дискурсив мулоқот жараёнида прагматик мазмун тўғрисида фикрлар айтиб ўтилган. Шунингдек, соҳа бўйича олимларнинг фикрлари асос сифатида келтирилган.

**Калит сўзлар:** тил, мулоқот, прагматика, прагматик мазмун, нутқий вазият, дискурсив мулоқот, семантика.

**Аннотация:** В статье приводится некоторая информация по прагмалингвистике, а точнее, мнения о прагматическом содержании в процессе дискурсивного общения. В качестве основы также приводятся мнения ученых в этой области.

**Ключевые слова:** язык, общение, прагматика, прагматическое содержание, речевая ситуация, дискурсивное общение, семантика.

**Annotation:** the article mentions some information on pragmalinguistics, more precisely, opinions about pragmatic content in the process of discursive communication. Also, the opinions of scientists in the field are presented as the basis.

**Keywords:** language, communication, pragmatics, pragmatic content, speech situation, discursive communication, semantics.

Тил бирликларининг прагматик имкониятлари нутқий вазият, коммуникантларнинг тилдан фойдаланиш кўнималари ва нутқ объекти ҳақидаги умумий билимлари билан боғлиқ ҳолда юзага чиқади. Дискурсив мулоқот жараёнида прагматик мазмуннинг англанишида нутқий вазиятга доир объектив ва субъектив омиллар ҳам иштирок этади. Муҳими, ушбу мазмун воқеланишини таъминловчи етакчи омиллар дискурсда фаоллашади. Умуман, “прагматика тилнинг амалий қўлланиш жиҳатларини нутқий вазият билан яхлитлиқда ўрганади.”<sup>1</sup>

Исталган тил сатҳига оид бирликларни семантик нуқтаи назардан ҳам, прагматик нуқтаи назардан ҳам таҳлил қилиш мумкин. Р. Карнап уларнинг фарқланиши субъект масаласига боғлиқ эканини таъкидлайди: агар биз эътиборни тилдан фойдаланувчи инсон омили (коммуникантлар)га қаратсак, бу прагматика соҳасига тегишли бўлади. Агар биз тилдан фойдаланувчилардан

<sup>1</sup> Мирсанов Ф. Қ. Аспектуаллик ва темпораллик мазмуни ифодасининг когнитив-прагматик асослари: Филол. фанлари доктори (DSc) ... дисс. автореф. – Т., 2019. – 21 б.

чалғиб, фақат ифода ва унинг десигнатларини тадқиқ қылсак, семантика доирасида иш кўрган бўламиз.<sup>2</sup>

Масалага оид қараашларнинг ривожланиб бориши натижасида уларнинг ўзаро алоқадорлиги, яъни ушбу ёндашувларнинг узвий боғлиқлиги асосида тадқиқ этиш усули эътироф этила бошлади. Семантика – прагматика қарама-қаршилигига семантик талқин сўзниг муайян маъносини умумлаштириб таърифласа, прагматик талқин луғавий бирликнинг контекстдаги функционал фаолиятини акс эттиради. Кўриниб турибдики, сўзниг маъноси асос маънони ифодаловчи семантик қисмдан ва унинг нутқда ишлатилиши билан боғлиқ прагматик қисмдан иборат эканлиги аён бўлади.

“Прагматика” атамасини дастлаб Ч. Моррис илмий муомалага киритади. **Прагматика** грекча “прагмос” сўзидан олинган бўлиб, “иш”, “харакат” маъноларини беради. Прагматика лингвистик белгиларнинг нутқдаги функционал қўлланишини ўрганади. Шунинг учун тилшуносликнинг бу йўналиши семиотика тармоқларидан бири саналади.<sup>3</sup>

Прагматика – белгининг инсонга таъсири, унинг (инсоннинг) фикрлаш услугига, ахлоқига, ҳис-туйғусига таъсирини ҳамда нутқий акт (гапнинг мазмуний компоненти)нинг бевосита контекст билан муносабатини ўрганади. Нутқий акт, индикатив бўлмаган сўзлар, контекст, нутқий вазият, сўзловчи шахси каби тушунчалар лингвистик прагматиканинг марказий тушунчаларидир.<sup>4</sup> “М. Ҳакимовнинг “Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини” мавзусидаги докторлик диссертациясида *нутқий акт назарияси, локутив, иллокутив, перлокутив* актлар, *тагбилим* ва *тагмаъно* сингари масалалар юзасидан ўзбек тилшунослиги тарихида илк марта фикр-мулоҳазалар юритилган эди.”<sup>5</sup>

Прагматика ғоялари XX асрнинг 60-70-йилларида Ч. Пирс, Р. Карнап, Ч. Моррис, Л. Витгенштейнларнинг фалсафий ва семиотик тушунчалари таъсирида ривожлана бошлади. Пирснинг жуда ноанъанавий ва ўқиш қийин бўлган шаклда, шу билан бирга, гуманитар фанлар олимлари доирасидан узокда бўлган нашрларда тақдим этилган семиотик ғояларини 1930-йилларда америкалиқ бошқа бир файласуф олим Ч. Моррис ўз фундаментал асарида қайта ишлаб, семиотика структурасини белгилаб берди.<sup>6</sup> Ч. Пирс таклиф қилган семиотик тизим маълум даражада изчил ва мантикий яхлитликка эга.

<sup>2</sup> Қаранг: Бутяева О. Г. Прагматические аспекты функционирования слова в эрзянском языке: Автореф. ...дисс. канд. фил. наук. – Саранск, 2007. – С. 6.

<sup>3</sup> Ҳакимов М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. – Т.: Akademnashr, 2013. – Б. 6.

<sup>4</sup> Ҳакимов М. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини: Филол. фан. док-ри ...дисс. автореф. – Т., 2001. – Б. 26.

<sup>5</sup> Нурмонов А. Имманентликдан когнитивликка / Ўзбек тили ва адабиёти. – Т., 2009. – № 6. – Б. 104-107.

<sup>6</sup> <http://philologos.narod.ru/semiotics/semiotics.htm>

Мантиқшунос Ч. Моррис Ч. Пирснинг 60 турдаги белгилардан иборат тизимини ўта ихчамлаштириди ва универсал белгилар моделини яратди.<sup>7</sup>

Ч. Пирс семиотика доирасида уч илмий соҳа: синтаксика (ёки синтаксис), семантика ва прагматикани мустақил йўналишлар сифатида ажратди. Унинг таърифича, синтаксика “белгиларнинг ўзаро синтактик муносабатларини уларнинг объект ёки интерпретатор – тавсифловчига бўлган муносабатидан ажратган холда ўрганишдир”, семантика эса “белгиларнинг ўз десигнатлари, яъни улар воситасида ифодаланаётган объектга бўлган муносабатини” таҳлил қиласи ва, ниҳоят, прагматика “белгининг ундан фойдаланувчи – интерпретаторга нисбатан муносабатини ёритувчи фандир.”<sup>8</sup> Белгининг умумий назариясига амалий ва коммуникатив фаолиятда субъект омилини ҳисобга олиш кераклигини (белги жараёни **семиозис** сифатида намоён бўлади) биринчи бўлиб Ч. Пирс қайд этди.<sup>9</sup>

Диққат марказига белги тушунчаси қўйилди. Бунда белгилар ўз-ўзидан ҳосил бўлмаслиги ва субъект фаолиятисиз объектларнинг алоҳида гурухлари шаклланмаслиги таъкидланди. Улар семиозис жараёнида ҳосил бўлади. Семиотик жараёнсиз, яъни **интерпретатор** фаолиятисиз белгиларнинг уч томонлама муносабатисиз белги бўлмайди.

### Адабиётлар:

1. Нурмонов А. Имманентликдан когнитивликка / Ўзбек тили ва адабиёти. – Т., 2009. – № 6. – Б. 104-107.
2. Ҳакимов М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. – Т.: Akademnashr, 2013.
3. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Т., 2008.
4. Сусов И. П. Лингвистическая прагматика. – Винница.: Нова Книга, 2009.
5. Мирсанов Ф. Қ. Аспектуаллик ва темпораллик мазмуни ифодасининг когнитив-прагматик асослари: Филол. фанлари доктори (DSc) ... дисс. автореф. – Т., 2019.
6. <http://philologos.narod.ru/semiotics/semiotics.htm>

<sup>7</sup> Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Т., 2008. – Б. 42.

<sup>8</sup> Сафаров Ш. Ўша асар. – Б. 44.

<sup>9</sup> Сусов И. П. Лингвистическая прагматика. – Винница.: Нова Книга, 2009.

IQBOL MIRZO ASARLARIDA YUKLAMALAR ORQALI  
KONNOTATIV MA'NONING HOSIL QILINISHI

*Amir Hamza Jo'rayev Fuzliddin o'g'li.  
Shahrixon tumani 26-umumta'lim maktabi  
ona tili va adabiyot o'qituvchi.  
Go`zaloy Jo`rayeva Odiljon qizi  
Shahrixon tumani 64-IDUM  
ona tili va adabiyot o'qituvchi.*

**Annotatsiya:** ushbu maqolada yuklamalarning she'riy nutqda qo'llanilishidagi o'ziga xosliklar tadqiq etilgan. Shu bilan birga, yuklamalarning poetik nutqda konnotativ ma'noning hosil qilishdagi o'rni qay tarzda ekanligi yoritilgan.

**Kalit so`z:** yuklama, ekspressiv bo'yoq, inversiya, denotativ ma'no, konnatativ ma'no, leksema, takror.

**Аннотация:** В данной статье исследуются особенности использования предлогов в поэтической речи. При этом освещается роль нагрузок в формировании коннотативного значения в поэтической речи.

**Ключевое слово:** нагрузка, выразительная окраска, инверсия, денотативное значение, коннатативное значение, лексема, повторение.

**Annotation:** this article examines the peculiarities of the application of loadouts in poetic speech. At the same time, it is illuminated in what way the place of burdens in the formation of connotative meaning in poetic speech is.

**Keyword:** loading, expressive coloring, inversion, denotative meaning, connotative meaning, lexeme, repeat.

Yordamchi so'zlar – ko'makchi, bog'lovchi, yuklamalar tilimizni, uning cheksiz imkoniyatlarini yana ham boyroq, ifodalarimizni yana ham aniqroq va go'zalroq qilishning asosiy vositalaridandir.

Ma'lumki, tilshunoslikda yordamchi so'zlar alohida kategoriyanı tashqil qiladi va maxsus o'rganiladi. Yordamchi so'zlarning umumiyligi funksional belgisi sifatida ularning "bog'lash"lik xususiyatini olishimiz mumkin. Shu belgi asosida ko'makchi, bog'lovchi, yuklamalar so'z va gaplarni bir-biriga bog'lash uchun xizmat qiladi. Ammo bu vazifa bog'lovchi va ko'makchilar uchun o'zgarmas va barqaror sanaladi. Yuklamalarning o'ziga xos xususiyati shundaki, ular so'z yoki gaplarga so'roq, ta'kid, kuchaytiruv, ayirish-chegaralash, o'xshatish kabi qo'shimcha ma'nolarni yuklash uchun xizmat qiladi va funksional "bog'lash" belgisiga nisbatan beqaror, o'zgaruvchan sanaladi, ya'ni "bog'lash" belgisi bo'lishi ham, bo'lmasisligi ham mumkin. Masalan, **na-na** yordamchisi teng bog'lovchilarning bir turi sifatida inkor bog'lovchisi sanalib kelingan. "Inkor yuklamasi na-na inkor bog'lovchisidan kesimining bo'lishli yoki

bo‘lishsiz shaklda ekanligi bilan farqlanadi: kesimi tasdiq shaklda bo‘lsa bog‘lovchi, kesimi inkor shaklda bo‘lsa yuklama.”<sup>1</sup>

G‘.Abdurahmonov esa ushbu vositani inkor bog‘lovchisi deb atash bilan birga, yuklamalik xususiyatiga ega ekanligini ham aytib o‘tadi. Bu holat o‘zbek tilshunosligida ko‘plab munozaralarga sabab bo‘ladi. Biroq keyingi yillardagi darsliklarda bu yordamchi inkor yuklamasi deb ko‘rsatila boshlandi. Bu bahs-munozarali fikrlarga R.Rasulov o‘z tadqiqoti bilan ma’lum ma’noda chek qo‘ydi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Tilshunos olim bu yordamchi vositani uyushgan bo‘laklar va qo‘shma gap tarkibida kelishini keng miqyosda tahlil etib, bunday qo‘llanishlarda bog‘lash vazifasini maxsus bog‘lovchi vositalar amalga oshirishi, na...na yordamchisi esa ta’kidli inkorni ifodalashga xizmat qilishini aniq misollarda ko‘rsatdi, uning ham...ham va boshqa yordamchi vositalar bilan paradigmatic aloqalarini tavsifladi. Xulosa qilib aytish mumkinki, bu tadqiqotlardan keyin na...na yordamchi birligining yuklamaligini inkor qilishga asos qolmadidi. Faqat shuni ta’kidlash kerakki, “bu yordamchi so‘zning birlamchi substansial vazifasi yuklamalik bo‘lsa, ikkilamchi vazifasi bog‘lashga xizmat qilishidir.”<sup>2</sup>

Ushbu yordamchi birlikning bizning tadqiqotimiz uchun muhim bo‘lgan yuklamalik xususiyatlarini, qanday konnataiv ma’nolarni ifodalab kelishini badiiy matn asosida ko‘rib chiqamiz. Iqbol Mirzo o‘zining qator she’rlaridan **na... na** yordamchi birlikni qo‘llaydi va u orqali asarini o‘zgacha emotsiyal bo‘yoq bilan bo‘yashga erishadi:

Huvillagan dunyo, huvillagan qalb,  
Na quvonch, **na** rayhon, **na** g‘am, **na** yalpiz...  
Qip-qizil qumlarni kechdim yuz yillab,  
O‘zim bilan o‘zim yashadim yolg‘iz. (I.76-bet)

Ko‘plab lirik asarlarda kesimning holati ochiq-oydin ifoda etilmaydi. Bu inversiya, yoki shu singari sabablar tufayli hosil bo‘ladi. Yuqorida keltirgan misolimizda esa asarning birinchi misrasidayoq harakatning bo‘lishsiz shaklda ekanligi anglashiladi. Shoир misrada **na...na** yuklamasi orqali emotsiyal-ekspressivlikni yuqori darajaga ko‘tarish bilan birga undagi tanlab olingan so‘zlarni o‘zaro zidlash orqali ham asar ta’sirchanligini yanada oshirmoqda. Shu birgina misra orqali ham o‘xshatish, ham zidlash ma’nolari hosil qilinmoqda. Ya’ni, quvonch rayhonga, g‘am esa yalpizga o‘xhatilayotgan bo‘lsa, quvonch va g‘am, rayhon va yalpiz o‘zaro qarama-qarshi ma’noda qo‘llanilmoqda.

Ko‘rib turganimizdek, yuklama orqali ifodalangan inkor ma’nosи oddiy bo‘lishsiz shakldagi inkordan ko‘ra ancha kuchli va ta’kidlidir. Shu bois, u badiiy matn tarkibida o‘ta salmoqli konnotativ man’nolarni hosil qilib kela oladi.

<sup>1</sup>Erkaboyeva N. O‘zbek tilidan ma’ruzalar to‘plami. T.: Akademnashr. 2015. 245

<sup>2</sup>Расулов Р. Узбектилида ёрдамчисузларнинг семантик-грамматикхусусиятлари. – Т. Фан. 1983.79-6

Yuklamalar boshqa yordamchi so‘zlarga nisbatan konnotativ ma’no qiyematining yuqoriligi bilan farqlanadi. Masalan **-dir** yuklamasi lisoniy vositalarga qo‘silgandagumon ma’nosini voqelantiradi va u so‘zlashuv, badiiy uslubga xosligi, o‘z lisoniy imkoniyatlarini voqelantirishi uchun ana shunday qulay vaziyat bo‘lishini taqazo qiladi. **-dir** yuklamasi so‘roq olmoshlari, otlar, ko‘makchilar bilan qo‘llanilishi yoki har xil grammatik (son, daraja, egalik, kelishik v. b.) shakllarda kelishi mumkin. She’riy shakldagi matnda ko‘proq so‘roq olmoshlari bilan birgalikda qo‘llanilganligining guvohi bo‘lamiz:

Qizlar... gapirmayman ular haqida,  
Ularga she’r kerak, kerakmas shoir.  
**Kimgadir** yig‘lagim kelar gohida...

Xayr, qaytayotgan turnalarim, xayr!(II.121-bet)

Bu misralardagi shoir iztirobini ifodalovchi satrlarda **-dir** yuklamasi orqali gumon ma’nosini bilan birgalikda, yolg‘izlik, dardmandlik ma’nolari ham anglashiladi. Shu o‘rinda yuklamaning konnotativ ma’noni yuzaga chiqarishda ahamiyati yaqqol namoyon bo‘ladi.

“Ayrim yuklama affikslar morfologik affikslar yordamida hosil qilingan gap modeliga qo‘sishimcha kommunikativ (nutqiy) ma’nolar berish uchun xizmat qiladi. Boshqacha aytganda, morfologik affikslar gap ichi qurilishi uchun, ayrim affiks yuklamalar gap qurilmasini kontekstga bog‘lash, unga kontekstual, qo‘sishimcha ma’nolar berish uchun xizmat qiladi.”<sup>3</sup>

Bir kun bizni maktab yig‘lab kuzatdi,  
**Sochilib ketdik-ku**, to‘ptoshlar kabi. (II.102-bet)

Yuqorida ifodalanayotgan fikrning oddiy shakli: to‘ptoshlar kabi sochilib ketdik. Ta’kidlov yuklama affaksi **-ku** ushbu oddiy modelga qo‘sishimcha konnotativ ma’no bermoqda. Natijada fikriy ifodada kuchli ta’kid, kuchaytirish ma’nolari orqali emotSIONallik oshirilmoqda. Yana bir shu fikr isboti uchun Iqbol Mirzo ijodidan misol:

Axir “Sevaman”, deb chekkan-ku yohu  
Har sevgifurush qadimdan qadim.(II.33-bet)

An’anaviy tilshunoslikda til va nutq farqlanmaganligi, gap qolipi aniqlanmaganligi uchun ta’kidlov yuklamasining vazifasi – qo‘sishimcha ma’nosini morfologik affiksning qo‘sishimcha ma’nosidan aytarli farq qilmagan. Tushinarliroq qilib aytganda, ta’kidlov yuklamasining ma’nosini aniqlashda morfologik shakl ma’nosini aniqlashga o‘xhash yo‘l tutilgan. Masalan: “ta’kid yuklamasi so‘z ma’nosini ta’kidlaydi hamda so‘z ma’nosini kuchaytiradi” singari. Shunday ekan, so‘z ma’nosini ta’kidlash, shu gapni kontekstga bog‘lash, gapning ma’um bir bo‘lagi orqali jumlaga qo‘sishimcha ma’no va mazmun berish bo‘lgan. Til va nutq dixatomiyasi gap qolipi, matn kabi tayanch tushunchalar va matnni o‘rganish metodlari asosidagina

<sup>3</sup> Isaqov Z. Yuklama va affikslar munosabati. O‘zbek tili va adabiyoti.2020. №4. 115-b.

kuchaytiruv ta'kid yuklamalarining funksional tabiatini ochish mumkin. Darhaqiqat, har qanday birlikning asl funksional tabiati ochilsagina uning qo'shimcha konnotativ ma'nosini to'laqonli ochish mumkin.

Affiks yuklamalar orasida **-mi** so'roq yuklamasi alohida ahamiyatga ega. U tilshunoslikda yuklamalardan tashqari qo'shimcha ko'plab vazifalarni bajarib keladi. "Bu yuklama shaklan affiksga o'xshasa ham, aslan affikslardan vazifasidan keskin farqlanadi. Masalan, bu yuklama gap turi( so'roq gap) hosil qilish vazifasini bajaradi. Masalan, darak gapdan so'roq gap hosil qiladi. *Amakim kelgan – Amakim kelganmi?* - mi affiks-yuklamasining ushbu ma'nosi ya'ni funksiyasi nutq, kommunikativ sintaksis bilan bog'liq. An'anaviy morfologiya gap ichidagi so'z shakllari, morfologik affikslar bilanshug'ullanganligi uchun-mi yuklamasiga "qo'shimcha ma'no beruvchi" yordamchi sifatida yondashilgan. Xolbuki, -mi affiks-yuklamasining so'zga( masalan, darak gapga) berayotgan ma'no tabiati butunlay boshqacha tabiatga ega: u gapning yangi mazmun turini hosil qiladi."<sup>4</sup>Darhaqiqat, ushbu yuklama orqali nafaqat oddiy nutqda, balki poetic nutqda ham yangicha mazmun hosil qilishda keng qo'llaniladi. - mi affiks-yuklamasi ham mazmunan, ham shaklan she'riy asar konnotatsiyasini oshirishga xizmat qiladi:

Adashdimmi, toldimmi,

Zulmatlarga qoldimmi?

To'g'ri yo'lga sol endi,

Ey, ko'zлari axtarim!

Ko'rib turganimizdek, bu birlikni badiiy matnda qo'llash orqali barcha tomonidan emotsional-ekspressivlik ortmoqda.

Opa, xotiradir u kunlar, opa,

Opa, u kunlarga bugun intiqman.

Bugun xatolarim qilmasmi xafa,

Chiqib ketmadimmi to'g'ri chiziqdan?!

Bu o'rinda shoir aynan, fikriy ifodasini so'roq ohangida berish orqali ichidagi bor gaplarini, xasratlarini to'kayotgandek. Shu xasratlarni konnotativ ma'no deyishimiz mumkin. Bu so'roq ohangi yuqorida aytib o'tganimizdek, albatta, **-mi** affiks yuklamasi yordamida hosil qila oladi, xolos.

Quyida keltirilgan misralarda esa **-mi** yuklamasi ifodaga qarama-qarshi fikrning yetkazilishiga xizmat qilmoqda:

Ko'ngli siniq edimmi,

Ko'ksi tiniq edimmi,

O'z boshimni yedimmi,

Xafa bo'lma, ho'p, jonim.(1.111-bet)

---

<sup>4</sup>Isaqov Z. Yuklama va affikslar munosabati. O'zbek tili va adabiyoti.2020. №4. 115-b.

She'rni boshdan oyoq o'qisak, ya'ni kontekst bilan to'liq tanishib chiqsak, bu misralardagi konnotativ ma'noni anglashimiz judayam oson. Asosiy ifodalanayotgan ma'no kechirim so'rash bo'lgan ushbu asarda **-mi** yuklama affiksi yordamida mazmunan so'roq orqali kuchli tasdiq, afsus-nadomat angalachilmoqda. Ko'ngli siniq bo'lmanaganman, bag'ritoshman/ ko'ksim tiniq emas edi, ichiqora insonman/ shu boisdan o'z boshimni o'zim yedim/ xafa bo'lma, fikrlari ilgari surilmoqda. Mana shuni haqiqiy konnotativ ma'no desak, mubolag'a bo'lmaydi. Bu holat ritorik so'roq gaplar bilan ham bog'liq. Bu masala tadqiqotimizning keying boblarida yoritilganligi uchun hozir alohida to'xtalib o'tirmaymiz. Ayni vaqtida **-mi** so'roq yuklamasining konnotativ ma'no ochib berishdagi roli biz uchun ahamiyatlidir. Demak, yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib aytalarni olamizki, birgina affiks yuklama butun boshli gapning ma'nosiga qo'shimcha ma'no yuklab, kuchli konnatatatsiya hodisasini yuzaga chiqara olar ekan.

#### **Adabiyotlar:**

1. Mirzo. I. ko`zlaringga termulsaydim. – T.: Sharq, 2020.
2. Sayfullayeva R. Hozirgi o`zbek adabiy tili. T.2009.
3. Umrqulov B. poetic nutq leksikasi. – T. : Fan. 1990.
4. Yo`ldoshev M. badiiy matn lingvopoetikasi. T.: Fan. 2008.
5. O`zbek tilining izohli lug`ati. 2-5-jildlar. O`zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008.
6. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o`zbek adabiy tili. T.: O`zbekiston.1992.

## ИНСОН ҚОБИЛИЯТИНИ РИВОЖЛАНИШИНГ ДАРАЖАЛАРИ

**Насиров Илхам Закирович-** т.ф.н., доцент.

*Андижон машинасозлик институти*

**Қобилият-** инсоннинг индивидуал салоҳияти ва имкониятларири. Қобилият шахснинг психологияк ва физиологияк тузилишининг хусусияти саналади. Қобилият- қўникма ва малакадан фарқ қиласи. Қобилият инсон томонидан қўникма ва малакаларнинг эгалланиши жараёнида такомиллашиб боради. Қобилиятнинг етакчи хусусиятларидан бири- нарса ва ҳодисалар мөҳиятини ижодий тасаввур қилишdir [1,2]. У шахснинг шаклланиши ва ривожланиши натижаси бўлиши билан бирга, табиий манбага ҳам эга. Бу табиий манба қўпинча зеҳн тушунчаси билан юритилади. Зеҳн муайян бир фаолиятга ёки кўргина нарсаларга нисбатан ортиқча қизиқувчанлиқда, мойилликда, интилишда намоён бўлади. Зеҳн- иштиёқ, мойиллик, меҳнатсеварлик, ишchanлик, талабчанлик кабиларнинг маҳсулидир.


Қобилиятни такомиллаштиришнинг маҳсус воситаларини қўллаш, шахснинг фаоллик алматларини максимал даражада ривожлантириш, инсон шахсига алоҳида ёндашувни умумий талаблар билан уйғунликда олиб бориш ва бошқалар орқали ривожлантириш йўллари мавжуд. Қобилиятнинг юқори даражаси истеъдод ва даҳоликда намоён бўлади. Қобилиятнинг ривожланиш даражалари қуидагилардан иборат:

- Иқтидор;
- Истеъдод;
- Даҳолик [3,4].

Умумий қобилиятлар кўпинча иқтидорлилик деб аталади. Иқтидорлилик ҳаётнинг турли турларида намоён бўлиши мумкин: ўқиш, ишда, ижодий фаолиятда, ижтимоий соҳада (етакчилик, мулоқотда), руҳий ҳаётда, ҳаракатланишда. Иқтидорли одамлар дикқатлилик, теранлик, навбатдаги фаолиятга тайёрлик билан ажralиб туради. Улар мақсадга эришишда қатъиятлилик, меҳнатга бўлган иштиёқ ва ўртacha даражадан юқори ақл- заковат билан ажralиб туради [5-8].

Иқтидорлилик- бу одамда қобилиятларни ривожлантириш учун аниқ мойилликларнинг мавжудлигидир.

Иқтидор- фаолият турини танлаш ва муваффақиятни таъминлайдиган ягона омил эмас. Инсонда иқтидордан ташқари тегишли қўникма ва малака қобилиятларлари ҳам бўлиши керак. Иқтидор ва қобилиятларларни ривожлантириш татижасида инсонда ва истеъдод ва даҳолик юзага келади.



Истеъдод- маълум бир фаолият турида шахс қобилиятларини аъло даражадаги муваффақиятларга эришишини таъминлайдиган ривожлантиришнинг юқори даражасидир [8,9].

Яккалақ қўйилган қобилиятни, ҳатто жуда ривожланган қобилият бўлса ҳам уни истеъдод деб аташ мумкин эмас. Масалан, феноменал хотиранинг мавжудлиги. Тиббиёт амалиётида бирор нарсани эсдан чиқармайдиган, яъни бир неча кун олдин ўқиган мақоланинг мазмунини сўзма-сўз айтиб бера оладиган, лекин шу билан бирга ўзига хос бир фикрни ҳам ифода эта олмайдиган одам бўлганлиги таъкидланган.

Истеъдод- бу қобилиятларнинг маълум бир комбинацияси ва уларнинг мажмуйидир. Ҳар қандай қобилиятнинг нисбий заифлигини бошқа қобилият билан қоплаш мумкин. Коплаш- янги олинган билим ва кўнималар, ёки бошқа ривожланганроқ қобилият эвазига амалга оширилиши мумкин.

Қобилиятлар ривожланишининг энг юқори даражаси- даҳолик деб аталади. Канадалик олим Г.Леман кўплаб фактларни таҳлил қилиб, шоирда 26-30 ёшда, шифокорда 33-34 ёшда, санъаткорда 30-35 ёшда, ёзувчида 40-44 ёшда даҳолик уйғонади деган хulosага келди. Инсон ижодий ютуқлари билан жамият ҳаётида ва маданият тараққиётида юқори погонани эгалласа даҳоликка эришади. Тарих шуни кўрсатадики, инсоният тараққиёти даврида тўрт юзга яқин даҳони номларни келтириш мумкин [10-12].

Даҳолик- бу ҳар қандай қобилиятга эга бўлган шахсни ривожланишининг энг юқори даражаси бўлиб, уни тегишли соҳада ёки фаолият соҳасида ёрқин шахсга айлантиради.

Даҳо шахснинг ноёб кўриниши ва эксцентриклигининг табиатини тушунтиришга кўплаб уринишлар бўлган. Баъзилар маълум бир олий мавжудот юқорида туриб ўзининг ноёб фикрларини инсонга етказиб бериши эвазига даҳолар пайдо бўлади деб ҳисоблайди. Бошқалар- даҳонинг намоён бўлиши маълум руҳий касалликлар билан боғлиқ деб ҳисоблашади. Масалан, ижод

пайтида даҳонинг иситма ҳолати маник ҳаяжонга ўхшайди ва параноянинг характерли белгилари (егоцентризм, ўз-ўзини қадрлаш, ўз харакатларида ҳаддан ташқари қатъиятлилик, пушаймон бўлмаслик, битта фояга содиқлик) характерлидир. даҳо. Баъзи психологларнинг фикрича, инсон миясида жуда катта фойдаланилмаётган ортиқча табиий имкониятлар мавжуд ва даҳо шахс имкониятлардан тўлароқ фойдаланидир [13].

Даҳоликни тушунтиришнинг қийинлиги шундаки, бу тушунча ижтимоий тараққиётнинг ўзига хос хусусиятлари билан боғлиқ бўлиб, даҳолик бу тараққиётнинг навбатдаги ўсишнинг ўзига хос кўринишидир. Қайси даҳоликларнинг тўлиқ ривожланиш учун энг қулай шарт-шароитларга эга бўлиши давр эҳтиёжларига боғлиқ: давлатнинг жорий ривожланиши даврида муҳандислик ва конструкторлик дахоларининг намоён бўлишига олиб келади, давлатнинг гуллаб яшнаган даврида мусиқа ва адабий истеъодлар, уруш даврида эса- ҳарбий дахолар пайдо бўлади.

### Адабиётлар

1. Ефимова Н.С., Основы общей психологии. Уровни развития способностей: одаренность, талант, гениальность// [https://psyera.ru/urovni-razvitiya-sposobnostey-odarenost-talant-genialnost\\_7720.htm](https://psyera.ru/urovni-razvitiya-sposobnostey-odarenost-talant-genialnost_7720.htm)
2. Насиров Илхам Закирович. (2022). МУСТАҚИЛ ИШЛАРНИ ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ ШАКЛЛАРИ. *Conference Zone*, 327–332. Retrieved from <http://www.conferencezone.org/index.php/cz/article/view/867>
3. Насиров, И. З., Косимов, И. С., & Каримов, А. А. (2017). Морфологик тахлил" методини қўллаб ўт олдириш свечасини такомиллаштириш. *Инновацион технологииялар*, 3, 27-74.
4. Zakirovich, N. I. (2022). Parallel educational and scientific works in higher educational institution. *MASHINASOZLIK ILMIY-TEXNIKA JURNALI*, 517-522.
5. Насиров, И. З., & Капский, Д. В. На одного ребенка семь махаллы-родители!.... *Материалы*, 691-694.
6. Насиров Илхам Закирович. *ИЖОДКОРЛИККА ЁРДАМ БЕРУВЧИ ВА ТЎСҚИНЛИК ҚИЛУВЧИ ОМИЛЛАР // О'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali*, «BEST PUBLICATION» Ilm-ma'rifat markazi ©, 2022 14-SON, 605-611 б. <https://bestpublication.org/index.php/ozf/article/view/2489>.
7. НАСИРОВ ИЛХАМ ЗАКИРОВИЧ. ПАРАЛЛЕЛЬНОЕ ВЕДЕНИЕ УЧЕБНОЙ И НАУЧНОЙ РАБОТ В ВУЗЕ// PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS: a collection scientific works of the International scientific conference (17 January, 2023) - Copenhagen:2023. Part 19- p. 175-177.

8. Насиров И.З. YANGI G'OYALARNI ISHLAB CHIQISH//JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS VOLUME- 18 | ISSUE- 5 DECEMBER- 2022- <http://www.newjournal.org/> 49-56 б.
9. Sayidkamolov Islomjon Rakhmatullo ugli, Nasirov Ilham Zakirovich. SIMULATION OF THE PROCESS OF SELECTION OF THE OPTIMUM TYPE OF ROLLING STOCK FOR TRANSPORTATION OF MEDICINES TO THE CONSUMER// World Bulletin of Social Sciences (WBSS) Available Online at: <https://www.scholarexpress.net> Vol. 17, December,2022 ISSN: 2749-361X, 176-184 p.
10. Насиров Илхам Закирович, Тешабоев Улуғбек Мирзаахмадович. “ТУГАЛЛАНМАГАН ЖУМЛАЛАР” МЕТОДИНИ ҚЎЛЛАШ ЭВАЗИГА ЎТ ОЛДИРИШ СВЕЧАСИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ// O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMUY TADQIQOTLAR JURNALI, «BEST PUBLICATION» Ilm-ma'rifat markazi ©, 2022 14-SON, 590-598 б. <https://bestpublication.org/index.php/ozf/article/view/2487>.
11. Насиров И.З., Зокиров И.И. Обучение детей творчеству в семье// Международный научно-образовательный электронный журнал «Образование и наука в XXI веке». Выпуск №14 (том 3) (май, 2021). Дата выхода в свет: 31.05.2021. М.: ООО «Моя профессиональная карьера». с. 69-74.
12. Насиров И.З. Компьютерлаштирилган ўқитиш технологиясидан фойдаланиш// Fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasida raqamli iqtisodiyot istiqbollari. Respublika miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallari to'plami-Jizzax: O'zMU JF, 5-6-may 2021-yil. 368-bet., 137-141 б.
13. Насиров И, Камолдинов А. Ижодкорлик қобилиятининг шаклланиши//“Yangi materiallar texnologiyasi: mashinasozlikda qo'llaniladigan polimer kompozit materiallarning rivojlanish istiqbollari” mavzusida xalqaro ilmiyamaliy konferensiya материаллари. Maxsus son materiallari. Анджен: АндМИ- 2022 й., 160-165 б.

**YO'L BOSHQARUVINI INTELLEKTUAL AXBOROT TIZIMLARI  
ASOSIDA AVTOMATLASHTIRISH**

*Nasirov Ilxam Zakirovich - t.f.n., dotsent;  
Akromjonova Sayyoraxon Baxtiyor qizi - magistrant.  
Andijon mashinasozlik instituti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada yoritilgan bosh mavzu bugungi kundagi transport sohasida dolzarb bo'lgan tirbandlik, Yo'l transport hodisalari, piyoda, yo'lovchi va haydovchilarning xavfsizligini ta'minlash, yo'llarda foydali vaqt sarfini kamaytirish va shahar chorrahalarida uchraydigan shu kabi ko'ngilsizliklarni zararini kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Avtomobil, tirbandlik, intensivlik, avtomatlashtirish, intellektual transport tizimlari, trafik, samaradorlik, svetofor, kontroller, datchik, radar, internet, GPRS.

**АВТОМАТИЗАЦИЯ УПРАВЛЕНИЯ ДВИЖЕНИЕМ НА ОСНОВЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ ИНФОРМАЦИОННЫХ СИСТЕМ**

**Аннотация:** Основной темой, освещаемой в данной статье, являются транспортные заторы, дорожно-транспортные происшествия, безопасность пешеходов, пассажиров и водителей, сокращение полезного времени пребывания на дорогах и подобные происшествия, происходящие на городских перекрестках, выделены меры, направленные на снижение ущерба от ДТП.

**Ключевые слова:** Автомобиль, трафик, интенсивность, автоматизация, интеллектуальные транспортные системы, трафик, эффективность, светофор, контроллер, датчик, радар, интернет, GPRS.

**AUTOMATION OF TRAFFIC CONTROL BASED ON INTELLIGENT INFORMATION SYSTEMS**

**Annotation:** The main topic covered in this article is traffic congestion, traffic accidents, safety of pedestrians, passengers and drivers, reduction of useful time on the roads and similar incidents occurring at urban intersections, measures aimed at reducing damage from road accidents are highlighted. .

**Keywords:** Car, traffic, intensity, automation, intelligent transport systems, traffic, efficiency, traffic light, controller, sensor, radar, internet, GPRS.

Bugungi kunda avtomobilda yo'lovchi va yuk tashish juda tez rivojlanmoqda. Avtomobillar soni doimiy va dinamik ravishda o'sib borayotgani barchaga ma'lum.

Avtotransport oqimlarining intensivligi, meteorologik sharoitlar transportda tashish rejimining o‘zgarishiga olib keladi [1,2]. Natijada, tirbandlik, yo‘l hodisalari va shunga o‘xhash ko‘ngilsizliklar paydo bo‘ladi. Ayniqsa aholisi ko‘p bo‘lgan shaharlarda bu tez-tez kuzatiladi. Yilning va kunning ma’lum vaqtlarida baxtsiz hodisalar darajasi oshadi. Qulay va xavfsiz harakatni ta’minalash uchun harakatni boshqarishning moslashuvchan tizimi zarur.

Avtomatlashtirilgan yo‘l boshqaruvi optimal rejimlarni bashorat qilish va o‘rnatish imkoniyatidir [3-5]. Bu transportning iqtisodiy samaradorligini, xavfsizligini, tezligini va o‘tkazish qobiliyatini oshiradi. Hozirgi vaqtda butun dunyo bo‘ylab avtomobil yo‘llarini samarali boshqarish uchun turli avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarining elementlari muvaffaqiyatli joriy etilmoqda. Intellektual transport tizimlari sohasi hozirda kompyuterlashtirilgan aqli avtomatik tizimlar asosida qurilgan. Intellektual transport tizimlarining asosiy afzalliklari- yo‘lning o‘tkazish qobiliyatini oshirish, yo‘l transport hodisalari va zaharli chiqindilar darajasini pasaytirish, tarmoq sifatini yaxshilash, harakatning har bir ishtirokchisiga eng yaxshi yo‘nalishlar haqida ma’lumot berish orqali amalga oshiriladi.

Avtomatlashtirilgan harakatni boshqarish tizimlari- bu transport oqimi ma’lumotlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni to‘playdigan va qayta ishlaydigan va shu asosda harakatni boshqarishni optimallashtiradigan texnik, dasturiy va tashkiliy tadbirlarning o‘zaro bog‘langan majmui sanaladi. Uning vazifasi yo‘llarda harakat xavfsizligini tashkil etishni ta’minalashdan iborat [6,7].

Yo‘l boshqaruvini avtomatlashtirish yo‘ldagi nazorat va axborot funksiyalarini bajarib, u asosan quydagini o‘z ichiga oladi:

- Transport oqimlarini kuzatish va nazorat qilish;
- Axborot ta’moti tizimi;
- Yo‘l- transport hodisalari joylarini avtomatik aniqlash;
- Yo‘l- transport hodisalari joylarini avtomatik foto va video tasvirga tushirish.

Yo‘l harakati monitoringini tashkil qilmasdan harakatni boshqarish mumkin emas. Monitoring tizimi- bu transport oqimlari parametrlari bo‘yicha ma’lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash, saqlash va uzatishdir. Transport oqimini boshqarishni avtomatlashtirish uchun transportning haqiqiy holati va uning parametrlari haqida ma’lumotga ega bo‘lish kerak. Shuning uchun quydagi xususiyatlarni o‘lchash kerak [8-10]:

- Belgilangan vaqt oralig‘ida har bir bo‘lakdan o‘tgan transport vositalarining umumiyy soni;
- Trafik oqiminining o‘rtacha tezligi;
- Yo‘l tirbandligining o‘rtacha qiymati, nazorat zonalarida, ma’lum bir vaqt uchun.

Yo'llarni boshqarishni avtomatlashtirish tizimida transport oqimlarining monitoringi boshqa muammolarni hal qilish imkonini beradi. Trafik oqimlari parametrlari bo'yicha operativ va arxiv ma'lumotlarini qayta ishlash, ular asosida hisobotlarni shakllantirish va boshqaruv stsenariyalarini o'zgartirish bo'yicha qarorlar tayyorlash kabi.

Ushbu ma'lumotlarning barchasi transport detektorlari tomonidan taqdim etiladi va moslashuvchan tartibga solishni amalga oshirish, shuningdek, trafikni boshqarish dasturlarini hisoblash yoki avtomatik tanlash uchun ishlatiladi. Trafik oqimlarini kuzatish qobiliyati transportning radar detektorlari va video detektorlari, shu jumladan foto va video fiksatsiya tizimlari va video kuzatuv tizimlariga ega [10-12].

Yo'l harakati detektorlari yordamida yo'l boshqaruvini avtomatlashtirish svetoforlarni moslashtirilgan boshqarish, transport vositalarining tezligi va turini, shuningdek ularning sonini aniqlash imkonini beradi.

Yo'l boshqaruvini avtomatlashtirish svetoforlarni avtomatik rejimda boshqarishni o'z ichiga oladi. Svetoforlarni avtomatik boshqarish chorrahalarining o'tish qobiliyatini oshiradi. Yo'l harakati aqli traffik kontrollerlari nazorati ostida dinamik svetoforni boshqarish orqali tartibga solinadi. Masofaviy harakat datchiklari, kameralar, kontrollerlar real vaqt rejimida tirbandlikni baholaydi va barcha ma'lumotlarni tirbandlikni avtomatik boshqarish uchun markaziy boshqaruv serveriga uzatadi. Kontrollerlar internet yoki GPRS orqali svetofor va boshqaruv markazi o'rtasidagi aloqani ta'minlaydi va trafik ma'lumotlarini yig'ish moduli bilan jihozlangan [14-16].

Bundan tashqari, sensorlarning o'qishlari asosida markaziy server muvofiqlashtirish rejalarini turli mezonlarga muvofiq intellektual yo'l boshqaruvchisiga yuklaydi:

- yil vaqt;
- hafta kuni;
- kun vaqt;
- hozirgi transport holati [15-17].

Olingan ma'lumotlarga asoslanib, nazoratchilar svetoferning ishlashini nazorat qiladi. Avtobillarning chorrahalarda o'tkazadigan vaqtini kamaytirish uchun qizil yoki yashil chiroq yoqiladi. Aytaylik, yo'nalishlardan birida tirbandlik ko'p bo'lsa, u uchun yashil chiroq yonadi.

Avtomatlashtirilgan tizim 15-30 daqiqagacha oldindagi tirbandlik holatini bashorat qila oladi. Buning yordamida svetoforni boshqarishning samarali rejasini oldindan ishlab chiqish mumkin. Datchiklar turlariga qarab, tizim jamoat transporti, favqulodda vaziyatlar xizmati, tez yordam va politsiya avtobillarining boshqa yo'l harakati qatnashchilariga nisbatan ustuvorligini hisobga olishi mumkin [18-20].

Mazkur tizimlardan shahar yo'llarida va ayniqsa intensivlik ko'p bo'lgan chorrahalarda foydalanishni statistik bashorat qilsak, sezilarli darajada samaradorlikka

ega bo‘lishimiz aniq. Yaqin kelajakda O‘zbekiston transport tizimida bunday loyihalarning amalga oshirilishi orqali aqli shahar va aqli transport sohalarida tub burilish yasaydi. Yo‘lovchi va haydovchilarning harakatlanishida ortiq tirbandlik, yo‘l transport hodisalari, favqulotda holatlarda maxsus avtomobilarning kechikishi muammolariga yechim topiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. SARIMSAQOV AKBARJON MUMINOVICH and NASIROV ILHAM ZAKIROVICH (2022). PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF MULTIMODAL TRANSPORTATION TECHNOLOGY// Saybold Report (TSRJ): Saybold Publications, Box 644, 428 E. Baltimore Ave. Том 17, № 08 (2022) | doi.org/10.5281/zenodo.6969371, p. 468-475. СМИ, Пенсильвания, 19063. editor@sayboldreport.org.
2. Насиров Илхам Закирович, Таваккарова Саидахон Орифжон кизи, Тулкинхужаева Нилуфархон Расулжон кизи. АНДИЖОН ВИЛОЯТИДА ЙЎЛ ҲАРАКАТИНИ ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ РАҚАМЛАШТИРИЛИШИ// Международный научно-образовательный электронный журнал «ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ». Выпуск №25 (том 7) (апрель, 2022). Дата выхода в свет: 30.04.2022. с. 1276-1279.
3. Носиров Ильхам Закирович, Абдуллаев Яшинбек Бахрамович. ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ТРАНСПОРТНОЙ ЛОГИСТИКЕ НУЖЕН АНАЛИЗ//Международный научно-образовательный электронный журнал «ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ». Выпуск №25 (том 3) (апрель, 2022). Дата выхода в свет: 30.04.2022- с. 1575-1580.
4. Насиров Ильхам Закирович, Солиев Бобуржон Абдираим Угли. (2022). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ СИСТЕМЫ ADAS ДЛЯ ПОМОЩИ ВОДИТЕЛЯМ. Американский журнал междисциплинарных исследований и разработок, 5, 94-105. Извлечено из <http://ajird.journalspark.org/index.php/ajird/article/view/112>
5. Насиров Илхам Закирович, Зўхриддинов Дилмураджон Каримжон ўғли. «ЙўНАЛИШДАГИ ТАКСИЛАРНИ ДИАГНОЗЛАШНИНГ ХОЛАТИ»//Международный научно-образовательный электронный журнал «ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ». Выпуск №26 (том 9) (май, 2022). Дата выхода в свет: 31.05.2022. Международный научно- образовательный центр «Моя профессиональная карьера, с. 228-230.
6. Насиров Ильхам Закирович, Зо‘хриддинов Дилмураджон Каримжон о‘гли. (2022). АНДИЖОН ВИЛОАТИДА ЁНАЛИШДАГИ ТАКСИЛАРНИНГ ИСЛАТИЛИШИ. ЖУРНАЛ ИННОВАЦИЙ НОВОГО

ВЕКА , 7 (5),

94–101. Получено

с

<http://www.wsrjournal.com/index.php/new/article/view/1637>.

7. Насиров Ильхам Закирович, Камолов Шерзодбек Сабирович. BOBUR SHOX VA S.ZUNNONOVA KO‘CHALARI KESISHMASIGA SVETOFORLARNI O’RNATISH//JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS. Volume – 7\_Issue-5\_Iyun\_ 2022, WSRjournal.com, 102-107 б.
8. Насиров Ильхам Закирович, Солиев Бобуржон Абдираим Коулс. (2022). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ СИСТЕМЫ ADAS ДЛЯ ПОМОЩИ ВОДИТЕЛЯМ. Американский журнал междисциплинарных исследований и разработок , 5 , 94–105. Получено с <http://ajird.journalspark.org/index.php/ajird/article/view/112>.
9. Насиров Ильхам Закирович, Насиров Ильхам Закирович, Солиев Бобуржон Абдираим оглы, Солиева Ксилола Фахриддин кызы. (2022). ХАЙДОВЧИЛАРГА ЙОРДАМ ТИЗИМЛАРИНИНГ ТАХЛИЛИ. ЖУРНАЛ ИННОВАЦИЙ НОВОГО ВЕКА , 8 (3), 147–157. Получено с <http://www.wsrjournal.com/index.php/new/article/view/1878>.
10. Nasirov Ilxam Zakirovich, Normirzaev Abduqayum Raximberdievich. «DAMAS» AVTOMOBILI MISOLIDAGI YO‘NALISHDAGI TAKSILARNI KUNLIK TEXNIK KO‘RIKDAN O‘TKAZISH // ТАЪЛИМ ВА РИВОЖЛАНИШ ТАХЛИЛИ ОНЛАЙН ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ, Volume: 02 Issue: 07 / Jul-2022 ISSN: 2181-2624 www.sciencebox.uz, 109-115 6.
11. Sarimsakov Akbar Muminovich, Nasirov Ilham Zakirovich. Increasing the mobility of multimodal cargo transportation in international directions //МАШИНАСОЗЛИК ИЛМИЙ-ТЕХНИКА ЖУРНАЛИ №3, 2022 йил. Андижон: web.andmiedu.uz ISSN 2181-1539, 326-332 6.
12. Насиров, И. З., & Кўзиболаева, Д. Т. (2022). ИЧКИ ЁНУВ ДВИГАТЕЛЛАРИНИНГ ЭНЕРГЕТИК ВА ЭКОЛОГИК КЎРСАТКИЧЛАРИНИ ЯХШИЛАШ. RESEARCH AND EDUCATION, 1(7), 216-219.
13. Насиров И.З. YANGI G’OYALARNI ISHLAB CHIQISH//JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS VOLUME- 18 | ISSUE- 5 DECEMBER- 2022- <http://www.newjournal.org/> 49-56 6.
14. Ilxam Zakirovich, N., & Abdirayim o‘g‘li, S. B. . (2022). TAKOMILLASHTIRILGAN «ADAS» DASTURI. *Scientific Impulse*, 1(3), 1107–1112. Retrieved from <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/ni/article/view/1249>
15. Saydkamolov Islomjon Rakhmatullo ugli, Nasirov Ilham Zakirovich. SIMULATION OF THE PROCESS OF SELECTION OF THE OPTIMUM TYPE OF ROLLING STOCK FOR TRANSPORTATION OF MEDICINES TO THE CONSUMER// World Bulletin of Social Sciences (WBSS) Available Online at:

<https://www.scholarexpress.net> Vol. 17, December,2022 ISSN: 2749-361X, 176-184 р.

16. Насиров И, Тулкинхужаева Н. Интеллектуальные программы для управления транспортными средствами// “International Scientific and Practical conference "Topical Issues of Science". Part 4, 10.04.2022- p. 290-293. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6439534>. с. 290-293.
17. Насиров Илхам Закирович, Зўхриддинов Дилмуроджон Каримжон ўғли. АВТОМОБИЛЛАРНИ МАСОФАВИЙ ДИАГНОСТИКА ҚИЛИШ УСУЛИ// International Scientific and Practical conference "Actual issues science" 7nd part, 2-679 pages. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6624788>- 585-588 б.
18. У.М.Турдиалиев, И.З.Насиров. Транспорт воситалари учун интеллектуал бошқарув тизими// Рақамли ҳаёт ва ижтимоий фанларнинг баркамол авлодни вояга етказищдаги ўрни ва аҳамияти: долзарб муаммолар ва истиқбол. Халқаро илмий–амалий конференция илмий мақолалар тўплами. 5- шўъба. Муҳандислик фанлари.- Андиджон: АндМИ, 2022. 672 б. 15-18 б.
19. B.Soliyev, I.Nasirov, I.Sirojiddinova. Yo'l- transport jahoxatlari statistikasi o'rGANISH tahlili. // Рақамли ҳаёт ва ижтимоий фанларнинг баркамол авлодни вояга етказищдаги ўрни ва аҳамияти: долзарб муаммолар ва истиқбол. Халқаро илмий – амалий конференция илмий мақолалар тўплами. 5- шўъба. Муҳандислик фанлари.- Андиджон: АндМИ, 2022. 325 б. 295-297 б.
20. Nasirov Ilxam Zakirovich, Soliyev Boburjon Abdirayim oglı. Takomillashtirilgan «ADAS» dasturi// INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE: A COLLECTION OF SCIENTIFIC WORKS OF THE INTERNATIONAL SCIENTIFIC ONLINE CONFERENCE (19TH OCTOBER, 2022) – BELARUS, MINSK : "CESS", 2022. PART 7– P., 117- 122 б.

## TIL O`RGANISHNING ENG TEZ YO`LI QAYSI?

O`zDJTU talabasi  
Shaybutayeva Asilaxon Nurmon qizi  
Ilmiy rahbar: Yuldasheva S.F

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada til o`rganishning eng tez yo`llari muhokama qilinadi.

**Kalit so`zlar:** shaxsiy maqsad, rejani shakllantirish, tilni tanlash, optimal shug`ullanish, IELTS (Xalqaro Ingliz tili test tizimi) sertifikati, o`rganayotgan tilda suhbatlashish, online dasturlardan foydalanish, xorijiy tildagi filmlarni tomosha qilish, musiqa tinglash, yangi so`zlar, foydalanadigan resurslar, ustoz tanlash, til o`qituvchilari, imlo, lug'at, grammatika, intonatsiyalar va urg'ular, gapirish, tinglash, o'qish va yozish, ingliz tili va rus tillari.

“O`rganish zabitiga tillarni bilish orqali erishiladi” Rojer Bekon HOLA, BONJOUR, KONNICHWA, HELLO, ПРИВЕТ va ASSALOMU ALAYKUM! Hozirgi kunda bir nechta tillarni o`rganish juda mashhur va ba'zi odamlar ushbu tillardan birini tanlashga moyil. Til o`rganish har doim arziydi, lekin sizning shaxsiy maqsadingiz sizni o`rganish jarayonida rag`batlantirish uchun yetarlicha kuchli bo`lishi kerak. Yangi tilni o`rganish qiziqarli va hayajonli, lekin shu bilan birga, agar siz yangi tilni tanlashda maqsadlaringizga e'tibor qaratmasangiz, u murakkab va zerikarli bo`lishi mumkin. Sizning tilga bo`lgan munosabatingiz juda muhim. Va biz sizga til tanlashda e'tiborga olish kerak bo`lgan asosiy fikrlarni va yangi tilni o`rganishning eng yaxshi usulini beramiz. Bir chashka qahva oling va bizning maqolamizdan bahramand bo`ling, bu siz uchun juda o`ziga xos va hayotingizni o`zgartirishi mumkin.

**Rejani shakllantirish.** O`rganish uchun tilni tanlashdan boshlang. Sizning tanlovingiz ishingiz yoki sevimli mashg`ulotingiz bilan bog`liq bo`lishi mumkin, siz muayyan madaniyat, adabiyot yoki musiqaga qiziqishingiz mumkin. Ehtimol, yaqinlaringiz gapiradigan tilni o`rganishni xohlashingiz mumkin. Tilni o`rganishga ko`p vaqt va kuch sarflashni xohlash uchun sizda o`ziga xos sabablar bo`lishi kerak. Doimiy ravishda o`qishni rejalashtiring. Haftada bir yoki ikki marta shug`ullanish kifoya qilmaydi. Haftada 4-6 marta optimal shug`ullanish hisoblanadi. Agar buni har kuni qila olsangiz, undan ham yaxshiroq. Shuni yodda tutingki, ba'zi kunlarda o`qishga kayfiyattingiz yo`q bo`lishi mumkin, lekin o'sha kunlarda ham biror narsani o`rganishni unutmang. Ingliz tili ustozim har doim motivatsiya beradilar va ta`kidlaydilar, ”Agar siz oqimga qarshi suza olmasangiz, oqimni o`zi bo`ling, shundagina maqsadlaringizga erishasiz” deydilar. Muayyan o'quv kunidagi qahramonlik emas, balki o`qishning jamlangan ta'siri muhim ahamiyatga ega. Maqsadingizni vaqt bilan chegaralangan va

aniq qilishga harakat qiling. Masalan, siz 3 yoki 6 oy ichida ma'lum bir IELTS (Xalqaro Ingliz tili test tizimi) sertifikati darajasiga erishmoqchisiz, ma'lum kitoblarni asl nusxada o'qing va qat`iyatingizni mustahkam qiling. Nihoyat, rejalaringiz o`zgarishini tushuning. Tilni o`rganishdagi qobiliyatingzni o`rganishning boshida sizda "Ko`rish maydoni" cheklangan bo`ladi, ya`ni qanday muvaffaqiyatga erishasiz buni bilmaysiz, lekin o`rganish davomida siz bilmagan narsalarni bilib olasiz. Maqsadlaringiz haqida aniq qaror qabul qila olasiz, ammo sizning ustuvorliklaringiz va maqsadlaringiz taraqqiyot sari o`zgaradi. Shunday qilib rejalaringizni ko`rib chiqing va tuzating, lekin buni tez-tez qilmang.

**O`rganayotgan tilingizda suhbatlashing.** Siz o`rganayotgan tilda so`zlashadigan mamlakatga sayohat qiling yoki ish toping. U yerda siz oraliq maqsadlarga ega bo`lishingiz mumkin. Yoki bo`lmasam siz uchun eng qulay bo`lgan online (ya`ni masofaviy) dasturlardan foydalanish. Bunda siz o`rganayotgan tilda so`zlashuvchilar bilan suhbat qurishingiz mumkin. Masalan, 1 oy ichida, ona tilida so`zlashuvchi bilan birinchi 15 daqiqalik suhbatni o'tkazish sizni shu tilda so`zlashish muhitini yanada rivojlantiradi.

**Xorijiy tildagi filmlarni tomosha qiling.** Sevimli film, shou yoki multfilmlaringizni aynan shu tilda tomosha qiling. Shu tilda musiqa tinglash ham, sizga foydali va zavq bag`ishlaydi. Siz yangi mavzularni o`rganishdan zavqlanishingiz, siz o`rganayotgan til davlatining madaniyati, urf-odatlarini bilib olishingiz mumkin bo`ladi. Shu bilan birga, yangi so`zlarni o`rganishingiz mumkin.

**Foydalanadigan resurslar haqida qaror qabul qiling.** Shunga qaramay, ba'zi manbalar nisbatan kamroqligi ma'lum, boshqalari esa sizning darajangizga to`gri kelmasligi mumkin. Shunda siz avvalo, o`z darajangizga mos resurslardan foydalanish davomida darajangizni bosqichma-bosqich shakllantirishingiz kerak. Agar siz to'liq boshlang'ich bo`lsangiz, haqiqat shundaki, deyarli har qanday manba yordam beradi. Tilni ko'proq bilsangiz, uslubingiz va ehtiyojlariningga mos keladigan manbalarni tanlay olasiz. Masalan, o`zingizga yoqqan hikoya yoki kitoblarni shu tilda o`qishingiz ham sizni shu tilda rivojlantiradi va dunyo qarashingizni kengaytirishda yordam beradi.

**Ustoz tanlash.** Har bir sohani o`rganishda albatta, ustoz hamroh bo`ladi sizga. Chunki ustoz o`z ishining ustasi. U bu sinovlardan o`tgan va yetarli tajribaga ega shaxs. Til o'qituvchilari ko'pincha dasturda bir necha yoki barcha malaka darajalari yoki yil darajalari bo'yicha ko'rsatmalar beradi va imlo, lug'at, grammatika, foydalanish, intonatsiyalar va urg'ularni o'rgatadi. Til o'qituvchilari o`z o'quvchilariga barcha ko'nikmalar: gapishtirish, tinglash, o'qish va yozish bo'yicha malakaga ega bo'lishlariga yordam beradi. O'qituvchining roli o'rganishni loyihalash va yordam berishdir. O'qituvchilar o'quvchilarining mustaqil o'rganishlari uchun o'zlarining o'quv jarayonlarini boshqarishlari va tengdoshlari bilan hamkorlikda o'rganishlari uchun sharoit yaratadilar.

**O`zingizga o`zingiz ustoz bo`ling.** Buning kaliti - bu bag'ishlangan tadqiqotlarning kichik bosqichlari va aniq bo`lsa-da, yangi tilni o'rganishning eng yaxshi usullaridan biri bo`lib qolmoqda. O'z tilingizda qanday aytishni bilmoxchi bo`lgan jumlanı yozish uchun har kuni bir oz vaqt ajrating. Har bir so'zni/qismni qidiring va jumlanı o`zingiz qurishga harakat qiling. Agar til bo'yicha sheringingiz bo`lsa, uchrashganingizda jumlalariningizni ikki marta tekshirib ko'ring. Bu o`zingizni nazorat qilish uchun ajoyib hiyla. Ustoz sizga bilim va ko`nikmalar, to`g`ri yo`nalish, maslahatlar hamda uy vazifalarini tekshirib berishi mumkin, ammo o`zingiz ustingizda ham ishlasangiz bu yuqori darajada sizga samara beradi. Har kuni erishish uchun kichik maqsadlar qo'yish sizni til o'rganish yo'lida oldinga va yuqoriga intilishingizga yordam beradi!

1. Avezov A.X. Matematikani o'qitishda interfaol metodlar: «Keys-stadi» metodi // Science and Education, scientific journal, 2:12 (2021), 462-470 b.
2. Avezov A.X. Funksiyaning to'la o'zgarishini hisoblashga doir misollar yechish yo'llari haqida // Science and Education, scientific journal, 2:12 (2021), 50-61 b.
3. Avezov A.X. «Kompleks sonlar» mavzusini o'qitishda «Bumerang» texnologiyasi // Science and Education, scientific journal, 2:12 (2021), 430-440 b.
4. Avezov A.X. Funksiya hoslasi mavzusini o'qitishda «Kichik guruhlarda ishlash» metodi // Science and Education, scientific journal, 2:12 (2021), 441-450 b.
5. Avezov A.X. Ta'limning turli bosqichlarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish // Science and Education, scientific journal, 2:11 (2021), c. 789-797.
6. Avezov A.X. Oliy matematika fanini o'qitishda tabaqlash texnologiyasidan foydalanish imkoniyatlari // Science and Education, scientific journal, 2:11 (2021), c. 778-788.
7. Avezov A.X. Умумтаълим мактаблардаги математика дарсларида ахборот технологияларини ривожлантириш тамойиллари // Science and Education, scientific journal 2:11 (2021), 749-758 б.
8. Avezov A.X. Matematika o'qitishning tatbiqiy metodlari // Pedagogik mahorat, 2021, Maxsus son. 52-57 б.9. Шукрова М.Ф., Раупова М.Х. Каср тартибли интегралларни ҳисоблашга доир методик тавсиялар // Science and Education, scientific journal, 3:3 (2022), p.65-76.
10. Avezov A.X., Rakhmatova N. Eyler integrallarining tatbiqlari // Scientific progress, 2:1 (2021), 1397-1406 б

MATEMATIKA DARSLARI ORQALI O'QUVCHILAR MANTIQIY  
FIKRLASH QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI

*Abulova Suzikoy Mo'min qizi  
Qarshi tuman 1- sonli kasb hunar maktabi  
Matematika fan o'qituvchisi*

**Annotasiya:** Ushbu maqolada umumta'liz maktabalarida matematika darslarida o'quvchilarni mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish yo'llari bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** matematika, mantiqiy fikrlash, matnli masala, o'quvchi

METHODS FOR FORMING LOGICAL THINKING OF STUDENTS IN  
MATHEMATICS

**Abstract:** this article describes how students develop logical thinking skills in mathematics in high schools.

**Keywords:** mathematics, logical thinking, text problem, student.

Masalalarni yechish matematikani o'qitishning muhim tarkibiy qismidir. Masalalarni yechmasdan matematika fanini o'zlashtirishni mutlaqo tasavvur qilib bo'lmaydi. Matematika darslarida masalalar yechish nazariyani amaliyotga tadbiq etishning eng yaxshi va ravon yo'lidir. Faqatgina quruq matematik nazariya, uning tadbiqlarisiz uzoqqa bora olmaydi. Lekin shuni alohida ta'kidlash kerakki matematika fanining har bir mantiqiy qoidasining albatta amaliyotdagi o'rni mavjud. Bu mavjudlikni tadbiqlari faqatgina matematik masalalar yordamida yuzaga chiqadi. Sodda va murakkab masalalar, bilimlarni o'zlashtirishga, olingan bilimlarni mustahkamlash va mukamallashtirishga xizmat qiladi. Matematik masalalar bolalarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishning foydali vositasi bo'lib, odatda o'z ichiga "yashirin informatsiya" ni oladi. Bu muamoni hal etish masala yechuvchidan taklif, tahlil va sintez, mustaqil murojaat qilish, faktlarni taqqoslash, umumlashtirish va boshqalarni talab etadi. Masalalarni yechishda matematika faniga bo'lgan qiziqish oshadi. Mustaqilik, erkinlik, talabchanlik, mehnatsevarlik, maqsadga intilish kabi xislatlar rivojlanadi. O'quvchilarni iqtisodiy, ekologik, mehnat tarbiyasida ham matnli masalalarning o'rni katta. Masalalar o'quvchilarning fikr doirasini kengaytirishga yordam beradi. Ularni o'z shahrining, qishlog'ining, fermer dehqon xo'jaliklarining hayoti bilan, kishilarning ishlab chiqarish va qishloq xo'jaligidagi mehnatlari bilan tanishtiradi. Insoniyat tarixida mavjud matematik qarashlar asosida cheksiz ko'p masalalar to'plami tuzilganki, ularning har biri ma'lum ma'noda matematika nazariyasini amaliyotga tadbiq etishga yordam berdi. Har bir masalaning o'zining yechish yo'li xossasi, shartli xulosasi bor. Matematik ta'lim jarayonida masalalardan

foydalish qadim zamonlardan beri qo'llanib kelinayotir. Shuning uchun ham matematika darslarida matematik masalaning roli va uning o'rni haqida gap borganda quyidagi uch bosqichni ko`zda tutish maqsadga muvofiqdir. 1. Matematika fanining nazariy qismlarini o'rganish matematik masalalarni yechish maqsadida amalga oshiriladi; 2. Matematika fanini o`rgatish matematik masalalarni yechish bilan birgalikda olib boriladi. 3. Matematikani o'rganish masala yoki misollar yechish orqali amalga oshiriladi. Aytiganlardan ko`rinadiki, jamiyat rivojlanishining har bir bosqichida masalaning roli va uning o`rniga har xil baho berib kelingan. Hozirgi davrda masala yoki misollar yechish orqali matematik ta'lim jarayonini olib borishning metodik usul va vositalari ishlab chiqilgan va bu usullar haqida ko`pgina ilmiy metodik va didaktik adabiyotlarda bayon qilingan. Matematik tushunchani masala yoki misollar yordamida kiritish va uning tub mohiyatini o`quvchilarga tushuntirish murakkab bo`lgan pedagogik jarayondir. Shuning uchun ham bir maktab o`qituvchisi dars jarayonida ishlatiladigan masalani tanlash yoki uni tuzishda juda ham ehtiyoj bo`lmog`i lozimdir. Tuzilgan masalalarni dars jarayonida qo'llanish ana shu o`quvchilarining o`zlashtirish qobiliyatlarini hisobga olgan holda bo`lishi kerak. Har bir dars jarayonida ishlatiladigan masala yoki misol darsning maqsadiga mos kelishi kerak. Agar darsda o`qituvchi o`quvchilarga biror yangi matematik tushunchani o`rgatmoqchi bo`lsa, tuziladigan masala yoki misol ana shu tushuncha mohiyatini ochib beruvchi xarakterda bo`lishi kerak. Murakkab masalalar ham, bilimlarni o`zlashtirish, olgan bilimlarni mustahkamlash va mukammallashtirishga xizmat qiladi. Sodda va murakkab masalalar bolalrning fikrlash qobiliyatlari rivojlantirishning foydali vositasi bo`lib odat o'z ichiga yashirin noma'lumni oladi. Bu noma'lumni qidirish, masala yechuvchidan tahlil va sinteza mustaqil murojaat qilish faktlarini taqqoslash, umumlashtirish va boshqalarni talab qilish. Masalalar yechish orqali o`quvchilarda ushbu malakalar tarkib topilishi kerak. 1. Masalani tinglashni o'rganish va uni mustaqil o'qiy olish. Masala ustida ishlash uning mazmunini o`zlashtirishdan boshlanadi. 2. Masalani dastlabki analiz qilish (ma'lumni noma'lumdan ajarata olish malakasi). Ma'lumni noma'lumdan, muhimni nomuhimdan ajratish, masalada berilganlar bilan izlanayotganlar orasidagi bog'lanishni ochish - bu eng muhim malakalardan biri. Bunday malakaga ega bo`lmay turib, masalalarni mustaqil yechishga o'rganib bo`lmaydi. 3. Masalani qisqa yozish malakasi. Masala matni ustida og'zaki ishlagandan keyin uning mazmunini matematik atamalar tiliga o'tkazish va qisqa yozuv shaklidagi matematik strukturasini belgilash kerak (rasmlar, chizmalar, sxemalar, jadvallar). Shuni nazarda tutish kerakki, barcha hollarda ham qisqa yozuvni bajarish bilan bir vaqtida masala shartining tahlii ham amalga oshiriladi. Aslini aytganda, qisqa yozuvning vazifasi shundan iborat. Haqiqatan ham masala shartining qisqa yozushi o`quvchilar xotirasiga tayanch bo`lib, son ma'lumotlarni tushunish va ajratish imkonini beradi, shu bilan birga ularning ratsional yozilishi masalada nima

berilgan va nimani izlash kerakligini bayoniy tushuntirish imkonini yaratadi. 4. Sodda masalalarni yechishda amal tanlashni asoslab berish va murakkab masala tahlilini amalga oshirish, so‘ngra yechish rejasini tuzish malakasi. Oldin sodda masalani yechishda amal tanlash masalasini qarab chiqishga to‘xtalamiz. Bu malaka birinchi sinfdan boshlab tarkib topa boshlaydi, ikkinchi va uchinchi o‘quv yillarida yanada rivoj toptiriladi, ya’ni ba’zi tanish masalalarga nisbatan amal tanlash ishini bajarish asosi o‘zgartiriladi. 5. Yechimni bajarish, uni o‘qituvchi talabiga mos qilib rasmiylashtirish va masala savoliga javob berish malakasi. Sodda masalalardan boshlaymiz. Sodda masalani arifmetik usul bilan ham, algebraik usul bilan ham yechish mumkin. Bu o‘rinda masalalarni arifmetik usul bilan yechish haqidagina so‘z boradi, masalani algebraik usulda yechish keyinroq alohida qaraladi. 6. Masala yechimini tekshira olish malakasi. Masala yechimining tekshirish quyidagi usullarda qo‘llaniladi: a) olingan javob bilan masala sharti o‘rtasida moslik o‘rnatish; b) teskari masala tuzish va yechish; c) masalani boshqa usullar bilan yechish; d) javobning chegaralarini aniqlash (javobni chamalash); e) grafik tekshirish. Ma’lumki o‘quvchining mantiqiy tafakkurini o’stiradigan izlanish faoliyati bir qancha bosqichlardan iborat. Masalan, har qanday masalani yechish uning sharti va savoli bilan tanishtirishdan boshlanadi. O‘quvchi o‘zidagi bilim va tajribaga tayanib masala shartidagi ma’lumotlarga tayanib masala shartidagi ma’lumotlarning o‘zaro munosabatlarni topishga harakat qiladi, ya’ni mantiqiy mushohada yuritiladi. Unda masalani yuritish haqida mulohaza vujudga keladi. Shu bilan o‘quvchilar yangi bilim oladilar. Bu bilimlardan shunga o‘xshagan masalani yechishda foydalanadilar. Ko‘pgina masala va mashqlarda o‘quvchilarni mustaqil izlanishga da’vat etadigan «savol tuzing», «teskari masala tuzing», «taqqoslang», «xulosa yasang» kabi ko‘rsatmalari berilgan. Biroq tajribadan ma’lumki bunday ko‘rsatmalar umumiylar xarakatlarda bo‘lgani sababli o‘quvchilar mustaqilligini va dars samaradorligini oshirishi uchun yetarli emas. Shuning uchun matematik masalalar yechishda o‘quvchilar fikrlashini yo’naltirib ularga yo’l-yo’riq ko‘rsatib masalada misollarni yechish usullaridan foydalanish muvofiq bo’ladi. Fikrimizning dalili uchun 7-sinf darsligidan bir necha misol keltiramiz. 1, 2, 3, ..., 8 raqamlaridan ularni takrorlamay tuzilgan 8 xonali sonlar ichida 1 va 8 raqamlari yonma – yon turadiganlari nechta? Quyidagi hollar bo‘lishi mumkin: 1 birinchi o‘rinda, 8 ikkinchi o‘rinda, ..., 1 yettinchi o‘rinda, 8 sakkizinch o‘rinda, bunday hollar soni 7 ta. Bundan tashqari, 1 va 8 larning yuqoridagi 7 holda o‘rinlarini almashtirib, yana 7 ta (ular yonma – yon turadigan) holni topamiz. Demak, 1 va 8 ni yonma – yon qilib, 14 usul bilan qo‘yish mumkin. Bu usullarning har biriga boshqa qolgan raqamlarning  $6!$  ta o‘rin almashtirishlari mos keladi. Shunday qilib, 1 va 8 raqamlari yonmayon turadigan o‘rin almashtirishlar soni  $2 \cdot 7 \cdot 6! = 2 \cdot 7!$  ga teng. 5-masala. Gul sotuvchida 5 ta qizil va 10 ta oq chinnigul qolibdi. A’zamxon singlisi Mubinabonuga 2 ta qizil va 3 ta oq chinniguldan iborat gulasta sovg‘a qilmoqchi. Buni u necha xil usul bilan amalgalashishga qarab qolamiz.

oshirishi mumkin Xulosa qilib aytganda, matematika o'qitishning muhim vazifasi o'quvchilarda faol fikrlash, turmushda uchraydigan turli masalalarini yechishda qiyinchiliklarni yengish, bu masalalar yechimining rasional yo'llarini topish ehtiyojini vujudga keltirishdir.

**Foydalilanigan adabiyotlar:**

1. Jumayev M.E. va boshqalar. Matematika o'qitish metodikasi (kasb-hunar kollejlari o'quvchilari uchun o'quv qo'llanma) – T.: Ilm-Ziyo, 2003, 240-bet
2. Jumayev M.E. Matematika o'qitish metodikasidan praktikum - Toshkent.: O'qituvchi, 2004, 328 bet.

FIZIKA ASTRANOMIYA FANIDAN TA`LIM BERISH SIFATINI  
OSHIRISHDA MAVZULARNI KASBGA YO`NALTIRISHNING  
AHAMYATI

*Roziyeva Mehriniso Mirzayevna*

*Qarshi tuman 1- sonli kasb hunar maktabi*

*Fizika astranomiya fani o`qituvchisi*

**Annotatsiya:** Maqolaning mazmuni shundan iboratki, Fizika va astronomiyani o`qitishning kasbiy yo`naltirilishi muammosi hal etishda tayanch va fanga oid kompetensiyalarning ahamiyati ochib berilgan.

**Kalit so`zlar:** ekologik, fizika, texnika, mehnat, kompetensiya, texnologiya, astronomiya, trigonometrik funksiya.

**Abstract:** The content of the article is that the importance of basic and scientific competencies in solving the problem of professional orientation of physics and astronomy teaching is revealed.

**Keywords:** ecological, physics, engineering, labor, competence, technology, astronomy, trigonometric function.

### KIRISH

O`zbekiston Respublikasida mustaqillikka erishgandan so`ng barcha yo`nalishlar qatori ta`lim sohasida ham katta islohotlar amalga oshirildi. “Ta`lim to`g`risida”gi, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to`g`risida”gi qonunlar shular jumlasidandir. Davlat ta`lim standartlarida o`quvchilarda tayanch va fanga oid umumi kompetensiyalarini shakllantirish ko`zda tutilgan. Tayanch kompetensiyalar – inson qanday kasb egasi bo`lishidan qat`iy nazar, jamiyatda muvaffaqiyatlari yashashi uchun ega bo`lishi kerak bo`lgan layoqatlar, qobiliyatlar va faoliyat turlaridan iboratdir. Bunda har bir shaxs kommunikativ bo`lishi, axborot bilan ishlay olishi, shaxs sifatida o`z-o`zini rivojlantirishi, ijtimoiy faol fuqaro bo`lishi, umummadaniy xislatlarga ega hamda matematik jihatdan savodxon bo`lishi nazarda tutiladi. Fan-texnika taraqqiyoti natijasida, fizika fani izchil rivojlanib borayotgan shu asrimizda biz yangiliklar yaratishimiz kerak bo`ladi. Shu munosabat bilan o`quv tarbiya jarayonining darajasini ancha oshirish zarurati tug`ildi, yoshlarga umumkasbiy fanlarni o`qitishda o`quvchilarining fan asoslarini chuqur egallashini ta`minlash, ularga kasbiga e`tiqod, mexnatsevarlik, axloqiy soflik kabi xislatlarni shakllantirish, Vatanimizga muhabbat va uning kelajagi uchun o`zining xissasini qo`shishga tayyor turadiga va komil inson ruhida tarbiyalashga qaratilgan bo`lib. Shu bilan birga mavzuning insoniyat xayotidagi rolini o`quvchilarga yetkazishdan iborat. Fizikani predmet sifatida o`qitishda kasbiy yo`naltirish o`qitishning maqsadlaridan biri sifatida ham, bilimlar sifatini oshirishning

muhim faktori sifatida ham xizmat qiladi. Fizikani kasbiy yo`naltirib o`qitish faqatgina kasbiy chaqqonlikni oshiribgina qolmay, shu bilan birga o`quvchilarining ma`naviy kuchlarini va qobiliyatlarini ham rivojlantirishga, ularda ilmiy dunyoqarashni, ijobiy munosabatda bo`lish kabi fazilatlarni shakllantirishga ham imkon beradi. Ma`lumki, fan va texnika taraqqiyoti ta`lim va tarbiyaning mazmuni va metodlariga bevosita ta`sir etadigan quyidagi bir qator belgilar bilan xarakterlanadi: - fan, texnika va ishlab chiqarishdagi o`zgarishlarning birga qo`shilib ketishi natijasida fanning bevosita ishlab chiqarish kuchlariga aylanib ketishi; - ishlab chiqarish kuchlari hamma elementlarini sifat jihatdan qaytadan qurish; - mehnat xarakteri va mazmunining o`zgarishi, unda ijodiy elementlar rolining o`sishi; - ishchilar umumiyligi va maxsus ta`limi, hamda madaniyatining o`sish darajasi; - ekologik muammolarning paydo bo`lishi va shunga bog`liq bo`lgan boshqa masalalar. Kasbiy yo`naltirib o`qitish ham albatta didaktik tamoyillarga tayanadi. Fizikani kasbiy yo`naltirib o`qitish asosan “ko`rgazmali” bo`ladi, chunki uning manbai texnika ob`ektlari hisoblanadi. Shu tufayli, fizika o`qitishda politexnik tamoyilni ketma-ket amalga oshirish ko`rgazmalilik tamoyili vositalarini boyitish bilan birga fizikadan o`quv jihozlariga aniq talablar qo`yadi. Kasbiy yo`naltirib o`qitish insonning mehnat va ishlab chiqarish – texnik faoliyatida shakllanadi va aniq ko`rinishda namoyon bo`ladi. Shu sababli, o`qitishni ishlab chiqarish va o`quvchilarining mehnati bilan bog`lanishi ular tomonidan bilimlarni o`zlashtirishning zaruriy sharti bo`lib xizmat qiladi. O`quvchilarni kasbga tayyorlash fan asoslarini, mehnat ta`limini o`rganish jarayonida, texnika, texnologiya va ijtimoiy – foydali, ishlab chiqarish mehnati bo`yicha sinfdan tashqari mashg`ulotlarda amalga oshiriladi.

### **ADABIYOTLAR TAHЛИILI VA METODOLOGIYA**

Fizikani o`qitishning kasbiy yo`naltirilishi muammosi bugungi kunda ayniqsa, dolzarb hisoblanadi, chunki hozirgi paytda texnika kirib bormagan sohaning o`zi yo`q. Bunda uning mazmun va jarayonual tomoni farqlanadi. Mazmun tomoni esa o`qitishning metodlariga va shakllariga qo`yilgan talablar hisoblanadi. Fizikani o`rganishda qarab chiqilayotgan qonuniyatlar xalq xo`jaligining muhim sohalaridagi texnik qo`llanishlarni ham kiritish kerakligini talab etadi. Bu esa fizika kursining nazariy va amaliy qismlarini aniqlab olishga imkon beradi. O`rta umumta`lim maktablarini tugatgan o`quvchilarining bir qismi ishlab chiqarish sohasiga boradi. Shu munosabat bilan ular mehnat tarbiyasini olgan bo`lishlari zarur. Mehnat tarbiyasi masalasini hal etishda fizika o`qituvchisi ham ma`lum darajada ishtiroy etadi. Mehnat tarbiyasining maqsadi yoshlarni hamkasblarga, mehnat jamoalarga muhabbat va hurmat ruhida tarbiyalash, jamiyat uchun zarur va foydali ishlarni bajarishga tayyorlash, mehnat natijasiga javobgarlik hissini, jamoa qiziqishini o`zining qiziqishlaridan ustun qo`yishga, mehnatga ijodiy munosabatda bo`lish hislariga

erishishga yoshligidan tayyorlab borishdan iborat. Agar, o`qitish ishlab chiqarish mehnati bilan qo`shib olib borilsa, yaxshi samara beradi.

## NATIJALAR

O`rta umumta`lim maktablarida mehnat tarbiyasi asosiy maqsadlardan biri hisoblanadi. O`rta umumta`lim maktablarida barcha fan o`qituvchilari buni amalga oshirishda faol ishtirok etishlari zarur. Fizika o`qituvchisi ham har bir darsida faqat fan asoslarini o`rgatib qolmasdan mehnat tarbiyasini ham amalga oshirishi kerak. Fizika o`qituvchisining o`quvchilarni mehnat tarbiyasi va kasbga yo`naltirish bo`yicha ish metodini aniqlovchi tamoyil bo`lib politexnik tamoyil hisoblanadi. Fizika o`qituvchisi o`z darslarida avvalambor o`z faniga o`quvchilarni qiziqtira olishi zarur, aks holda u hozirgi ishlab chiqarishning ilmiy asoslari haqida, novator va ijodkorlar haqida har qancha chiroyli so`zlab bersa ham o`quvchida mehnatga ijodiy munosabat shakllanmaydi. O`rta umumta`lim maktablarida ishlayotgan fizika o`qituvchilarining yana bir muhim vazifasi shundan iboratki, u o`z darslarida fizikani o`quvchilarning kelgusidagi mehnat faoliyatlariga qanchalik zarur ekanligini aniq misollar orqali ko`rsatib bera olishi va bularni tajribalar orqali namoyish etib berishi kerak bo`ladi. O`qituvchi shu yo`l bilan o`quvchilarni fizika faniga bo`lgan qiziqishini oshirish bilan birga o`z kasbiga muhabbat tuyg`usini ham uyg`ota oladi. Fizika o`qitishni shunday tashkil etish kerakki, bunda texnika taraqqiyotini belgilovchi faktor fizikaning qonunlari ekanligiga o`quvchilarda ishonch hosil bo`lsin.

## MUHOKAMA

Fanning insonparvarlik mohiyatini ochish, ya`ni yutuqlaridan xalq farovonligi yo`lida foydalanish o`quvchilarning politexnik saviyasini, hamda kasbga yo`naltirish bo`yicha qiladigan ishlarining samaradorligini oshiradi. Fizikani o`rganish o`quvchilarning fizikadan olgan oldingi bilimlarigagina tayanib qolmasdan, shu bilan birga ijtimoiy va tabiiy fanlardan olgan bilimlariga ham tayanadi. Masalan, mexanika, tebranish va to`lqinlarni o`rganish uchun matematika kursidan trigonometrik funksiyalar, elektroliz hodisasini, atom va yadro fizikasini o`rganishda kimyo kursidan olgan bilimlarga, issiqlik va elektr haqidagi ta`limotlarni tushuntirishda XIX asrdagi sanoat talablari haqidagi tarix kursidan olgan ma`lumotlar, atmosfera, konvensiya, yer magnetizm hodisalarini o`rganishda geografiyadan olgan bilimlardan foydalilanadi.

**XULOSA:** O`rta umumta`lim maktablarida fizika fanini kasbiy sohalarga yo`naltirib o`qitish o`qituvchidan yuksak bilim va oliy darajadagi pedagogik mahorat talab etadi. O`quvchilarning fanga bo`lgan qiziqishlarini oshirish va dars mobaynida egallagan bilimlarini kelajakda o`z mexnat faoliyatları davomida qo`llay olishlarini ta`minlashda kasbiy yo`naltirib o`qitishning ahamiyati katta.

## **REFERENCES**

1. X.Mahmudova, B.Nurillayev , R.Isyanova, O.Rajabova. Fizika fanini kasbiy sohalarga yo`naltirib o`qitish (O`rta maxsus kasb-hunar ta`limi muassasalari o`qituvchilari uchun metodik qo`llanma) – T.: 2012 y.
2. Ж. Усаров. Физика ўқитиши жараёнида ўқувчиларда компетенцияларни ривожлантиришнинг дидактик жиҳатлари. – Т.: “MASHHUR-PRESS” , - 2019.- 192 бет.
3. Usarov. J., (2019). Using Teaching Methods for Development Student Competencies. International Journal of Progressive Sciences and Technologies.
4. Jabbor Eshbekovich Usarov. (2017). Formation Competence at Pupils as the Factor of Increase of Education`s Efficiency. Theoretical & Applied Science, 53(9), 79-82.
5. Jabbor Eshbekovich Usarov, Kabilova. Sh., (2021). Inklyuziv ta`limning nazariy va kontseptual masalalari. Fan, ta`lim va amaliyot integratsiyasi, 02(02), 37-46.
6. Mamadazimov, M., Tillaboyev, A., & Nurmamatov, Sh. (2019). Astronomiya kursidan masalalar to`plami.

## DEVELOPMENT OF STUDENTS' CRITICAL THINKING SKILLS IN ENGLISH CLASSES

*Eshankulova Nigina Sadreddinovna  
Uzbekistan State University of World Languages  
Practical foreign language*

**Annotation:** This article discusses the importance of wide use of activities that develop critical thinking in English language classes. As a result of the use of modern approaches and innovative methods, such as the development of critical thinking in English language teaching, the development of students' logical thinking skills, fluency in speech, the formation of quick and correct response skills, instilling enthusiasm for knowledge and the English language lessons about the importance of a creative approach.

**Keywords:** teaching English, critical thinking, creative approach, speech skills.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается важность широкого использования занятий, развивающих критическое мышление, на занятиях по английскому языку. В результате использования современных подходов и инновационных методов, таких как развитие критического мышления при обучении английскому языку, развитие у учащихся навыков логического мышления, беглости речи, формирование навыков быстрой и правильной реакции, привитие энтузиазма к знаниям и уроки английского языка о важности творческого подхода.

**Ключевые слова:** преподавание английского языка, критическое мышление, творческий подход, речевые навыки.

### INTRODUCTION MATERIALS AND METHODS

*One of the most fundamental and positive changes in modern primary education is the decree of the First President of the Republic of Uzbekistan on December 10, 2012 "On measures to further improve the system of learning foreign languages" is Resolution No. PQ-1875 [1]. Based on this decision, foreign languages, mainly English, are taught in the form of game-style lessons and oral speech lessons from the 1st grade of general secondary schools, and from the 2nd grade, the alphabet, reading and grammar are taught. teaching begins step by step. Incomparable work has been started in all areas of education to further develop the study of foreign languages. For example, since the 2013-2014 academic year, foreign language games have been introduced in the first grades of general education schools. continuous training in the*

*form of classes and oral speech classes was launched. Also, textbooks and teaching-methodical sets designed for these classes were created.*

## **RESULTS AND DISCUSSION**

Today's demand is to educate mature and independent thinkers, which requires improvement of education in the process of education, development of new directions of work with students and striving for unconventionality. Accordingly, in order to educate young students to think, search and consciously acquire knowledge and expand their worldview, it requires a variety of methods. One of such new technologies is the formation of critical thinking skills in students. This ensures that the students of younger age can acquire knowledge in depth and apply it correctly in practice. Accordingly, in order to develop the critical thinking of elementary school students, it is important to design the purpose of the lesson on the basis of a clear pedagogical technology.

There are many unexplored things in life. Curiosity develops consciousness[2.64-65]. Curiosity leads to discoveries and adventures. By developing the ability to be interested in what is happening, it not only develops critical thinking, but also makes life richer and more colorful.

The importance of critical thinking in teaching foreign languages is incomparable, and at present, increasing critical thinking in students is one of the tasks of foreign language teachers. Many different factors can affect students' critical thinking skills. M. Lipman, S. Norris, and R. Ennis, who conducted research in the field of education, presented their approaches to critical thinking. There are no big differences in the definitions given by them, according to L. Elder and R. Paul, critical thinking means the ability of individuals to manage their own thinking and develop appropriate criteria and standards for analyzing their own thoughts [2, 34-45]. In addition, as V. Maiorana noted, critical thinking is a process aimed at understanding and evaluating different views, solving problems [3.56]. The skills required to be able to think critically are varied and include observation, analysis, interpretation, reflection, evaluation, inference, explanation, problem solving and decision making [3]. Although the importance of applying critical thinking lessons to students of all ages is immeasurable, we must remember our role as teachers and what we need to do to achieve their goals, and we must always organize lessons with these aspects in mind.

Certain aspects of the process of forming critical thinking in students are based on the following foundations:

- Coordination of the speed of the study process;
- Increasing the student's enthusiasm for studying;
- Taking previously acquired knowledge into account;
- Support the student's initiative and commitment;

- Learning by doing;
- Organization of bilateral exchange of opinions;
- Set up the study process correctly;
- Facilitating the learning process for teachers and students;
- Evaluation of the educational process.

In the process of learning, students' critical thinking creates multifaceted activities, and in the process of transitioning from one type of activity to another, each student develops the ability to determine his personal, specific goal. This goal creates the ground for students to engage in independent, creative activities and is the basis for developing a strict program of action.

The technology of forming critical thinking in students is implemented by pedagogues by performing special types of assignments, independent activities, and their effectiveness is realized with the help of certain criteria. If the educational process is fully directed to the student, organized on the basis of certain principles, taking into account his needs and opportunities, interests, talent, then the results of such education, first of all, are the personality of the student, along with the state, society and the factor that develops science and production. It is recommended to start using critical thinking in the teaching process from a young age [4. 254] and it is very important to adapt the lessons to the age of the children, but it is important to allow them to use their mental abilities as much as possible. Only when the educational process is adapted and improved to the different ways chosen by the students, the foundation for the formation of critical thinking is created.

Starting from the second grade, other educational games aimed at mastering grammar can be organized. For example, interesting games such as "Who is literate?", "Who is clever?", "Who am I?", "Chain", "Role-playing game", "Find the place of the word" are among them. "Who's smart?" game gives a good result in improving spelling literacy [4]. In this case, 5-6 words are written on cardboard, and the words are written correctly and incorrectly. Students are required to find the misspelled word and write it correctly. The winner of the game is determined by which student is the first to correctly write the misspelled words. In the current educational process, the student should be the subject. Focusing more on interactive methods will increase the effectiveness of education. One of the most important requirements for English language classes is to teach independent thinking. Research shows that critical thinking is not an innate or naturally formed ability, but it is no exaggeration to say that critical thinking is a taught and learned process.

## **CONCLUSION**

Extensive use of activities that develop critical thinking in the classroom - foreign language teachers require a high level of skill from the teacher in order to provide a quality learning experience to their students. Thus, critical thinking is an

important factor in teaching foreign languages. The use of this tool is important for the educational system.

#### **REFERENCES**

1. Decision PQ-1875 of the President of the Republic of Uzbekistan dated December 10, 2012 "On measures to further improve the system of learning foreign languages".
2. Элдер Л. и Пол Р. (2014) Критическое мышление: почему мы должны изменить наше учение. Журнал развития образования, 18 (1), 34-35.
3. Халперн, Д. Ф. (2018). Обучение критическому мышлению для переноса между областями: предрасположенность, навыки, обучение структуре и метакогнитивный мониторинг. Американский психолог, 53 (4).
4. Ирискулов А.Т. ва бошқалар Книжка для детей по английскому языку 2 синф –Тошкент —Узбекистон; 2014
5. Липман, М. (2011). Мысление в образовании. Кембридж: Издательство Кембриджского университета. Липман, М. (2013) Мысление в образовании. Нью-Йорк: Издательство Кембриджского университета

**HOZIRGI ZAMON PSIXOLOGIYASI VA UNING BOSHQA  
FANLAR TIZIMIDA TUTGAN O'RNI**

*Jumanazarov Lutfulla Odilbek o'g'li*

*Urganch davlat Universiteti Pedagogika fakulteti  
Psixologiya ta'lif yo'nalishi 4-bosqich talabasi*

*Bo'ribo耶ev Husniddin Bahriдин o'g'li*

*Urganch davlat Universiteti Pedagogika fakulteti  
Psixologiya ta'lif yo'nalishi 4-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada hozirgi zamon psixologiyasi va uning boshqa fanlar tizimida tutgan o'rni haqida yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Psixologiya, falsafa, ong, tafakkur, sotsiologiya, kibernetika.

**Abstract:** This article describes modern psychology and its place in the system of other sciences.

**Key words:** Psychology, philosophy, consciousness, thinking, sociology, cybernetics.

**Аннотация:** В данной статье описывается современная психология и ее место в системе других наук.

**Ключевые слова:** Психология, философия, сознание, мышление, социология, кибернетика.

Psixologiya yaxlit va mustaqil fan sifatida odamlarda gumanistik mentalitetning shakllanishiga xizmat qilib, inson omiliga aloqadorligi uning shu yo'nalishdagi muammolarni ma'lum ma'noda o'rganadigan barcha fanlar bilan bevosita aloqasini taqozo etadi. Bular birinchi navbatda ijtimoiy-gumanitar fan sohalari bo'lib, psixologiyaning ular orasidagi mavqeい o'ziga xos va yetakchidir.

1. Falsafa va uning oxirgi paytlarda shakllanib, rivojlanib borayotgan ijtimoiy falsafa qismi bilan bo'lган aloqa bu ikkala fanning inson va uning hayoti mohiyatini to'la anglash va uning rivojlanish tendentsiyalarini belgilashdagi o'rni va ahamiyatidan kelib chiqadi. Tabiat, jamiyat va inson tafakkurining rivojlanishiga oid bo'lган umumiyl qonuniyatlar va printsiplarni psixologiya falsafaning bazasidan oladi va shu bilan birga o'zi ham inson ongi va tafakkuri qonuniyatları sohasidagi yutuqlari bilan falsafani boy ma'lumotlarga ega bo'lishiga yordam beradi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, mustaqillik mafkurasi va milliy ongning shakllanishiga taalluqli umumiyl ilmiy qonuniyatlarini izlashda ham yurtimiz sharoitida bu ikkala fan-falsafa va psixologiyaning hamkorligi bevosita sezilmoqda. Bu bog'liqlik avvalo yangicha tafakkur va dunyoqarashni shakllantirish muammosi kundalang turgan tarixiy davrda

milliy mafkura va milliy g’oyani shakllantirish kabi dolzarb vazifani bajarishga xizmat qilmoqda.

2. Sotsiologiya fani ham yangicha ijtimoiy munosabatlar sharoitida o’z taraqqiyotining muhim bosqichiga o’tgan ekan, psixologiya ushbu fan erishgan yutuqlardan ham foydalanadi, ham ularning ko’lami kengayishiga baholi qudrat xizmat qiladi. Ayniqsa, psixologiyadan mustaqil ravishda ajralib chiqqan, bugungi taraqqiyot davrimizda alohida ahamiyat kasb etgan ijtimoiy psixologiyaning sotsiologiya bilan aloqasi uzviy bo’lib, ular jamiyatda ijtimoiy taraqqiyot va progressni ta’minalash ishiga xizmat qiladi. Qolaversa, xuquqiy, demokratik davlat qurish ishini sobitqadamlik bilan amalga oshirayotgan O’zbekiston aholisining xuquqiy madaniyatini va demokratik o’zgarishlarga psixologik jihatdan tayyorligini amalda ta’minalash, bu sohada muntazam tarzda ijtimoiy fikr va insonlar dunyoqarashlaridagi o’zgarishlarni o’z vaqtida o’rganish, bashorat qilish va taraqqiyot mezonlarini ishlab chiqishda ikkala fanlar metodologiyasi va metodlarini birlashtirish tadbiqiy ahamiyat kasb etadi.

3. Pedagogika bilan psixologiyaning o’zaro hamkorligi va aloqasi an’anaviy va azaliy bo’lib, ularning yosh avlod tarbiyasini zamon talablari ruhida amalga oshirishdagi roli va nufuzi o’ziga xosdir. Respublikamizda amalga oshirilayotgan yangi «Ta’lim to’g’risidagi Qonun» hamda «Kadrlar tayyorlashning milliy Dasturi»ni amalga oshirish ham ikki fan hamkorligi va o’zaro aloqasini har qachongidan ham dolzarb qilib qo’ydi. Milliy dasturda e’tirof etilgan yangicha modeldagagi shaxsni kamol toptirish, uning chuqur bilimlar sohibi bo’lib etishishi, barkamolligini kafolatlovchi shart-sharoitlar orasida yangi pedagogik texnologiyalarini ta’lim va tarbiya jarayonlariga tadbiq etishda pedagogikaning o’z uslub va qoidalari yetarli bo’lmaydi.

Shuning uchun ham psixologiya u bilan hamkorlikda yosh avlod ongingin ta’lim olish davrlaridagi rivojlanish tendentsiyalaridan tortib, toki yangicha o’qitish texnologiyalarini bola tomonidan o’zlashtirilishi va undagi aqliy hamda intellektual qobiliyatlarga nechog’lik ta’sir ko’rsatayotganligini o’rganish asosida ta’lim-tarbiya ishini tashkil etish psixologiyadagi metodlarni didaktik metodlar bilan uyg’unlashtirishni taqozo etadi. Ayniqsa, ma’naviy barkamollik tamoyillarini maktabda va yangi tipdagi ta’lim muassasalarida joriy etish ham shaxs psixologiyasini teran bilgan holda o’qitishning eng ilg’or va zamonaviy shakllarini amaliyotga tadbiq etishni nazarda tutadi.

4. Tabiiy fanlar: biologiya, fiziologiya, ximiya, fizika va b.q. Psixik xodisalar va jarayonlarning tabiiy fiziologik mexanizmlarini tushunish va shu orqali ularning kechishi qonuniyatlarini ob’ektiv o’rganish uchun material beradi. Ayniqsa, bosh miyaning hamda markaziy asab sistemasining psixik faoliyatlarini boshqarishda va ularni muvofiqlashtirishdagi rolini e’tirof etgan holda psixologiya fani tabiiy fanlar erishgan yutuqlar va ulardagi tadqiqot uslublaridan omilkorona foydalanadi.

Masalan, shaxs qobiliyatlarini diagnostika qilish uning tug'ma layoqatlari hamda orttirilgan sifatlarini bir vaqtida bilishni taqozo etgani sababli, o'sha tabiiy layoqatning xususiyatlarini aniqlashda psixofiziologiyaning qator usullaridan (miya assimetriyasi qonunlari, miya bioritmlarini yozib olish, neyrodinamik xodisalarni aniqlash, qon aylanish va tana haroratini o'lchash metodlari) o'z o'rnida foydalanadi va biologiya, anatomiya, fiziologiya, neyrofiziologiya kabi fanlarning shu kungacha erishgan yutuqlaridan foydalanadi. Shuning uchun tabiiy fanlar sohasida erishilgan barcha yutuqlar psixologiyaning predmetini mukammalroq yoritishga o'z hissasini qo'shgan.

5. Kibernetika fani sohasidagi yorishilgan yutuqlar psixologiya uchun ham ahamiyatli va zarur bo'lib, u inson shaxsining o'z-o'zini boshqarish va psixik jarayonlarni takomillashtirish borasida axborotlar texnologiyasi va kibernetika tomonidan qo'lga kiritilgan yutuqlar va tadqiqot metodlari, maxsus dasturdan o'z o'rnida foydalanadi.

Ayniqsa, ma'lumotlar asri bo'lган XX va har bir alohida ma'lumotning qadr-qimmati oshishi kutilayotgan XXI asrda informatsion texnologiyalar va modellashtirish borasida psixologiya hamda kibernetika hamkorligining salohiyati yanada ortadi.

Masalan, oddiy muloqot jarayonini yanada takomillashtirish, har bir so'zning shaxslararo munosabatlardagi ta'sirchanligini oshirish maqsadida hamda ana shunday ijtimoiy faoliyat jarayonida shaxs tizimini takomillashtirishda turli kibernetik modellaridan o'rinci foydalanish zamonaviy psixologiyaning jamiyatdagi o'rni va rolini oshiradi, maxsus kompyuter dasturlarining keng qo'llanilishi inson miyasi va ruhiy olami sirlarini tez va aniq o'rganishni kafolatlaydi.

6. Texnika fanlari bilan psixologiyaning o'zaro aloqasi va hamkorligi ayniqsa, asr oxiriga kelib yaqqol sezilmoqda. Bir tomondan murakkab texnikani boshqaruvchi inson ongi muammosini echishda, ikkinchi tomondan, psixik hayotning murakkab qirralarini ochishda maxsus texnik vositalardan foydalanish zarurati bu ikki yo'nalishning erishgan yutuqlarini birlashtirishni nazarda tutadi.

Masalaning yana bir alohida tomoni ham borki, u ham bo'lsa, texnika progressiga intilayotgan bir vaqtida murakkab texnika va mashinalar bilan «muloqot» qilayotgan shaxs faoliyatini yanada mukammallashtirish va uning imkoniyatlariga moslash masalasi ham ana shu hamkorlikda hal qilinishi lozim bo'lган masaladir.

Ayniqsa, mustaqil O'zbekiston uchun murakkab zamonaviy texnika sir-asrorlarini biladigan, uning jamiyat va fan ravnaqiga xizmatini ta'minlash qanchalik dolzarb bo'lsa, ana shu texnikaga har bir oddiy fuqaro ongi, tafakkuri va qobiliyatlarini moslashtirish va «odam-mashina» dialogining eng samarali yo'llarini izlab topishi juda muhim. Texnika bilan bemalol «tillashadigan» malakali mutaxassislar tayyorlash

borasida ham texnika fanlari pedagogika va psixologiya fanlari metodlaridan foydalana olsagina, muvaffaqiyatga erishadi.

7. Iqtisodiyot bilan psixologiyaning o'zaro aloqasi va hamkorligi ham yangilik bo'lib, ayniqsa, bozor munosabatlari bosqichma-bosqich o'tish sharoitida iqtisodiy ong hamda iqtisodiy xulqning o'ziga xos namoyon bo'lish qonuniyatlarini o'rganishda ikkala fan teng xizmat qiladi. Demak, yangi davr shaxsini tarbiyalash va uning jamiyatga moslashuvi masalasida psixologiya iqtisodiyot fanida qo'lga kiritgan yutuqlar, yangiliklar va iqtisodiy samaraga erishish omillarini hisobga olsa, iqtisodiyot o'z navbatida iqtisodiy islohotlarning ob'ekti hamda sub'ekti bo'lmish inson omilidagi barcha psixologik o'zgarishlarni aniqlash, taxlil qilish va shu asnoda bashorat qilish vazifasini echishi kerak.

### **Xulosa**

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, ta'kidlangan fan tarmoqlari psixologiya bevosita uzviy aloqada rivojlanadigan fanlarning asosiy qismi xolos. Bugungi kunda har bir fan rivoji uchun inson omilini hisobga olish zarur ekan, psixologiya o'sha barcha fanlar bilan aloqada va hamkorlikda rivojlanadi. Bu tibbiyot, qishloq ho'jaligi, kimyo va oziq-ovqat ishlab chiqarish sanoati, xuquq va madaniyatshunoslik kabi o'nlab fan sohalaridir.

Yuqorida fikrlar va psixologiya bevosita aloqador bo'lган fanlarning xarakteriga bog'liq tarzda bugungi kunda psixologiyadan nisbatan aloxida bo'lib ajralib chiqqan tarmoqlar to'g'risida ham fikr yuritish mumkin deb ayta olamiz.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1 .Ivanov I., Zufarova M. "Umumiy psixologiya". O'z.FMJ., 2008.
2. Davletshin M.G., Mavlonov M.M, To'chieva S.M. "Yosh va pedagogik psixologiya" T. TDPU, 2009 .
3. Safayev N.S., Mirashirova N.A., Odilova N.G. "Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti":– T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2013.

**BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MATEMATIKA FANIDAN  
DAVLAT TA’LIM STANDARTI TAHLILI**

*Panayeva Sevara Utkirbek qizi  
Urganch davlat Universiteti Pedagogika fakulteti  
Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 2-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Talabalarga boshlang‘ich sinflar matematika ta’limi mazmuni, tuzilishi xususiyatlariga oid ko‘nikma va malakalarini mustahkamlash, boshlang‘ich sinflar uchun matematikadan Davlat ta’lim standarti ( 2017 yil tasdiqlangan )ni puxta o‘zlashtirishni ta’minlash.

**Kalit so‘zlar:** davlat ta’lim standarti, fan, o‘quv dasturi, darslik, metod, metodika, o‘rgatish, o‘qitish, bilim, ko‘nikma, malaka, predmet, maqsad, vazifa, fanlararo bog‘liqlik. Dars materiallari: D.T.S

**Аннотация:** Закрепить умения и навыки учащихся, связанные с содержанием и структурой обучения математике в начальной школе, обеспечить углубленное освоение ГОСО по математике в начальной школе (утвержден в 2017 году).

**Ключевые слова:** государственный образовательный стандарт, наука, учебная программа, учебник, метод, методика, обучение, знание, умение, компетенция, предмет, цель, задача, междисциплинарность. Материалы урока: Д.Т.С.

**Annotation:** To strengthen students' skills and abilities related to the content and structure of elementary school mathematics education, to ensure thorough mastering of the State Educational Standard for elementary school mathematics (approved in 2017).

**Key words:** state educational standard, science, curriculum, textbook, method, methodology, teaching, teaching, knowledge, skill, competence, subject, goal, task, interdisciplinarity . Lesson materials: D.T.S

Umumiyl o‘rta ta’limning davlat ta’lim standarti davlat ta’lim standartining maqsad va vazifalarini, asosiy prinsiplarini, tarkibiy qismlarini, davlat ta’lim standartlarini joriy etish hamda davlat ta’lim standartlari talablariga rioya etilishini nazorat qilish tartibini belgilaydi. Davlat ta’lim standartini ishlab chiqish quyidagi hujjatlarga asoslanadi: O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi; «Ta’lim to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni; «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni; O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Uzluksiz ta’lim tizimi uchun davlat ta’lim standartlarini ishlab chiqish va amalda joriy etish to‘g‘risida» 1998-yil 5-yanvardagi 5-son qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Uzluksiz ta’lim tizimining chet tillar bo‘yicha davlat ta’lim standartini tasdiqlash to‘g‘risida» 2013-yil 8-maydagi 124-son qarori; O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash to‘g‘risida»gi 2017-yil 15-martdagi 140-son qarori; O‘zDSt 1.0-98. «O‘zbekiston Respublikasi standartlashtirish davlat tizimi. Asosiy qoidalar»; O‘zDSt 1.1-92. «O‘zbekiston Respublikasi standartlashtirish davlat tizimi. O‘zbekiston Respublikasi standartlarini ishlab chiqish, muvofiqlashtirish, tasdiqlash va ro‘yxatdan o‘tkazish tartiblari»; O‘z DSt 1.5-93. «Standartlashtirishga doir normativ hujjatlarni ko‘rib chiqish, tekshirish, o‘zgartirish kiritish va bekor qilish tartibi»; O‘z DSt 1157:2008. Hujjatlarni unifikatsiyalashtirish tizimi. Tashkiliyfarmoyish hujjatlar tizimi. Hujjatlarni rasmiylashtirishga bo‘lgan talablar. O‘z DSt 1.8:2009. Asosiy qoidalar. Tavsiyalar. Davlat ta’lim standartini bajarish O‘zbekiston Respublikasi hududida faoliyat ko‘rsatayotgan barcha umumiy o‘rta ta’lim muassasalari uchun majburiydir. “Standart” so‘zi inglizcha bo‘lib, “nusxa”, “o‘lcham”, “me’yor” degan ma’nolarini anglatadi. Standart, standartlashtirish me’yorlari tushunchalari DTS ta’lim mazmuni shakllari, vositalari, usullari va ularning sifatini baholash tartibini belgilaydi. Ta’lim mazmunini o‘zagi hisoblangan standart vositasida, mamlakat hududida faoliyat ko‘rsatayotgan turli ta’lim muassasalarida (davlat va nodavlat) ta’limning barqaror darajasini ta’minlash sharti amalga oshiriladi. DTS o‘z mohiyatiga ko‘ra o‘quv dasturlari, darsliklar, o‘quv qo’llanmalari, nizomlar, o‘quv rejasi va boshqa meyoriy hujjatlarini yaratish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. DTSni, uning talablarini bajarish O‘zbekiston Respublikasi hududida faoliyat ko‘rsatayotgan mulkchilik shakli va idoraviy bo‘ysinishdan qatiy nazar barcha ta’lim muassasalari uchun majburiydir. DTS ning tarkibiy qismi sifatida umumiy o‘rta (kasb – hunar va oliy) ta’lim muassasalari uchun tayanch o‘quv rejasi ishlab chiqiladi. Tayanch o‘quv reja ta’lim sohalarini meyorlash hamda ta’lim muassasalarini moliyaviy taminotini ta’minlashga asos bo‘luvchi davlat muassasalarini moliyaviy taminotini ta’minlashga asos bo‘luvchi davlat hujjati sanaladi. Tayanch o‘quv rejasi o‘quv predmeti bo‘yicha beriladigan ta’lim mazmunini ta’lim oluvchiga yetkazish uchun ajratilgan o‘quv soatlarining minimum hajmidagi miqdorini belgilaydi.

Davlat ta’lim standartlarining joriy etilishi quyidagi maqsadlar amalga oshirilishini nazarda tutadi:

- ta’limning yuksak sifatini hamda mamlakatda amalga oshirilayotgan chuqr iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarni, rivojlangan demokratik davlat barpo etish talablariga javob beruvchi raqobatbardosh kadrlar tayyorlanishini ta’minlash;

- mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollaridan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, texnika va texnologiyaning zamонавиy yutuqlaridan kelib chiqib kadrlar tayyorlash mazmunini tartibga solish;

- ta'limning demokratlashuvi, insonparvarlashuvi va ijtimoiylashuvi, ta'limoluvchilarning huquqiy va iqtisodiy bilimlari darajasini, shuningdek ta'lim jarayoni samaradorligini oshirish;
- sifatli ta'lim xizmatlari ko'rsatish, ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasida shaxsning, jamiyat va davlatning manfaatlarini himoya qilish;
- kadrlar tayyorlash sifatini va ta'limfaoliyatini baholash mezonlarini va tartibini belgilash;
- ta'limjarayonini va kadrlar tayyorlashning izchilligi va uzlusizligini ta'minlash;
- mehnat va ta'lim xizmatlari bozorida raqobatbardoshlikni taemminlash. Davlat ta'limstandartlarining vazifalari:
  - ta'lim sifatiga va kadrlar tayyorlashga, ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari turlariga nisbatan qo'yiladigan maqbul talablarni belgilash;
  - ta'limga va uning pirovard natijalariga, ta'lim oluvchilarning bilimi va kasb malakasi darajasini vaqtি-vaqtি bilan baholash tartibiga, shuningdek ta'limfaoliyati sifati ustidan nazorat qilishga nisbatan qo'yiladigan tegishli talablarni belgilovchi meyoriy negizni yaratish;
  - xalqning boy aql-zakovat merosi va umuminsoniy qadriyatlar asosida ta'lim oluvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning samarali shakllari va usullarini joriy etish;
  - ta'limning barcha turlarida ular mazmunini hamda olib boriladigan ta'lim va tarbiyani kelishib olish ularning o'zaro bogliqligini, uzlusiz ta'lim tizimida va kadrlar tayyorlashda izchillikni ta'minlash;
  - o'quv-tarbiya va ta'lim jarayoniga, pedagogik va axborot texnologiyalari bilan ta'minlashga, ta'limdarajasini nazorat qilishga, ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchilar va ularni bitiruvchilarning malakasiga nisbatan meyorlar va talablarni belgilash;
  - ta'lim va kadrlar tayyorlash sifatiga baho berishning xolis tizimini, ta'lim muassasalarini attestatsiyadan o'tkazish va akkredetatsiya qilishni joriy qilish;
  - kadrlarni maqsadli va sifatli tayyorlash uchun ta'lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta'minlash;
  - milliy standartlar talabini ta'lim sifati va kadrlar tayyorlashga nisbatan xalqaro talablarga muvofiqligini ta'minlash.

Davlat ta'lim standartining maqsadi — umumiyo'rta ta'lim tizimini mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalari hamda ilm-fan va zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan holda tashkil etish, ma'naviy barkamol va intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalashdan iborat. Davlat ta'lim standartining vazifalari quyidagilardan iborat: umumiyo'rta ta'lim mazmuni va sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilash; milliy, umuminsoniy va ma'naviy qadriyatlar asosida

o‘quvchilarni tarbiyalashning samarali shakllari va usullarini joriy etish; o‘quv-tarbiya jarayoniga pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, umumiy o‘rtta ta’lim muassasalarining o‘quvchilari va bitiruvchilarining malakasiga qo‘yiladigan talablarni belgilash; kadrlarni maqsadli va sifatli tayyorlash uchun ta’lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta’minlash; ta’lim va uning pirovard natijalari, o‘quvchilarning malaka talablarini egallaganlik darajasini tizimli baholash tartibini, shuningdek ta’lim-tarbiya faoliyati sifatini nazorat qilishning huquqiy asoslarini takomillashtirish; davlat ta’lim standartlari talablarining ta’lim sifati va kadrlar tayyorlashga qo‘yiladigan xalqaro talablarga muvofiqligini ta’minlash.

Davlat ta’lim standarti quyidagi asosiy prinsiplarga asoslanadi: o‘quvchi shaxsi, uning intilishlari, qobiliyati va qiziqishlari ustuvorligi; umumiy o‘rtta ta’lim mazmunining insonparvarligi; davlat ta’lim standartining ta’lim sohasidagi davlat va jamiyat talablariga, shaxs ehtiyojiga mosligi; umumiy o‘rtta ta’limning boshqa ta’lim turlari va bosqichlari bilan uzlusizligi va ta’lim mazmunining uzviyligi; umumiy o‘rtta ta’lim mazmunining respublikadagi barcha hududlarda birligi va yaxlitligi; umumiy o‘rtta ta’limning mazmuni, shakli, vositalari va usullarini tanlashda innovatsiya texnologiyalariga asoslanilganligi; o‘quvchilarda fanlarni o‘rganish va ta’lim olishni davom ettirish uchun tayanch va fanlarga oid umumiy kompetensiyalarni rivojlantirishning ta’minlanganligi; rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ta’lim sohasida me’yorlarni belgilash tajribasidan milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda foydalanish.

Mashg’ulotning borishi:

A maliy mashg’ulotda talabalarni faollashtirish maqsadida ularning bugungi mavzuni ongli o‘zlashtirib olishlari uchun quyidagi savollarga javoblar olinadi:

1. Davlat ta’lim standarti nima?
2. U qanday tuzilishga ega?
3. Davlat ta’lim standarti maqsadi nimalardan iborat?
4. Davlat ta’lim standarti vazifalari nimalardan iborat?
5. Davlat ta’lim standartining asosiy prinsiplarini aytинг?
6. D.T.S. Vazirlar Mahkamasining qaysi va qaysi yildagi qarorida aks ettirilgan?
7. O‘quv dasturi kim tomonidan tuziladi? Va oxirgisi qachon qabul qilingan?
8. 1-sinf matematika darslari uchun o‘quv dasturida necha soat ajratilgan?
9. 2-sinf matematika darslari uchun o‘quv dasturida necha soat ajratilgan?
10. Tayanch o‘quv rejani qanday tushundingiz?
11. 1-sinf matematika darslari uchun o‘quv dasturi bo’limdan iborat?
12. 2-sinf matematika darslari uchun o‘quv dasturida necha bo’lim bilan ajratilgan?
13. 1-sinf matematika darslari uchun ajratilgan bo’limlar nomlarini ketmasetlikda aytib bering.

14. 2-sinf matematika darslari uchun ajratilgan bo'limlar nomlarini ketmasetlikda aytib bering.

15. 1-sinf va 2-sinflar uchun matematika darslarining tuzilishini o'quv dasturdan taqqoslash asosida farqini izohlab bering?

Talabalar ikki guruhga bo'linib guruhlarga topshiriqlar beriladi:

1-guruh 1. 1-sinf o'quvchilarida shakllangan fanga oid kompetensiya elementlari izohlab tushuntiring?

2. 3-sinf o'quvchilarida shakllangan fanga oid kompetensiya elementlari izohlab tushuntiring? 2.Taqdimotga jamoa bo'lib tayyorlaning?

Eslatma: 1) ishni bajarish vaqt -15 daqiqa 2-guruh 1. 2-sinf o'quvchilarida shakllangan fanga oid kompetensiya elementlari izohlab tushuntiring?

Uyga vazifa: D.T.S. va o'quv dasturi va boshlang'ich sinf darsliklarini tahlil qilish.

### **Xulosa**

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, davlat ta'lim standartining maqsadi — umumiy o'rta ta'lim tizimini mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalari hamda ilm-fan va zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan holda tashkil etish, ma'naviy barkamol va intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalashdan iborat.

### **Foydalilanigan adabiyotlar:**

1. Jumayev M.E. Matematika o'qitish metodikasi (OO'Y uchun darslik) Toshkent. "Turon-Iqbol" 2016 yil 426 b.
2. Jumayev M.E, Tadjiyeva Z.G. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi. (OO'Y uchun darslik.) Toshkent. "Fan va texnologiyai" 2005 yil.
3. Jumayev M.E, Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasidan praktikum. (OO'Y uchun ) Toshkent. "O'qituvchi" 2004 yil.

## KORXONALARDA BRENDING MEXANIZMINI AMALGA OSHIRISH VA MILLIY BREND TIZIMINI SHAKLLANTIRISH

Abasova Gulirano<sup>1</sup>

<sup>1</sup>Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

II kurs magistranti, MEKP-01

**Abstract:** The article analyzes the actual problems of national branding in detail. Brand essence is theoretically detailed and economically based. What should be considered when creating a brand? Enriched with interesting charts and infographics.

**Key words.** brand, branding, branding process, national brand, competition, analysis, diagram, infographic, association, marketing, advertising.

**Annotatsiya:** Maqolada milliy brendning dolzarb muammolari batafsil tahlil qilinadi. Brend mohiyati nazariy jihatdan batafsil va iqtisodiy jihatdan asoslangan. Brend yaratayotganda nimalarga e'tibor berish kerakligi to'g'risida fikr yuritilgan. Qiziqarli diagramma va infografiyalar bilan boyitilgan.

**Kalit so'zlar.** brand, breeding, breeding jarayoni, milliy brend, raqobat, tahlil, diagramma, infografika, asotsiatsiya, marketing, reklama.

**Kirish.** Mamlakatimizning ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga bosqichma – bosqich o'tishga asoslangan hozirgi siyosati, korxonalar va tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil qilish va korxonalardagi iqtisodiy munosabatlarni bozor iqtisodiyoti talablariga moslashtirish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Har bir korxona raqobatda kutilmagan tadbirlarni amalga oshirish natijasida biznes sohasida yangi rivojlanish yo'llari ortib bormoqda. Iste'molchilar va mahsulot yetkazib beruvchilar orasidagi munosabatlarni bozor tamoyillari orasida tartibga solishning bugungi bosqichida tovar ishlab chiqaruvchilarning ishlab chiqarish, sotish strategiyasini takomillashtirish, shuningdek brending siyosatini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Xorijiy kompaniyalarda brending mexanizmini amalga oshirish siyosatini o'rganish masalalari bo'yicha chet el olimlaridan D.Aaker<sup>1</sup>, Kumar V, Tomas Gad<sup>2</sup> va boshqalarning bar qator asarlari ushbu sohadagi tadqiqotlarga bag'ishlangan. MDH mamlakatlari iqtisodchilarining asarlarida ham marketing strategiyasini rejallashtirish muammolari o'z aksini topgan bo'lib, ulardan V.E.Demidov, P.S.Zavyalov, N.E.Kapustina, A.N.Romanov,

<sup>1</sup> Аакер Д. Создание сильных брендов. – М.: Издательский дом Гребенникова, 2013; Аакер Д., Кумар В. и др. Маркетинговые исследования: 7-е изд. / Под ред. Божук С.; Пер. с англ. – СПб.: Питер, 2014. – 848 с.; Аакер Д. Стратегическое рыночное управление. – СПб.: Питер, 2021;

<sup>2</sup> Thomas Gad – 4DBranding//\*www.4dbranding.com\*/

E.A.Utkin, E.P.Golubkov, G.A.Bagiev, L.T.Danchenok, V.A.Shergorstev, G.L.Gardariki, Igor Mann va boshqalarni alohida ko'rsatish mumkin. O'zbekistonlik marketolog olimlar, xususan A.Bekmuradov, M.Yusupov, J.Jalolov, A.Fattahov, Sh.Ergashxodjaeva va boshqalar ham marketing nazariyasi va amaliyotining rivojlanishiga katta hissa qo'shmoqdalar. Shu bilan bir qatorda xorijiy kompaniyalarda brending mexanizmini tashkil etish va amalga oshirish siyosati yetarli o'r ganilmagan. Shuning uchun ushbu mavzuni chuqurroq o'r ganishga va tahlil qilishga harakat qilindi.

**Metodologiya.** Ushbu maqolaning metodologiyasini abstraksiya, deduksiya, tasniflash, umumlashtirish, qiyosiy, dinamik qator, nazariy talqin va tahliliy uslublardan foydalanilgan. Shuningdek, ushbu mavzu yuzasidan to'plangan ma'lumotlar qayta ishlanib jadvallar, diagramma va infografikalar tayyorlandi. Xususan, abstraksiya usulida bir nechta xorijiy brendlар tanlab olishib ular bo'yicha tahlilar olib borildi. Umumlashtirish metodi orqali milliy brendlарimizni umumiyl jihatlari nimalardan iborat bo'lishi kerakligi ochib berildi.

**Tahlil va natija.** Yuqori texnika va texnologiyalarning rivojlanishi zamonaviy biznes olamini raqobatbardosh brendlarga aylantirib yubordi va bu bilan bozorni egallashda afzalliklar yaratdi. Zamonaviy brendlар kompaniya faoliyatida muhim komponentga aylandi. Kompaniyaning brend belgilari ishonch, mustahkamlik, iste'molchilarda ma'lum bir darajada ularga nisbatan umidvorlik yaratildi. Brendlар iste'molchilarning ongini zabit etish strategiyalarini kuchaytirdilar. Brendlар mahsulotga o'xshab ishlab chiqarilmaydi, ular iste'molchilar tafakkurida shakllanadi, shu bilan birga mahsulotga nisbatan emotsiyal bog'liqlik yaratadi.

D. Aaker brendning ikkita darajali tizimini yaratadi. Bu erda markazda mahsulotni berib, atrofida unga bog'liq bo'lган asotsiatsiyalarni belgilaydi (1-rasm).



**1-rasm. A.Akerning brendni tashkil etadigan tizimlari<sup>3</sup>**

<sup>3</sup> Аакер Д. Создание сильных брендов. – М.: Издательский дом Гребенникова, 2013

Brendning iste'mol ko'lami qanchalik keng bo'lsa, iste'molchi bilan oradagi munosabatlar ham shunchalik yaxshi bo'ladi. Masalan, "Беседа" choyini olaylik, mahsulotning asotsiatsiyasi xalqning choy ichish urf-odatlariga, oilaviy choy atrofidagi yig'ilib o'tirishlariga bog'lagan. Bunday munosabat brendning "Беседа" deb atalishiga monan bo'lgan.

Maqsadli auditoriyani aniqlab, raqobatchilar doirasini aniqlab, siz ma'lum afzallikkarga va'da sifatida belgilanadigan va uning asosida yotadigan brend g'oyasini yaratishga kirishishingiz mumkin. Bu markaning o'ziga xosligi shakllanadigan yadroning bir turi. Masalan, Volvo uchun - "xavfsizlik", Relex - "obro'-e'tibor", Bic - "soddalik va yengillik", Reebok - "faollik" va Camel - "sayohat ruhi". Ushbu bosqichda tovar menejeri uchun eng muhim vazifa - uning nomi bilan bog'liq bo'lishi kerak bo'lган tovarning ijobiy fazilatlarini aniqlash. Tovar identifikatori individual tovar elementlaridan tashkil topgan bo'lib, ular marketing adabiyotlarida tovar identifikatorlari yoki atributlari deb nomlanadi.




**2-rasm. Brendning asosiy atributlari<sup>4</sup>**

<sup>4</sup> Muallif ishlanmasi

Brend atributlari - bu mahsulot yoki xizmat bilan bog'liq bo'lgan sezgir xususiyatlar to'plami. Odatda tovar atributlari mahsulotning tashqi ko'rinishini, uning jismoniy xususiyatlarini, tovar nomini, uning belgilarini, qadoqlarini va boshqalarni o'z ichiga oladi. (2-rasm).

Brendning o'ziga xosligini yaratish shartlaridan biri bu barcha tovar belgilarini doimiy ravishda bo'lishishdir. Ammo bu mutlaqo barcha identifikatorlardan foydalanmasdan tovar yaratib bo'lmaydi degani emas.

Tajriba shuni ko'rsatadiki, aksariyat brendlari uchun ularning ikkitasini yoki uchtasini birgalikda ishlatalish kifoya va ular bir-biri bilan uyg'un bo'lishi, tovar o'ziga xosligining umumiy tizimiga mos kelishi va iste'molchilarning istaklari va umidlarini hisobga olishlari kerak (3-rasm).



### **3-rasm. Brend atributlariga qo'yiladigan talablar<sup>5</sup>**

Tovar shiori ham uning belgisi kabi juda muhimdir. U yordamchi yukni ko'taradi, iste'molchiga boshqa tovar identifikatorlarini va birinchi navbatda uning ismini eslab qolishiga yordam beradi, shuningdek, brendning asosiy g'oyasini idrok etish va yodlashga yordam beradi. Muvaffaqiyatli shiorlar ko'pincha insonning butun histuyg'ularini ifodalovchi so'zlarga aylanadi. Bunga pivo brendlardan birining shiori - "Biz tez-tez uchrashib turishimiz kerak". Yoki, "Siz nimani yesangiz, farzandingiz ham shuni yeydi".

Shiorlarning quyidagi turlari ma'lum:

- tovar shiori - savdo markasining nomi ham shiorda, ham reklama intrigi markazida joylashgan;

<sup>5</sup> Muallif ishlanmasi

- korporativ shior-missiya - kompaniyaning falsafasini ifodalaydi, o'z nomini bukletda va logotip ostida olib boradi, shiori - reklama shiorlari yozilgan "shit" ("Har doim Coca-Cola");

- ixtiyoriy shior - bu rejalashtirilgan harakatlarga hamrohlik qilish uchun maxsus ishlab chiqilgan, bir xilda izchil bo'lishi va korporativ shior-missiyaga zid bo'lmasligi kerak.

Marketologlarning fikriga ko'ra, tovar shiori sinovining eng yaxshi usuli bu: Ko'zlarining yuming, shiorni ayting. "Mahsulot nomi kiritildi - hatto eng yaxshisini orzu qila olmaysiz."

Dastlabki shiorlardan biri bitta tashabbuskor nemis Aleksandr Pushkindan quyidagi so'zlarni sotib olganida paydo bo'lgan degan versiya mavjud: "kunduzdan tiniq, tundan qorong'i". U ushbu so'zni yuklash mumi qutilariga joylashtirdi. Rasmiy ravishda birinchi shior Kodak shiori - "Tugmachani bosasiz, qolganini biz qilamiz" (1891). Qizig'i shundaki, "Maksvell kofe oxirgi tomchisiga qadar yaxshi" shiori 1918 yilda AQSh prezidenti Teodor Ruzvelt tomonidan ixtiro qilingan.

Reklama samaradorligining 75% muvaffaqiyatli shioriga bog'liq deb ishoniladi, chunki agar shior iste'molchiga qiziq bo'lmasa, unda matnning qolgan qismi ham qiziqish uyg'otmaydi.

Brendlashda shrift va rang nomi, savdo belgisi va shiori kabilar muhimdir. E'tiborni jalb qilish, vizual idrok etish uchun maqbul shartsharoitlarni yaratish brendning ushbu tarkibiy qismlariga bog'liq.

Shriftni tanlash bo'yicha universal ko'rsatmalar mavjud:

1) reklama uchun serif shriftidan foydalanish tavsiya etiladi - bu gorizontal "tayoqchalar" bilan qilingan har bir harfning vertikal elementlari (to'rtburchaklar shaklida ham, yaxlitlash shaklida ham). Bunday "tayoqchalar" iste'molchining ko'zları uchun mos yozuvlardir: o'qish qobiliyatiga ega bo'lgan kattalar tepadan boshlab o'qiydi, ya'ni. qarash harflarning yuqori qismiga yo'naltirilgan, tanish belgilari ularning konturlari bilan tan olinadi;

2) shriftni o'qish oson bo'lishi kerak, ya'ni. Ko'p sonli ma'lumotni qo'lda yozilgan shriftda yoki asl konturli harflar bilan berish befoyda - nafis ligatura qiziqishni uyg'otishi mumkin, ammo bu ma'lumotni tez o'qish va idrok etishga xalaqit beradi. O'qish qobiliyatiga quyidagilar ta'sir qiladi: shrift uslubi, harf qalinligi va hajmi, chiziq uzunligi, so'zlar orasidagi bo'shliq, satrlar orasidagi xatboshilar orasidagi masofa.

Ba'zi g'ayrioddiy shriftlar mavjud:

- yumaloq shakllarning ko'pligi tufayli do'stona ko'rinishga ega bo'lgan shriftlar;
- tasvirning individualligini ta'kidlaydigan, lekin asosiy matnda ishlatalishi tavsiya etilmaydigan dekorativ shriftlar, chunki ular idrok qilishga xalaqit beradi;

- ma'lum bir yuzsizlik va mexanizm taassurotini yaratadigan burchakli shriftlar;
- do'stona va ochiqlik ifodasini beradigan qo'lda yozilgan shriftlar.

Shriftlar har xil shakllarning yonma-yon, ichki va tashqi tomonlariga joylashtirilgan, shuning uchun ularning belgilanishini bilish muhimdir:

- 1) aylana - bu abadiylik va to'liqlik, shuningdek vaqt ni boshqarmaslik belgisidir;
- 2) ellips yoki oval - evolyutsiya, zamonaviylik, taraqqiyot, yangilik belgisi;
- 3) uchburchak hayotiylig belgisidir;
- 4) kesishgan uchburchaklar - qarama-qarshi tomonlar uyg'unligining ramzi;
- 5) kvadrat - simmetriya, barqarorlik va tartib belgisidir;
- 6) to'rtburchak tanish, qulay va tanish bo'lgan belgidir.

Keling, shriftlarning belgilaridagi samaradorligini tahlil qilaylik. Bitta tavsiyanomada tovar uchun maqbul bo'lgan serif shrifti eslatib o'tilgan. Biroq, tashqi reklamada u deyarli ishlamaydi (Times shrifti hamma joyda oqlangan ko'rindi, ayniqsa kichik harflar haqida gap ketganda), chunki to'g'ridan-to'g'ri shriftlar belgining o'zi ishlab chiqarishga mos keladi. Buning sababi shundaki, belgilar iste'molchi tomonidan juda tez o'qilishi kerak va seriflar birlashganda o'qishni qiyinlashtiradi. Choplangan shriftlar yozuv belgilariga eng mos keladi: "Helvetica", "Futura", "Tahoma", "Arial Bold". Keyinchalik samarali ta'sirga erishish uchun harflar orasidagi masofani biroz oshirish kerak.

To'g'ridan-to'g'ri turdag'i belgilar arzonroq, chunki ularni yig'ish osonroq. Bundan tashqari, to'g'ri harflar seriflarga qaraganda bir xilroq yoritilgan, chunki ikkinchisi turli xil qalinliklarga ega, bu ularning idrok sifatini pasaytiradi. Belgini ishlab chiqarish uchun bir vaqtning o'zida ikki yoki uchta shriftdan foydalanish mumkin - asosiysi chiziqlar orasidagi masofani va harflar orasidagi masofani kuzatishdir.

Milliy brendning rivojlanishi ham brending jarayonini qay darajada tashkil topganiga bevosita bog'liq. Brending jarayoni – bu boshqaruv faoliyatining majmui bo'lib, brending tizimida operatsiya va protseduralarning o'zaro, uyg'un mos ravishda ta'minlovchi usul va uslublardan iborat.


Brending jarayoni davriy xususiyatga ega bo'lib, quyidagi bosqichlardan tashkil topadi:

- 1- Bosqich. Xaridorlarning ehtiyoji va qiziqishi asosida axborot ma'lumotlarini yig'ish va uni tahlil qilish, savdo markasiga bo'lgan munosabatini o'rganish, hamda raqobatchi brendlarning xatti-harakatlarini kuzatish;
- 2- Bosqich. Brendning straregik barqarorligini ta'minlab berish uchun qarorlar ishlab chiqish va uni qabul qilish;
- 3- Bosqich. Qabul qilingan qarorlarni amalda qo'llash;
- 4- Bosqich. Boshqaruv qarorlarining amalda qo'llanilish jarayonini nazorat qilish;

5- Bosqich. Qarorning bajarilishini muvofiqlashtirish.

Umuman, korxonada brend qurish texnologiyasining asoslari quyidagilar bo'lib hisoblanadi:

1. Brendning mohiyatini aniqlash.
2. Brend nomini tanlashda ratsional va emotsiyal aspektlarni inobatga olish.
3. Brend mohiyati va asotsiatsiyalarini tarkumlanishini tahlil qilish.
4. Brendning ustunliklarini uni pozitsiyalashda hisobga olish.
5. Brend va uning atrofida o'rabi turgan omillarni ketma-ketligini modellash.



## **2-rasm. Brend mohiyati va unga ta'sir etuvchi asosiy omillar<sup>6</sup>**

Brendingda empirik marketing strategiyasi ahamiyatga ega hisoblanadi. Chunki bu marketing bo'yicha brend – bu empirik havotirlikning yo'naltiruvchisidir, ularga nomlar, logotiplar, ishoralar, marketing voqealar, iste'mol qiluvchilar bilan aloqa va boshqalar kiradi.

Bunga formula qilib, "Brend = Identifikator", ya'ni brend kimga tegishli ekanligi va shu orqali brend sifatini belgilab berishga qaratilgan bo'lishini aytishimiz mumkin. Yana "Brend = Xavotirlik", bu insonning his-tuyg'uga javob beradigan organlariga ta'sir etib, aql-idrok va yurakni zabit etishga qaratiladi.

1-jadval

Brendingda empirik marketing strategiyasiga asoslanga empirik model<sup>7</sup>

<sup>6</sup> Muallif ishlanmasi.

<sup>7</sup> Muallif ishlanmasi

	His-tuyg'u	Brend reklamasi eshitayotgan iste'molchilar ning eshituvchi va ko'ruchchi retseptorlariga ta'sir etish uchun qaratiladi. Video ketma-ketlik ularga shunday bir kuch orqali ta'sir etishi mumkin-ki, iste'molchilar ning bu brend to'g'risidataassuroti ko'tarilishi mumkin. Masalan, "Tide" kompaniyasining reklamasida o'z obrazini tog'dagi tozalik va musaffolikka ko'tarib, asotsiatsiyalarini esa: tog' havosi, gullar ustidagi shudring va tog' cho'qqisidagi qorlar bilan bog'lagan.
	Sezish	Bunda reklama o'z brendini sezish, emotsiyonal holatini ko'tarishga, tomoshabinlarni shu obrazga kirishiga harakat qiladi. Masalan, "Camay" sovuni o'z reklamasida sovunga tegishingiz bilan o'zingizni Parijda, Eifel minorasining oldida bo'lib qolgandey ko'rsatib bergen.
	Fikrlash	Bunda brend o'z iste'molchilarini fikrlashga undaydi. Unda ko'pincha kadr ortidagi tekstlar va tushuntirishlar beriladi.
	Harakat	Bunday reklama roliklari harakat orqali hayot tarzingiz o'zgarishini ko'rsatadi. Masalan, soqol olish uchun mo'ljallangan "Gillette" brendi o'zining yangi Max-3 mahsulotini yaratish uchun 6 yil va 750 mln. doll. sarf qildi. Video ketmasetlikda bir qo'lning soqol olish uchun bo'lgan harakati samolyotning uchishi bilan solishtirilgan.
	O'zaro bog'lash.	Bunday reklamada ite'molchini brend o'ziga bog'lab qo'yadi. Masalan, "Harley – Davidson" mototsikllari o'z reklamasida oddiy uch kishini mototsikl mingandan keyin baykerlarga aylantirib, siz ham ularning bittasi bo'lishingiz mumkinligi haqidagi ehtiyojini tug'dirish uchun harakat qilgan.

**Xulosa.** Brendlar mahsulotga o'xshab ishlab chiqarilmaydi, ular iste'molchilar tafakkurida shakllanadi, shu bilan birga mahsulotga nisbatan emotsiyonal bog'liqlik

yaratadi. Brending – tovarni bozordagi faoliyatini oshirish uchun qo'llanilib, tovar belgisi, markasi, qadog'i, reklamasi va boshqalar bilan birgalikda, mahsulotni raqobatchi kompaniyalardan ajralib turishiga va o'ziga xos obraz yaratishiga yordam beradi.

Sifatli mahsulot ishlab chiqarishiga qaramay, o'zbek ishlab chiqaruvchilarining odatiy muammosi – ular qadoqlash, qadoq dizayni va reklamadan to'g'ri va samarali foydalanishmaydi. Tashqi ko'rinishidan sifatsiz bo'lgani uchun, biz ishlab chiqargan mahsulotlar qo'shni mamlakatlar bilan raqobatlasha olmayapti. Qachongacha o'zbek iste'molchisi: “O'zbekiston mahsulotlarini sotib olish o'rniga, yaxshisi Qozog'istonning mahsulotidan (yog', pishloq) ola qolay” degan fikr bilan yashaydi. Rossiyaning mahsulotlari haqida gapirmasa ham bo'ladi. Ular allaqachon chiroyli qadoqlanib, reklama qilib berilgan.

Ko'pchilik, fransuzlarning “Grey Goose”i bilan ruslarning “Столичная” aroqlari o'rtasidagi farqini kuchli marketing va reklamaning to'g'ri yo'lga qo'yilganidan deb bilmaydi. Vaholanki shunday, aynan yuqoridagi 2 omil tufayligina “Grey Goose” o'z sohasida yetakchi. Aroq bozori faqat brending asosida ushlab turiladi. Bir xil tarkib, bir xil ta'm va bir xil texnologiya. Hammasi bir xil, faqat “Grey Goose” dagi elitpozitsiya va elit reklamalardan boshqa. Shuning uchun “Grey Goose” premium klassdagi tovar, “Столичная” bo'lsa odatiy iste'mol uchun deb e'tirof etiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Philip Kotler, Kevin Lane Keller. Marketing Management. Pearson Education, Inc., publishing as Prentice Hall, United States of America 2012 y.;
2. Ден С. Кеннеди. Жесткий бренд-билдинг. Изд.: Алпина паблишер, 2017.-290 стр.;
3. Лейни Т.А., Семенова Е.А., Шилина С.А. Бренд-менеджмент. М.:Дашков и Ко, 2018. – 134 с.
4. Басовский Л.Е. Маркетинг: Курс лекций. –М.: ИНФРА-М, 2019. – 219с

# INFLYASION TARGETLASH REJIMINI QO'LLASH MAKROIQTISODIY BARQARORLIK VA AHOLI FARAVONLIGINI TA'MINLASHNING ZARURIY SHARTI

*Pardayev Taxir Mavlanovich<sup>1</sup>  
TDIU, 2-kurs Makroiqtisodiyot magistranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekiston sharoitida inflyatsiyaga qarshi siyosat rejimining tanlanishi, O'zbekiston Markaziy bankining vazifasi, inflyatsion targetlash pul-kredit siyosatini olib borishning eng ommabop usullaridan biri ekanligi, narxlar barqarorligini ta'minlash, inflyatsion targetlash rejimi bir necha makroiqtisodiy maqsadlarga erishish imkonini berishi hamda asosiy stavka haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** inflyatsiya, O'zbekiston Markaziy banki, inflyatsion targetlash, pul-kredit siyosati, narxlar barqarorligi, asosiy stavka.

O'zbekiston sharoitida inflyatsiyaga qarshi siyosat ejimining tanlanishi qator sabablar bilan izohlanadi. Bugungi kunda inflyatsion targetlash pul-kredit siyosatining ta'sirchan rejimi sifatida o'zini namoyon qilib, o'rta muddatli istiqbolda narxlar barqarorligini ta'minlash maqsadiga eng muvofiq keluvchi rejim hisoblanadi.

**Kirish.** Har bir davlat Markaziy bankining, shu jumladan, O'zbekiston Markaziy bankining vazifasi inflyatsiyani jilovlashdir. Darhaqiqat, so'mning qadrsizlanishi va erkin konvertatsiyaga o'tish davrida (2017—2019-yillar) mamlakatda inflyatsiya yuqori darajada, ya'ni, o'rtacha 15 foiz atrofida bo'lgan. Ammo 2020-yilga kelib Markaziy bank inflyatsiya darajasini 11,1 foizgacha tushirishga muvaffaq bo'ldi. Inflyatsiyani doimiy ravishda past darajada ushlab turish Markaziy bankning ustuvor vazifasidir.



**1-rasm. Inflyatsiyani targetlash rejimiga bosqichma-bosqich o'tish<sup>1</sup>**

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi

**Asosiy qism.** Yuqorida keltirilgan rasmdan aniqlashimiz mumkinki, Inflyatsiyani targetlash rejimiga bosqichma-bosqich o'tish O'zbekiston prezidentning 2019-yil 18-noyabrdagi farmonida tasdiqlangan bo'lib, Farmonga muvofiq, Markaziy bank 2019-yildan 2022-yilgacha 7,5 foizgacha va 2023-yilga kelib 5 foizgacha pasayishini ta'minlaydi. Xalqaro valyuta jamg'armasiga ko'ra, O'zbekiston Markaziy banki inflyatsion targetlash tizimiga tasdiqlangan muddatda to'liq o'tishiga ijobjiy baho berilgan.

Hozirgi kunda inflyatsion targetlash pul-kredit siyosatini olib borishning eng ommabop usullaridan biri bo'lib, ushu usul jahondagi 40 dan ortiq mamlakatlarda qo'llanilmoqda. Inflyatsiyaning maqsadli ko'rsatkichi (targeti)ga erishish uchun pul-kredit siyosati mexanizmlari bosqichma-bosqich ushu rejimga o'tkazilib, inflyatsiyani pasaytirishda samarali instrument sifatida foydalilaniladi. O'z navbatida, ushu rejimning qo'llanilishi narxlar barqarorligini ta'minlash orqali o'rta muddatli istiqbolda mustahkam va barqaror iqtisodiy o'sish uchun qo'shimcha sharoitlar yaratishi mumkin.

Shu bilan birga, Markaziy bank inflyatsiya darajasining eng mos maqsad (target)ini aniqlab olib, unga pul-kredit siyosati instrumentlarini qo'llash, iqtisodiy rivojlanishni muntazam tahlil qilish va pul-kredit siyosati rejalarini keng yoritish orqali erishadi.

Markaziy bank inflyatsiyaning erishilishi zarur eng mos maqsad (target)ini (masalan, inflyatsiyaning 5 foizli darajasiga erishish) o'matib, ushu targetni pul-kredit siyosati instrumentlaridan foydalangan holda saqlashi lozim.

Narxlar barqarorligini ta'minlash inflyatsion targetlash rejimiga o'tishda samarali usullardan biri bo'lib, u o'z navbatida, "O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida"gi Qonunga muvofiq, Markaziy bankning bank tizimi va to'lov tizimlari ishslashining barqarorligini ta'minlash singari asosiy maqsadlari qatorida turadi. Past darajadagi va progonoz qilinadigan (barqaror) inflyatsiya mamlakatda barqaror iqtisodiy o'sish uchun juda zaruriy omil hisoblanadi. Binobarin, inflyatsion kutilma tijorat banklari tomonidan kredit ajratishda undagi foiz stavkasiga qo'shiladi hamda yuqori inflyatsion kutilma kredit foiz stavkasining yuqori bo'lismiga olib keladi.

Barqaror iqtisodiy o'sish uchun past darajadagi va progonoz qilinadigan (barqaror) inflyatsiya markaziy banklar uchun zaruriy shartlardan biri hisoblanadi. Shu sababli, past darajadagi va progonoz qilinadigan (barqaror) inflyatsiyani ta'minlash aksariyat markaziy banklar tomonidan ularning uzoq muddatli maqsadi (target) sifatida belgilanadi.

Inflyatsion targetlash rejimi bir necha makroiqtisodiy maqsadlarga erishish imkonini beradi:

- narxlarning keskin oshishi va yuqori inflyatsiyani oldini olish;
- pul bozorini shakllantirish, pul bozorini segmentlash sabablarini bartaraf etish;
- ichki va tashqi omillarni hisobga olgan holda, aholi va tadbirkorlarning to'lov qobiliyatini qo'llab-quvvatlash hamda moliya sektorining barqarorligini ta'minlash.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki inflyatsion jilovlash rejimi sharoitlarida pul kredit siyosatining quyudagi instrumentlari foydalaniadi:

Inflyatsion targetlash rejimida inflyatsiya darajasini ushlab turish uchun pul-kredit siyosatining asosiy instrumentlaridan biri bo'lib, Markaziy bank tomonidan belgilanadigan asosiy stavka hisoblanadi.

Markaziy bank asosiy stavkani o'zgartirish orqali tijorat banklari tomonidan omonat va kreditlar bo'yicha taklif etiladigan foiz stavkalariga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu o'z navbatida, umumiylab orqali iqtisodiyotdagi narx darajasiga ta'sir ko'rsatadi.

**O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan inflyatsion targetlash rejimiga bosqichma-bosqich o'tilayotgan bo'lib, 2023 yilda 5 foiz darajadagi inflyatsion maqsad (target)ga erishish rejalashtirilgan.**

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va uning inflyatsiyaga qarshi kurashdagi asosiy vazifalaridan biri bu Markaziy bank asosiy stavkasi – pul kredit siyosatining asosiy instrumentlaridan biri hisoblanadi. Banklararo pul bozoridagi foiz stavkalari, shuningdek, Markaziy bank tomonidan bank tizimiga likvidlikni taqdim etish bevosita asosiy stavkaga bog'liq.

Asosiy stavka iqtisodiyotdagi foiz stavkalari darajasiga, shuningdek, aholi va biznesning iste'mol va investitsion (sarmoya kiritish) qarorlariga ta'sir ko'rsatgan holda ichki talab va inflyatsiya darajasi o'zgarishida ahamiyat kasb etadi.

Shuni ham alohida ta'kidlash kerakki, asosiy stavka darajasi Markaziy bank boshqaruvi majlislarida pul-kredit siyosati sharoitlari, joriy va kutilayotgan inflyatsiya darajasi hamda makroiqtisodiy holatni inobatga olgan holda belgilanadi. Odatda, agar inflyatsiya darajasi ko'tarilsa, Markaziy bank ham asosiy stavkani ko'taradi. Agar inflyatsiya darajasi pasaysa, bunda Markaziy bank asosiy stavkani pasaytiradi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining monetar siyosatini asosiy vazifalardan biri ham inflyatsiya sur'atlarini pasaytirishdan iborat. Chunki Markaziyy bankning monetar siyosatin to'g'ri olib borilishiga ta'sir qiluvchi omillardan biri bo'lib inflyatsiya hisoblanadi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 22 oktyabrdagi yangi tahrirda qabul qilingan "**Valyutani tartibga solish to'g'risida**"gi O'RQ-573-sonli qonuni valyuta munosabatlarini tartibga solishda Markaziy bankga katta erkinlik berilgan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 11 noyabrdagi yangi tahrirda qabul qilingan "**O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank to'g'risida**"gi O'RQ-582-sonli qonuni Markaziy bank bosh maqsadini aniq belgilab bergen bo'lib, bunda uning bosh maqsadi mamlakatda narx barqarorligini ta'minlash ekanligi keltirilgan.

**Xulosa.** O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki mamlakat iqtisodiyotida narx barqarorligini ta'minlashda muhim ikki zaruriy shartga e'tibor qaratishi lozim. Bular, birinchidan iqtisodiy o'sish va inflyasiya darajasi o'rtasidagi optimal balansga erishish hamda ikkinchidan inflyasiyaning prognoz ko'rsatkichi bilan uning maqsadli ko'rsatkichi o'rtasidagi tavofutni kamaytirishda Markaziy bank pul-kredit siyosati transmission mexanizmi rivojlangan bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Chunki rivojlangan davlatlar tajribasidan foydalangan holda Markaziy bank "arsenal"ida inflyasiyaga yetarlicha ta'sir ko'rsatadigan transmission mexanizm kanallarini rivojlantirish hayotiy muhim va dolzarb sanaladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. <https://finlit.uz/uz/articles/monetary-policy/base-rate/>
2. file:///C:/Users/Admin/Downloads/zbekiston-i-tisodiyoti-musta-il-tara-iyotining-mu-im-natizhalari-amda-isti-bolli-y-nalishlari.pdf
3. <https://daryo.uz/2017/09/04/yuliy-yusupov-inflyatsiya-nimasi-bilan-zararli-vaunga-qarshi-qanday-kurashish-mumkin>
4. <https://mineconomy.uz/uz/node/2408> <https://finlit.uz/uz/articles/monetary-policy/concept-of-inflation/>

## INTERJECTIONS IN NONVERBAL COMMUNICATION

***Khaydarova Dilnavoz Rakhimovna***

*Master's Degree student of National University of Uzbekistan*

### **Abstract**

The paper attempts to clarify the pragmatic features of interjections in non-verbal communication in English and Uzbek languages, depending on the situation of communication and general context. Historically, interjections can be defined in two different points of view: as a part of linguistic sphere, or as a non-verbal communication tool signifying feelings of states of mind. Usage of interjections is particularly important for an adequate perception of paralinguistic tools, body movements, gestures and facial expressions. Fiction literature is a rich source to define more exactly not only the meanings of interjections in non-verbal communication in English and Uzbek languages, but the description of the sphere of these units' functions.

**Keywords:** Interjection, Non-verbal Communication, Emotional State, Context, Paralinguistics.

### **INTRODUCTION**

Interjection is a part of speech that occurs as an utterance on its own and expresses a wide variety of spontaneous feeling or reaction such as happiness, anger, sadness, interest, curiosity, hurt, annoyance, anxiety, embarrassment, pleasure, hope, etc. Likewise, non-verbal communication occurs without using any oral or written word to convey these information counted above. Non-verbal communication increases understanding of messages and interjections can put more emphasis and reinforcement to the information being said. Process of sending and receiving of message is successful and gets desired results while using both of them accordingly. The ongoing researches about interconnection between non-verbal communication and interjections performs different views and opinions. In this paper, we assess the relative strengths and weaknesses of different approaches that reflect the relationship between non-verbal communication and interjections, and suggest a new analysis which preserves the insights of both. Interjections have a natural and a coded element, and are better analyzed as falling at various points along a continuum between 'showing' and 'saying'. This correlation is characterized in theoretical terms, and some implications of the proposed approach are considered.

### **Materials and Methods**

*The term "interjection" arises from the Latin *inter* meaning between" and *jacer* meaning "throw". They are words or constructions with no real linguistic value but*

*we generally employ them to express feelings or states of mind in daily life situations. We use interjections more in speaking than in writing. Examples in English include ‘wow’, ‘ouch’, ‘oops’, “er”, “huh”, “gee”, “ooh”, “uh”, “aha”, “brrr”, “shh”, “ahem”, “psst”. In Uzbek “voy”, “oh”, “eh”, “dod”, “pisht”, “tish” etc. Interjections may be primary and secondary. Primary interjections are not derived from other parts of speech. Secondary interjections are derived from other parts of speech. They are homonymous with the words they are derived from. They are: “well”, “now”, “here”, “there”, “come”, “why” etc.*

Historically, interjections have often been seen as marginal to language. Latin grammarians described them as non-words, independent of syntax, signifying only feelings or states of mind. Nineteenth-century linguists regarded them as para-linguistic, even non-linguistic phenomena: “between interjection and word there is a chasm wide enough to allow us to say that interjection is the negation of language” (Benfey 1869: 295); “language begins where interjections end” (Müller 1862: 366). Sapir described interjections as “never more, at best, than a decorative edging to the ample, complex fabric of language”.

The origin of studies about relationship between non-verbal communication and interjections started with ‘The Expression of the Emotions in Man and Animals’. Darwin (1872) noted that “emission of sounds” was “efficient in the highest degree as a means of expression”, and although the book was largely about facial expression, he made some passing observations about interjections: “Moderate disgust is exhibited in various ways; by the mouth being widely opened, as if to let an offensive morsel drop out; by spitting; by blowing out of the protruded lips, or by a sound as of clearing the throat. Such guttural sounds are written as ach or ugh; and their utterance is sometimes accompanied by a shudder ...”

Contemporary research into the vocal expression of emotions, however, has focused on prosodic properties of the voice rather than on expressive sounds; and the study of emotional expression has been overall dominated by facial, rather than vocal, expression. And here interjections perform the characteristics of non-linguistic means.

Among linguists, interjections and non-verbal communication have generally been a marginal topic because they seem to be at the periphery of the language system (Ameka, 1992). Significant monographs exist in German (Ehlich, 1986; Graf, 2010), Italian (Poggi, 1981) and Russian (Šaronov, 2008), but they have not had much impact on Anglophone linguistics. A number of linguistic works on interjections have appeared in studies on discourse and/or pragmatic markers, e.g. Schiffren (1987: Ch 4), Aijmer (2004), Norrick (2008). The most substantial linguistic works in English have been undertaken by researchers in the Natural Semantic Metalanguage (NSM) paradigm, especially the papers in Ameka (1992), and also Wierzbicka ([1991] 2003). Sociologists and anthropologists have made limited but useful contributions, e.g.

Goffman (1981), Kockelman (2003). Overall, the literature on interjections and emotion can be characterized as sparse and scattered.

### **Results and Discussions**

During the 19th century, despite a growth in the empirical adequacy of grammars, the emotion-expressive view of interjections became even more prominent. This was thanks to two popular concerns. First, there was the search for psychological counterparts of linguistic phenomena. The idea that language reflects a speaker's mental processes was much older, but now concepts borrowed from the new and rapidly developing discipline of psychology stimulated linguists to take the psychological basis of words and sentences much more seriously. The meaning of words became generally identified with events in the mind of the speaker: concepts or representations. For interjections, there were no corresponding concepts or representations available. The most plausible alternative was to assume that the mental occurrences reflected by this word class were emotions.

Secondly, there was the increased involvement in theories on the origin of language. Language was frequently assumed to have developed from natural emotional cries, and interjections were regarded as grandparents of those first words.

In Gardiner's general linguistic work, the model is not the most prominent issue, compared to his central theme, the distinction between speech and language. But within the theory of speech, the subject is of considerable importance; it is extensively discussed twice, in two subsequent chapters of his book. Jakobson became famous for his achievements in almost every area of linguistics. His theory of language functions became very well-known, but the same is true of quite a few other new ideas he launched. Within the work of the psychologists Révész and Duijker, the discussion of language was restricted to only one episode in their careers. In Révész's case, however, the involvement in the problem of language origin was closely related to his general developmental approach in psychology, and also to his general endeavour to extend the area of psychology to the higher products of human culture. For example, he also published on the psychology of creative art, and in his book on the origin of language, parallels are drawn between language and music. So his linguistic work is not an accidental side-issue. Moreover, Révész considered his book on the origin of language to be his most successful work. Duijker was Révész' pupil and eventually became his successor as director of the Amsterdam Laboratory of Psychology. His book about extralingual elements in speech was his thesis. It appeared in the same year as Révész' *Ursprung und Vorgeschichte der Sprache*. Their simultaneous focus on language cannot be accidental, given their close professional relationship. On the other hand, the books are very dissimilar, and they hardly refer to each other. They share the broad perspective on language and its relation to other types of communication, but Révész' developmental approach is entirely lacking in Duijker's work. Their models of

language functions also differ considerably. After his thesis, Duijker was mainly involved in general psychology. He developed a five-fold division of the discipline, which became very influential in the organization of departments of psychology. Duijker returned to linguistics only very late in his career, when he was inspired by new developments in psycholinguistics.

### **Conclusion**

As the last word, many scientists define interjections in different ways and give their own definitions. Non-verbal communication assists to understand the language and interjections emphasize the information. Utilizing nonverbal communication and interjections together gives the opportunity to send and receive different information effectively. From history, when people communicate without any language, interjections effectively assist and they have been integrated for centuries in order to give emotional colorfulness to speech. That's why we assess the relative strengths and weaknesses of different approaches that reflect the relationship between non-verbal communication and interjections, and suggest a new analysis which preserves the insights of both.

### **REFERENCES**

1. Crystal, D. (1995). *The Cambridge Encyclopedia of Linguistics*. Cambridge: CUP.
2. Essberger, J. (2009). Interjections. Retrieved February 10, 2009 from <http://www.englishclub.com/grammar/interjections.htm>.
3. Fodor, J., Fodor J., & Garrett, M. (1975). The psychological unreality of semantic representations. *Linguistic Inquiry*, Fall: 515-531.
4. Goffman, E. (1981). *Forms of Talk*. Oxford: Blackwell, 233-235.
5. Li, Conghe. (2005). A cognitive-pragmatic account of interjections. *US-China Foreign Language*, 65-70.
6. Longman Dictionary of Contemporary English. (2003). Essex: Pearson Longman, 78-81.
7. Jakobson, Roman. 1960. 'Linguistics and poetics.' In: *Style in language*. Ed. by T.A. Sebeok. Cambridge MA: MIT Press, 350-377.
8. Popper, Karl. 1972. *Objective Knowledge: An Evolutionary Approach*. Oxford: Clarendon, 45-54.
9. Yoshida, K., Kamiya, M., Kondo, S.& Tokiwa, R. (2000). *Heart to heart: Overcoming barriers in cross-cultural communication*. Tokyo: Macmillan Language House, 133-136.
10. Wierzbicka, A. (1992). The semantics of interjection. *Journal of Pragmatics*, 18, 159-411, 111-192.
11. Wilkins, D. (1992). Interjections as emotions. *Journal of Pragmatics*, 18, 119-158.

**HUJUMLARNI ANIQLASH TIZIMLARINI TAKOMILLASHTIRISH  
UCHUN BINAR TASNIFLAGICHALAR ALGORITMINI TAHLIL QILISH**

*Shirinov Bobir Botir o‘g‘li,*

*Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU,*

*Axborot xavfsizligi kafedrasi assistenti,*

*[sh.bobur1994@gmail.com](mailto:sh.bobur1994@gmail.com)*

*Shukurov Orziqul Pardayevich,*

*Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU,*

*Axborot xavfsizligi kafedrasi assistenti,*

*[orzubek90@bk.ru](mailto:orzubek90@bk.ru)*

**Annotatsiya:** Maqlada tarmoq hujumlarini aniqlash tizimlarining tuzilishi va ishslashining o‘ziga xos xususiyatlari hamda tarmoqlarda paketlarni tahlilovchi algoritmlarni takomillashtirish imkonini beruvchi usullar ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, hujumlarni aniqlash tizimini takomillashtirishda binar klassifikatorlar usulidan foydalanish algoritmi orqali taklif etilgan model ko‘rsatkichlarini baholash tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** hujumlarni aniqlash tizimi, tarmoq paketlari, klassifikatorlar, detektorlar, kompyuter tarmoqlari, sensorlar, model va algoritmlar

**Kirish.** Hujumlarni aniqlash tizimini (IDS) ishlab chiqish axborot xavfsizligi sohasidagi ustuvor yo‘nalishlardan biridir. Ushbu muammoni hal qilishning ahamiyati kompyuter tarmoqlari tahdidlarining doimiy o‘sishi va xilma-xilligi bilan bog’liq bo‘lib, ularning amalga oshirilishi turli tashkilotlarda jiddiy moliyaviy yo‘qotishlarga olib kelishi mumkin. Kasperskiy laboratoriysi statistik ma’lumotlariga ko‘ra, 2017-yilning birinchi choragida 479 milliondan ortiq kompyuter hujumlari aniqlangan va bartaraf etilgan bo‘lsa, 2018-yilning shu davrida bu ko‘rsatkich 796 million hujumdan oshgan [1]. Har yili hujumlarning bunday ko‘payishi administratorlar va xavfsizlik bo‘yicha tahlilchilar tomonidan sezilarli darajada ko‘proq kuch va vaqt sarflashni talab qiladi. Korporativ tarmoq resurslarining xavfsizligini ta’minalash uchun muhim mahsulotlarni ishlab chiqarish bilan shug‘ullanadigan kompaniyalar IDS komponentlari va unga xizmat ko‘rsatadigan xodimlar ko‘rinishidagi maxsus uskunalarni saqlashga qaratilgan katta moliyaviy va moddiy resurslarni sarflaydilar [9].

Shu sababli, anomal tarmoq ulanishlarini aniqlash vazifasi dolzarb bo‘lib, ushbu maqlada taklif qilingan, hisoblash intellektining (HI) turli toifali usullari va signatura tahlilining kombinatsiyasidan (gibrid usuli) foydalanadigan yechim taklif etiladi.

**Adabiyotlar sharhi:** Ushbu muammolar haqida asosan chet el olimlari va professorlari ilmiy izlanish ishlarini olib borganlar va tezis, ilmiy maqolalar hamda bir qancha kitob nashrlarida o'z tajribalarini keltirib o'tishgan.

Bularga misol sifatida: Scarfone, Karen; Mell, Peter "Guide to Intrusion Detection and Prevention Systems (IDPS)" , Engin Kirda; Somesh Jha; Davide Balzarotti "Recent Advances in Intrusion Detection" , Denning, Dorothy E., "An Intrusion Detection Model" , Vaccaro, H.S., and Liepins, G.E., "Detection of Anomalous Computer Session Activity" , Singh, Abhishek. "Evasions In Intrusion Prevention Detection Systems" kabi nashrlarni keltirib o'tishimiz mumkin.

**Materiallar va usullar.** Anormal tarmoq ulanishlarini aniqlash uchun taklif etilayotgan metodologiyaning umumiy strukturasi quyidagi besh bosqichdan iborat:

1. klassifikatorlar daraxtini qurish;
2. tarmoq ulanishlari parametrlarini shakllantirish;
3. tarmoqqa ulanish parametrlarini oldindan qayta ishlash;
4. klassifikatorlar daraxtining kenglikdagi ierarxik o'tishi;
5. anomal tarmoq ulanishlarini aniqlash.

IDS komponentlarini operator va tizim tomonidan bajariladigan harakatlarni ko'rsatadigan ushbu usulning har bir bosqichiga batafsilroq to'xtalib o'tamiz.

Usbu usulning birinchi bosqichi tayyorgarlik sifatida tavsiflanishi mumkin, u individual ikkilik tasniflagichlar (detektorlar) tuzilishini tanlashni o'z ichiga oladi: qatlamlarning o'lchamlari va soni, o'qitish parametrlari va algoritmlari, faollashtirish funksiyalari turlari va yadro funksiyalari. Har bir detektor uchun o'rganish qoidalari to'plamini tuzish mumkin [2]. Har bir bunday guruhdagi detektorlar bittaga-hamma (one-vs-all), birga-bir (one-vs-all) yondashuvlar yoki ularning turli xil kelib chiqishiga asoslangan tasniflagichga birlashtiriladi.

Birinchi yondashuvda har bir  $F_{jk}^{(i)}: R^n \rightarrow \{0,1\}$  ( $k = 1, \dots, m$ ) detektor  $\{(x_l, [c_l = k])\}_{l=1}^M$  ma'lumotlarga o'rnatiladi va  $F_j^{(i)}$  detektorlar guruhining ishlashi istisno prinsipi yordamida tasvirlanadi:

